 - tik turib so'zlashganda ovoz ohangi qat'iyroq, o'tirib gaplashilsa, muloyim va yumshoqroq bo'ladi;
 - kechqurun 22:00dan ertalab 8:00gacha ogohlantirmasdan qo'ng'iroq qilmaslik kerak;
 - har qanday qo'ng'iroq salomlashishdan boshlanadi, yaxshi tilaklar bilan tugatiladi;
 - notanish odamga qo'ng'iroq qilinganda, avvalo, qo'ng'iroq qiluvchi o'zini tanishtirishi kerak;
 - ish yuzasidan suhbat 3-5 daqiqadan oshmasligi kerak, oilaviy suhbatlarni ham imkoniyat darajasida cho'zib yubormaslik lozim;

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)
- har bir subbatda so'zlashuvchining lug'atida "allo", "labbay", "assalomu alaykum", "rahmat", "salomat bo'ling" kabi so'zlar bo'lishi joiz.

78. To'g'ri javobni toping.

Ba'zi o'rinlarda asos va qo'shimcha orasida ortiqcha tovush talaffuz qilinsa ham, imloda bu qayd qilinmaydi. Matnda qo'llangan qaysi so'z shu jihatdan imloviy xatolikka ega?
A) ogohlantirmasdan B) gaplashayotganda
C) qo'ng'iroq qilinganda D) foydalanayapmizmi

79. To'g'ri javobni toping.

Matning umumiy xulosasiga mos keladigan fikrni aniqlang.
A) Notanish odamga qo'ng'iroq qilgan kishi o'zini tanishtirishi kerak.
B) Telefonda ko'p va behuda so'zlashish odobdan emas.
C) Qo'ng'iroq qilgan kishi avval salom berishi kerak.
D) Imkoni boricha, yarim tunda telefon qilmagan ma'qul.

80. To'g'ri javobni toping.

Matnda ajratib ko'rsatilgan qaysi so'z takabida fonetik hodisa yuz bermagan?
A) yumshoqroq B) so'zlashuvchining
C) oshmasligi kerak D) bunday

Berilgan matnlarni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

1. Yozuviga qarab insonning fe'l-atvori haqida xulosalar qilish mumkin. Qattiq bosib yozish hayotda o'z o'rnini topishga intilish, qiziqishlarning rivojlanganligidan dalolat beradi. Yirik yozuv serg'ayratlik, ruhiy ko'tarinkilik, mag'rurlik, o'z qadr-qimmatini baland qo'yish, oldinga qarab intilishni anglatadi. Qirrali qilib yozish yozuv egasining qat'iyatli ekanidan, hayotga e'tibor bilan qarashidan dalolat beradi. Pala-partish, xunuk, xato yozgan odamning hayot tarzi yozuviga monand bo'ladi.
2. 1993-yil 2-sentabrda respublikamizning har taraflama kamol topishini va jahon kommunikatsiya (axborot almashish) tizimiga kirishini jadallashtirish maqsadida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi Qonun qabul qilindi.
3. 1995-yil 24-avgustda ushbu yozuvning imlo (to'g'ri yozish) qoidalari qabul qilindi. ("Gubxan" jurnalidan)
3. O'zbek xalqi o'z tarixi davomida oromiy, kushon, sug'd, o'rxun-ena-soy kabi yozuvlardan foydalanib kelgan.
- VIII asrdan 1929-yilgacha arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidan foydalanilgan.
- 1930-1940-yillar oralig'ida lotin yozuviga asoslangan o'zbek yozuvi amalda bo'lgan. Undan so'ng kirill yozuviga o'tilgan.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

1993-yil salqimiz lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosini qabul qildi. O'g'lon, tomirchilarni ko'rgan, kun bo'yi og'ir mehnat ostida ezilib, yetarli oqsat topa olmaydilar. Etikdo'zlariga qaragin, tun bo'yi chiroq yorug'ida enik otib, ochlikdan kasal bo'lib, bevaqt vafot etadilar. Tosh yo'nuvchilarni ko'r, qancha ko'p ishlasalar ham, kambag'allikdan boshlari chiqmaydi. Shuning uchun sen xat yozishni o'rgan, savodli bo'l. Xat yozishni bilgan odamlar haqida bo'ladi.

(Odatdagi Msr ehromlarida qoldirilgan yozuvlardan)

81. To'g'ri javobni toping.

Berilgan gaplarni mos ravishda to'g'ri davom ettiring.

1	Qattiq bosib yozish...	a) ...yozuv egasining qat'iyatli ekanidan, hayotga e'tibor bilan qarashidan dalolat beradi.
2	Pala-partish, xunuk, xato yozuv...	b) ...hayotda o'z o'rnini topishga intilish, qiziqishlarning rivojlanganligidan dalolat beradi.
3	Qirrali qilib yozish...	d) ...serg'ayratlik, ruhiy ko'tarinkilik, mag'rurlik, o'z qadr-qimmatini baland qo'yish, oldinga qarab intilishni anglatadi.
4	Yirik yozuv...	e) ...odamning hayot tarzi ham yozuvi kabi tartibsiz ekanini ko'rsatadi.

- A) 1 - a, 2 - b, 3 - d, 4 - e
B) 1 - b, 2 - a, 3 - e, 4 - d
C) 1 - b, 2 - e, 3 - a, 4 - d
D) 1 - b, 2 - d, 3 - a, 4 - e

82. To'g'ri javobni toping.

Berilgan matnlar asosida to'g'ri keltirilgan ma'lumotni aniqlang.
A) Yurtimizda 1940-yilgacha arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvidan foydalanilgan.

- B) Mamlakatimizda 1930-yilda lotin yozuviga o'tilgan va undan 1993-yilgacha foydalanilgan.
C) "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" gi Qonun qabul qilinishida jahon kommunikatsiya tizimiga kirishni jadallashtirish maqsadi mavjud bo'lgan.
D) O'zbek xalqi o'z tarixi davomida faqat arab, sug'diy, kirill kabi yozuvlardan foydalanib kelgan.

83. To'g'ri javobni toping.

O'zbek xalqi XX asr davomida qanday yozuvlardan foydalanган?

- A) oromiy, kushon, sug'd B) arab, lotin, kirill
C) o'rxun-ena-soy, arab, lotin D) lotin, kirill

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinlar)

84. To'g'ri javobni toping.

Ikkinchi matnda yozuvchi qonun qabul qilinishidan qanday maqsad ko'zlanganini aytadi?

- A) lotin yozuvining o'zbek tili imkoniyatlariga mos imlo (to'g'ri yozish) qoidalarini qabul qilish
- B) serg'ayratlik, ruhiy ko'tarinkilik, mag'rurlik, o'z qadr-qimmatini baland qo'yish, oldinga qarab intilishni rag'batlantirish
- C) respublikamizning jahon kommunikatsiya (axborot almashisti) tizimiga kirishini jadallastirish
- D) barcha uchun majburiy bo'lgan adabiy me'yorlarni yartish va hayotga tatbiq etish

Berilgan matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Qutb yulduzi

Qadimda dengizchilar yold sahrodagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo'lni aniqlashgan. Yulduzlarni o'rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa munaajim deb atashgan.

Bilasizmi, yulduzlarning ham "yulduzi", ya'ni mashhurliari bo'ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o'tgan davrlar mobaynida ko'plab adashganlarga yo'l ko'rsatib, o'z manzillariga eson-omon yetib olishlarida ko'makchi bo'lgan.

Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri bo'lgani uchun uni topib olish qiyin emas. Olimlarning aytishicha, kumlar, oylar, ba'zan yillar o'tishi bilan yulduzlarning samodagi o'rni o'zgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi o'z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi. Shunday o'ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g'arbni aniqlay olishgan.

Qutb yulduzi Katta ayiq yulduzi turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120 marta katta bo'lib, o'n ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yo'l ko'rsatib turgani uchun "Yo'lchi yulduz" deb ham atashgan. Juda olisda bo'lgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472 yilda yetib keladi. ("Lajji akademik" jurnalidan)

85. To'g'ri javobni toping.

Yulduzlarni o'rganib, uning xaritasini chizib beruvchilarni qadimda qanday atashgan?

- A) munaqqid; B) mudarris; C) folbin; D) munaajim.

86. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi parchada ostiga chizilgan so'zlar o'rmi qaysi sinonimlarini qo'yish mumkin?

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinlar)

Quyidagi Qutb yulduzi o'z joyidan hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlab turadi.

- A) o'qarmaydi; jilolanib turadi B) siljmaydi; lovullab turadi
- C) qimirlamaydi; nur sochib turadi D) adashmaydi; jilvatlanib turadi

87. To'g'ri javobni toping.

Qutb yulduzining qaysi xususiyati tufayli sayyohlar dunyoning 4 tomonini aniqlay olishgan?

- A) joyi o'zgarmay, osmonning shimolida turgani uchun
- B) eng yorqin yulduz bo'lgani uchun
- C) juda olisda bo'lgani uchun
- D) odamlarga yo'l ko'rsatib turgani uchun

88. To'g'ri javobni toping.

Qutb yulduzi nima sababdan yulduzlarning "yulduz"i hisoblanadi?

- A) adashganlarga yo'l ko'rsatadi B) eng yorqin va go'zal yulduz hisoblanadi
- C) quyoshdan ham kata D) qutbda joylashgan

89. To'g'ri javobni toping.

Matnda ajratib ko'rsatilgan qaysi so'z faqat til undoshlari va unilardan iborat?

- A) qadimda B) sayyohlar C) bilasizmi D) kuchliroq

90. Ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Quyoshdan bir necha baravar katta bo'lgan yulduzlar bor.

- A) to'g'ri B) noto'g'ri

Berilgan matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

XXI asr yoshlar hayotiga sezilarli o'zgarishlar olib keldi. O'tgan asr bolalari maktab, turli to'garaklar va sport markazlariga chopgan hamda vaqtini shu kabi mashg'ulotlar bilan mazmunli o'tkazgan bo'lsa, bugungi yoshlarning qiziqishi boshqacha.

Bugungi hayotni internetsiz... qilish qiyin. Shubhasiz, internet - davrimizning eng buyuk ixtimolaridan biri. Katta-kichik har kim uning xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Biroq yoshlar undan to'g'ri foydalanyaptimi? Hozir to'rt-besh yashar bola ham kompyuterdan bemalol foydalanishi, ertadan kechgacha "avtopoyga" o'ynashi yoki "jangari film ishtirokchisi" ga aylanishi mumkin. Bir qarashda: buning yomon joyi yo'qdek. Bolaning uquvi kuchayadi, ko'proq axborot oladi... bu narsa odat tusiga kirsa, noxush oqibatlariga olib kelishi hech gap emas. Hamma gap internetdan qanday foydalanishda!

(H.Hamdamov)

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

91. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan ushbu gapda ko'p nuqta o'rniga qaysi so'zni qo'yish to'g'ri bo'ladi?

Bugungi hayotni internetsiz ... qilish qiyin.

- A) tafakkur B) xayol C) tasavvur D) orzu

92. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan ushbu gapda ko'p nuqta o'rniga qaysi vositani qo'yish mumkin?

... bu narsa odat tusiga kirs, noxush oqibatlariga olib kelishi hech gap emas.

- A) shuning uchun B) ammo C) balki D) toki

93. To'g'ri javobni toping.

Mazkur matndan qanday xulosa chiqarish mumkin?

A) Internet - davrimizning buyuk ixtiro, shuning uchun uning imkoniyatlarini to'g'ri baholash kerak.

B) Bolalar internetdan to'g'ri maqsadda foydalanishni o'rgatish kerak.

C) Ertadan kechigacha "avtopoyga" o'ynaydigan yoki "jangari film ishtirokchisi"ga aylangan bolalarni to'g'ri yo'naltirish kerak.

D) Bolalarni turli to'garaklar va sport markazlariga yuborish kerak.

94. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan ushbu gapda ostiga chizilgan so'z nima maqsadda qo'llangan? **Shubhasiz**, internet - davrimizning eng buyuk ixtirolaridan biri.

A) Yozuvchining mahoratini namoyon etish maqsadida.

B) Yozuvchi tomonidan o'z fikrining dalillanishi uchun.

C) Yozuvchining gumonini ifodalash uchun.

D) Yozuvchining ishonchini ifodalash uchun.

Berilgan matni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

"Haykal"

Buxoro ko'chalarida xayolchan kezarkanman, bir to'da sayyohlar boshi bulutga chulg'angan minoraga qarab turishganini ko'rdim. **Ularga bir kishi minora tarixini ... Quloq soldim.**

- Yetti yuz yil bo'lgan bu minoraning qurilganiga.

Sayyohlar hayrat bilan yoqalarini ushlashdi. Buxoro ko'chalarida kezarkanman, juda ko'p xotiralar xayolimdan o'tadi. Asriar **qarida** qolib ketgan jang-u jadallarni ko'rgandek, qilich-qalqonlarning jarangini eshitgandek bo'ldim. Bularning barcha tarix shomollari uchirib ketdi. Ammo **ko'hna** devorda qolgan besh barmoq izi hali ham ko'rinib turibdi. Bu - ming yillar qat'ida yo'q bo'lib ketgan odam qo'lining izi. Shu **azamat** binoga g'isht tergan me'mor qo'lining izi.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

Matndan olingan odamga **abadiy** haykal qo'yishiga ana o'shanda ishonganman. (Janet Alimadi)

95. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan o'rniga qaysi so'z mos tushadi?

- A) izohlayapti B) tushuntiryapti C) izohlayapti D) anglatyapti

96. To'g'ri javobni toping.

Matnidagi qaysi so'z matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning hech biri bilan moslash bo'lmaydi?

- A) tubida B) esdi C) kata D) bevaqt

97. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan quyidagi qaysi so'zda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushgan?

- A) ko'chalarida B) xotiralar C) hayrat bilan D) me'mor

98. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan quyidagi gapni qanday izohlash mumkin?

Matdan olingan odamga **abadiy haykal qo'yishiga ana o'shanda** ishonganman.

A) Inson o'ziga haykal qo'yishi uchun qo'li gul bo'lishi lozim.

B) Inson ishtiroki natijasida yaratilgan eng yaxshi obidalar uning haykalidir.

C) Inson vafot etib ketsa ham, uning mehnati bilan yaratilgan obidalar uning yodini manguga saqlaydi.

D) Odam qo'li guldir, shuning uchun ham go'zalliklar yaratiladi.

Berilgan matni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Yo'limizdagi to'siqlar

Qadim zamonlarda bir podshoh saroyga keladigan yo'l ustiga katta tosh qo'ydirib, o'zi nimalar bo'lishini yashirin kuzatib o'tirdi. Yurtning eng badavlat savdogarlari, eng kuchli karvonboshilar, saroy amaldorlari bir-bir kela boshladilar. Hamma toshning atrofidan aylanib o'tib, ichkariga kirdi. Aksariyati: "Xalqdan ko'p soliq olib, yo'llarga e'tibor qilmaydi", - degan ro'kachlar bilan shohdan noroziligini ovoz chiqarib gapirdi. Nihoyat, bir-dehqon keldi. U saroyga meva va sabzavotlar olib kelayotgan edi. Yelkasidagi savatni yerga qo'yib, xarsangto'shni bir amallab ifara boshladi. Qo'llari qonab, a'zoyi badani terga botdi. Lekin toshni yo'l ustidan chetga chiqarishga - bo'ldi. (*"Sharq hikoyati va rivoyatlari"*dan)

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

99. To'g'ri javobni toping.

Matndagi so'nggi gapda nuqtalar o'rniga qo'yilishi lozim bo'lgan so'z qaysi qatorda imloviy jihatdan to'g'ri ko'rsatilgan?
A) muvafaq B) muvaffaq C) muvaffaq D) muvvaftaq

100. To'g'ri javobni toping.

Matnda lekin so'zi nima maqsadda qo'llangan?
A) Dehqonning boshqalarga nisbatan soddaligini ifodalash uchun.
B) Dehqonning juda qiyinligiga qaramasdan, bir ishni uddalaganini ifodalash uchun.
C) Dehqon shuncha azob chekib, toshni chetga sursa ham, shohning ko'rinish bermaganini ifodalash uchun.
D) Dehqon bu ishni chin dildan qilgani va hech qanday ta'maga bormaganini ifodalash uchun.

101. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi maqol matn xulosasini o'zida ifodalay olgan?
A) Yaxshilik qilmasang, yomonlik ham qilma.
B) Yaxshilar topib so'zlar, Yomonlar qopib so'zlar.
C) Qozonga yondashsang, qorasi yuqar, Yomonga yondashsang, yarasi yuqar.
D) Yaxshilik qil, daryoga tashla, balliq bilar, balliq bilmassa, Xoliq bilar.

Berilgan matnni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Bir kuni Xadicha ko'chada ketayotib yetti yil avvalgi boxchadoshi Hilolani uchratib qoldi. Ikki dugona o'tgan davrlarni eslaship, kelgusidagi orzu-rejalari haqida baxslaship qolishi. Xadicha kelajakda o'qituvchi bo'lishi haqida zavqlanip gapirdi. Hilola esa bu kasping mashaqqatidan cho'chip fikr bildirdi. Xadicha ham o'zi orzu qilgan kasp - tarjimonlikni maqtadi. Xadicha boxchadoshi ranijtigisi kelmay, tarjimonning ham ustoz bo'lishi, bu kasbning ulug'ligi haqida gapirdi.
Ikki dugonaning suhbatlari anchagacha davom etdi.

(Iroda Sobitova)

102. To'g'ri javobni toping.

Matnda yo'l qo'yilgan imloviy xato to'g'ri izohlanmagan qatorni aniqlang.
A) Til orqa undoshini qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilgan.
B) Bo'g'iz undoshi o'rniga til undoshi yozilgan.
C) Jarangli lab undoshi o'rniga jarangsiz lab undoshi qo'llangan.
D) Jarangli til undoshi o'rniga jarangsiz til undoshi qo'llangan.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

101. To'g'ri javobni toping.

Matnda so'z qo'llash bilan bog'liq qanday xatolik mavjud?
A) Paronim qo'llash bilan bog'liq xatolik mavjud.
B) Sinonimning noo'rin qo'llanishi (oldingi so'zning o'rniga avvalgi so'z ishlatilgan) kuzatiladi.
C) Bir gap tarkibida har ikki zamonga oid so'z: o'tgan, kelgusidagi kabilar qo'llanishi bilan bog'liq xatolik mavjud.
D) Tarjimonlik kasbini maqtagan Xadicha emas, Hilola bo'lishi kerak.

ORFOEPIYA VA ORFOGRAFIYA

(talaffuz va imlo me'yorlari)

**UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR
TALAFFUZI VA IMLOSI**

1. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda i tovushi bilinar-bilinmas talaffuz etiladi?

- A) tilmoq, sira, bilan
B) tingla, tirnoq, tushib
C) qiziqarli, tortlik, ilhom
D) itarmoq, kelib, tartib

2. So'zlarga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda yuqori tor unlining yuqori tor unliga almashishi yuz beradi?

- 1) -v 2) -vethi 3) -q
4) -qi 5) -liha 6) -il
A) 1, 2, 3, 4, 5, 6 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 3, 5 D) 1, 2, 3

3. *madhiya, mahsus, mahkam, mashhur, hayol, mehr, mohir*

Berilgan so'zlarning nechtasida bo'g'iz undoshi noo'rin qo'llangan?
A) barchasida to'g'ri qo'llangan
B) ikkatasida
C) uchtasida
D) bittasida

4. Sh undoshining jarangli jufti qatnashmagan qatorni aniqlang.
A) Biz yangi jurnalni hozirgina keltridik.
B) Jirafaning bo'yini uzunmi yoki bo'yi?
C) Jo'jalarning patlari sariq...
D) Sajda aylar zo'hib ul mehrob aro...

5. Qaysi qatorda ostiga chizilgan so'z imlosida xatolik mavjud emas?
A) Xalqimiz farovonligi uchun bu ezgu tushunchalarni hayotga tartib qilmog'imiz zarur.
B) U xamma bilan juda chiroyli muomala qilyapti-ya?
C) Bu sohada ko'plab ilmiy tavsiyalar ishlab chiqildi.
D) Yurtimiz yuksalishiga ulkan xissa qo'shib kelayotgan ko'plab yurtdoshlarimiz munosib taqdirlandi.

6. Qaysi qatordagi so'zlarda i ga monand aytiladigan e unlisi qatnashgan?
A) teng, bekorchi
B) terak, tenglama
C) meva, dengiz
D) okean, material

7. Qaysi gap tarkibidagi so'zda qisqa talaffuz etiladigan i unlisi qatnashgan?
 A) Ishonch juda katta qurol.
 B) Men akam bilan faxrlanaman.
 C) Bugun ilhom bayramga borolmas ekan.
 D) Ilonlar taylakdan qo'rqarkan.

8. Qaysi so'zlardagi u unlisi i unlisi kabi talaffuz qilinadi?
 A) musiqiy, tugatmoq, yozuv
 B) kunduz, qovun, tovuuq
 C) turna, tungi, tushuncha
 D) muhofaza, murojaat, muallif

9. Qaysi qatorida ostiga chizilgan so'z imlosida xatolik mavjud emas?
 A) Shirin uyqudan vos kechib,
 kitoblarga do'st tutingan inson
 vaqtlar o'tib kamolotga erishadi.
 B) Qalamla men to'qiyman qo'shiq, u
 - insonga, elga xizmatim.
 C) Sport bilan shug'ullanish uchun
 har kuni bu yerga kelar edi.
 D) Sizdan bu qilgan ishim uchun afy
 so'ramoqchiman.

10. Qaysi qatoridagi so'zlarda o' unlisi kengroq talaffuz qilinadi?
 A) ko'l, o's B) cho'l, jo'ra
 C) bo'ri, xo'roz D) qo'l, to's

11. Berilgan so'zlarning barchasida ko'p nuqta o'rniga chuqur til orqa undoshi qo'yiladigan qatorni aniqlang.
 A) ar...eolog, alo...ida, vo...a, asla...a
 B) a...il, ba...t, guvo..., ba...s, a...kom
 C) ...attot, glyo..., ba...odir, va...ima,
 D) gazet...on, pa...ta, a...ir, gul...an

12. Qaysi qatorida berilgan so'zlar tarkibidagi z undoshi s undoshi kabi talaffuz qilinadi?
 1) yozsin, tuzsiz 2) iztirob, izhor
 3) izchil, issiz 4) ossa, rizq
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 1, 2
 D) faqat 2

13. Quyidagi nechta so'z to'g'ri yozilgan?
 tassurot, taajub, taulluqli, mualliq,
 mudofa, murojat, muallif, muovun,
 molaja, muattar.
 A) 4 ta B) 5 ta C) 3 ta D) 2 ta

14. Til oldi, jarangli, sirg'aluvchi i undoshi qatnashgan qatorni aniqlang.
 A) boyxona, avi, jahon
 B) jiyda, juda, jayron
 C) jilolanmoq, jajji, jo'ja
 D) jurnal, vijdon, ajdar

15. Qaysi gapda imloviy xato yozilgan so'z uchraydi?
 A) Bu o'qituvchi o'zining kichkina shogirdiga o'qish va yozishni o'rgatardi.
 B) Bu kitoblarni manzilga olib borib berish to'rtoviga topshirilgan edi.
 C) Hayotda rahm va shavqat borligiga xursand bo'lmog'imiz kerak.
 D) Hamshiraning xushmuomalalik bilan aytgan o'sha so'zlari uni anchagacha chuqur o'ylga toldirib qo'ygandi.

16. Qaysi qatorida ajratib ko'rsatilgan so'zda lab undoshi bilan bog'liq imloviy xatolik uchraydi?

A) Qisqa vaqt ichida olyoghning o'qov binolari qayta ta'minlanib, barqarorlikka topshirildi.
 B) Harakatlangani sari ta'asiga tesirli yogurib, o'zida quvvat saqladi.
 C) Siga shuni aytib qo'yimoqchiman,ki, tafsinomangiz yotib qo'yildi.
 D) Otaxonning dovdirab, nima deyishni bilmay tutulib gapirganini ko'rgan yigit unga dalda bermoqchi bo'ldi.

17. Qaysi qatorida berilgan so'zlarning barchasida imloviy xatolik mavjud?
 A) hamroq, ohang, ihtisos
 B) sushbat, xoxlamoq, ihtiyor
 C) savas, mehmon, xotira,
 D) mahalla, qahramon, fahr

18. Qaysi qatoridagi gapda imloviy xatoga yo'l qo'yilgan?
 A) Yaxshilik qilgan insonni hamma qadrilaydi.
 B) Ulug'vor maqsad oldida turganida, mehnatni rohat bil.
 C) Kimki tashlandig' yerni obod qilsa, bu yer o'shamiki bo'ladi.
 D) Odamlarga muomala qilishda muloyim bo'lish kerak.

19. Qaysi qatoridagi so'zlarda nuqtalar o'rniga jarangsiz / sirg'aluvchi / bo'g'iz undoshi qo'yilsa, to'g'ri bo'ladi?
 1) ...abar, 2) isla..., 3) nika..., 4) ...o'roz,
 5) ...ayot, 6) ...ohish, 7) ...osil, 8) ...amma, 9) ...ushnud, 10) ...ayol, 11) ba..., 12) a...borot, 13) ba...or, 14) ml...

20. Qaysi so'zlar tarkibida n va g undoshlari yonma-yon kelgan?
 A) yengil, ko'nglim
 B) sening, tanga (pul)
 C) kongress, tungi
 D) dangasa, singli

21. Qaysi qatoridagi so'zlar imlo qoidalariga ko'ra to'g'ri yozilganini aniqlang.

	a	b
1	fataj	falach
2	shirguruch	sirguruch
3	xarom-xarij	harom-xarish
4	chirik	churik
5	chitpurish	chitfurush
6	chorshamba	chorshanba
7	qushxona, (qassobxona)	kushxona (qassobxon a)
8	talon-taroj	talon-taroch

A) 1, 2, 3, 4, 6, 9, 10
 B) 2, 5, 7, 8, 11, 12, 14
 C) 2, 3, 5, 7, 8, 13
 D) 1, 4, 6, 9, 10, 11, 12, 14

22. Qaysi qatoridagi so'zlarda i ga monand aytiladigan e unlisi qatnashgan?
 A) kecha, ekran B) telefon, teatr
 C) tennis, mergan D) chekmoq, berk

23. Qaysi so'zlarda tarkibidagi o unlisi i ga moyil talaffuz qilinadi?
 A) termos, tormoz, direktor
 B) telefon, xabardor, bahor
 C) xo'roz, ro'mol, qo'rimoq
 D) pomir, tonna, orden

24. Yopiq bo'g'inlari hosil bo'lish usuliga ko'ra bir guruhga mansub bo'lmagan tovushlar bilan tugagan so'zni aniqlang.
 A) munaqqid B) mudarris
 C) munaajim D) muqaddas

25. Urg'usi bilan farqlanadigan so'zlarni aniqlang.

- 1) *suzma (ot) - suzma (fe'l)*
 - 2) *yozmoq (fe'l) - yozmoq (fe'l)*
 - 3) *tortma (ot) - tortma (fe'l)*
 - 4) *akademik (ot) - akademik (sifat)*
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4
 C) 1, 3, 4 D) 1, 2, 3

26. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) infarkt, infeksiya, ihsamoq
 B) imtihonsiz, ilm-amal, ijroiya
 C) iliq-milq, ikxalik, ikki qanotli
 D) ikki-yuzlamachi, ihota, iddao

27. Berilgan so'zlarning nechtasida urg'u uchinchi bo'g'inga tushgan?
Olmani, ishlama, direktor, fiziklar, hammasi, matematika

- A) 4 ta so'zda B) 3 ta so'zda
 C) 2 ta so'zda D) 5 ta so'zda

28. *Bu ko'zlar nimalarni ko'zlar.* Ushbu gapdagi shakldosh so'zlar urg'usini aniqlang.

- A) birinchisida 2-bo'g'in, ikkinchisida 1-bo'g'in

- B) birinchisida 1-bo'g'in, ikkinchisida 2-bo'g'in
 C) ikkalasida ham 2-bo'g'in
 D) ikkalasida ham 1-bo'g'in

29. Qaysi so'zlardagi a unlisi o unlisi kabi talaffuz qilinadi?

- A) davr, ayiq B) tilak, muolaja
 C) varrak, qadr D) baho, jahongir

30. Portlovchi j undoshining jarangsiz jufti yopiq bo'g'in tarkibida kelgan qatorini aniqlang.

- A) mushukcha B) kechasi
 C) ichimlik D) chopag'on

31. So'z ma'nosini farqlashga xizmat qilgan fonemalar qatnashmagan qatorini toping.

- A) artish - archish B) qasd - qast
 C) shoh - shox D) bog' - boq

32. Qaysi qatorda so'z va uning izohi to'g'ri berilmagan?

- A) artish - tozalash
 B) ato - in'om, sovg'a
 C) mezon - o'lchov
 D) usshoq - mag'iz

33. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) ihtisos, ixtiyor, iymon
 B) imon, izox, izdihom
 C) ichburuq, izchilik
 D) itmushuklik, istibod

34. Qaysi so'zlarda i unlisi qisqa talaffuz qilinadi?

- A) qirg'oq, zirapcha B) ilon, imkon
 C) noib, shoir D) singil, kiyim

35. 'r unlisi qisqa talaffuz qilinmaydigan qatorini aniqlang.
 A) bilan, qirg'oq B) kir, bir, qir
 C) zirapcha, likopcha D) kitob, ilhom

36. E unlisi qaysi so'zlarda to'liq talaffuz qilinadi?

- A) telefon, teatr B) okean, material
 C) kecha, ekran D) kinoteatr, okean

37. Birinchi bo'g'in ochiq bo'g'in hisoblangan so'zlarni aniqlang.

- A) ingramoq, singlisi
 B) ko'ngil, tonggi
 C) yangi, tongi
 D) tungi, jonga

38. Talaffuzda ham, yozuvda ham amal qiladigan tovush almashishi qo'llangan so'z qaysi qatorda qatnashgan?

- A) Boshi oqqan tomonga ketdi.
 B) Tor qoringa siqqan, keng hovliga sig'masmi?
 C) Toqqa chiqqach, gaplashamiz.
 D) To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi.

39. Berilgan so'zlardan nechtasida o' unlisi torroq talaffuz qilinadi?

- ko'l, o's, ro'mol, qo'rimoq, cho'l, jo'ra, xo'roz*
- A) oltitasi B) uchtasi
 C) to'rttasi D) beshtasi

40. Imloviy jihatdan xato yozilmagan so'zlarni aniqlang.

- A) kundan-kunga, ko'pdan-ko'p
 B) Davlat obod, Xo'ja obod
 C) erta-yu-kech, shom-u-sahar
 D) kelibqoq, sezdiyov

41. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zni aniqlang.

- A) sirguruch B) xarom-xarij
 C) chitfurish D) kushxona

42. Imlosida xatolik mavjud bo'lmagan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) murosaa, mudofaa
 B) ma'raka, murvat
 C) murud-baxsh, muxlis
 D) muxollfat, mute'

43. Imlosida xatolik mavjud bo'lmagan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) istelzoomuz, istehekrom
 B) istedodsiz, istiloh
 C) it-uzum, irmushuk (bo'lmoq)
 D) istesno, ixlosmand

44. a unlisi qaysi so'zlarda o unlisi kabi talaffuz qilinadi?

- A) doira, nota
 B) zamon, hamon
 C) tonna, sarala
 D) hayroq, a'lo

45. Qaysi qatordagi so'zlarda nuqtalar o'rni jarangi, tl orqa, portlovchi undosh yoziladi?

- A) pa.-pa.ana, qayno.
 B) to'.son, ma.sad
 C) ta.charm, bar.simon
 D) dar..chil, kasalman..

46. Qaysi qatordagi barcha so'zlarda talaffuzda tovush orttirilishi kuzatiladi?

- A) shariat, to'fa, No'la
 B) ifixor, itoat, faxr
 C) faxr, hukm, fazo
 D) ifixor, fazo, toifa

47. Qaysi gapdagi so'zda tovush almashinish hodisasi yuz bergan?
 A) Bu orada qiziq ishlar bo'lib o'tdi.
 B) Qumloqda saksovu, iltizlari chuqurlab ketgan edi.
 C) Dushmanni tag-tug'i bilan yo'qotib yubordi.
 D) Son-sanoqni bildiruvchi so'zlar sanoq sonlar deyiladi.

48. Qo'shimcha qo'shilishi bilan tovush almashinishi yuz beradigan so'zlar qatorini toping.
 A) o'yin, o'qi, bog'
 B) o'rdak, qishloq, qoshiq
 C) ek, tog', teg
 D) og'ir, bog', chilla

49. Qaysi so'zlarda urg'u ma'no farqlash uchun xizmat qiladi?
 A) qatlama, atlas
 B) yuklama, gapir
 C) erkin, dala
 D) zakovat, suzma

50. O' kabi aytilsa-da, o yoziladigan so'zlar qatorini aniqlang.
 A) zamon, hamon B) okean, konsert
 C) tonna, orden D) baho, jahongir

51. Shundan so'ng ikkovi shunchalik qalinlashdiki, hatto bir juma kuni Maradxo'ja domlaring mehmonxonasida bir haftalik so'z boyligini aylitib tamom qildi. Ushbu gapda nechta so'z fonetik o'zgarish asosida yozilgan?
 A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

52. Faqat lab undoshlaridan tashkil topgan ochiq bo'g'inli so'zlarni belgilang.

- A) ma'no, mabodo, bobo
 B) vabo, vafo, ma'vo
 C) havo, bayot, badaviy
 D) popop, moviy, pafos

53. Quyidagi qaysi so'zlarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushadi?

1) olma (ot)	2) gapirma (ie')
3) bolacha (ot)	4) hozir (ravish)

- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2
 C) faqat 1 D) 1, 2, 3

54. Imlo qoidalariga ko'ra to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.
 A) terakka, bilakka, so'roqqa, sog'ga
 B) uzoqqa, toqqa, buloqqa, choqqa
 C) yurakka, uloqqa, tuzog'ga, cho'g'ga
 D) so'roqqa, ishtirokka, tekga, chokga

55. Imloviy jihatdan xato yozilgan so'zni toping.
 A) la'l B) yombosh
 C) qal'a D) uchurtiq

56. Imlo jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlarni toping.
 1) buzog' 2) butun 3) uchiq 4) usul
 5) buzuq 6) chirmoviq
 A) 1, 2, 4, 5 B) 1, 2, 4, 6
 C) 2, 4, 5 D) 2, 4, 6

57. Qaysi qatoridagi so'zlarda old qator o'rta keng unlisi mavjud?
 A) ekin, esla, evara, ekran
 B) eksport, ko'l, zehin, kecha
 C) behi, telefon, teatr, kino
 D) atelye, e'ton, ne'mat, sho'r

58. Qaysi qatorda imlo jihatdan xato yozilgan so'zlar berilgan?

- 1) marfaat, 2) kauchuk, 3) aorta, 4) suolat, 5) burjua, 6) shuaro, 7) inshoot, 8) sanoat, 9) vakuum, 10) nuommo, 11) matbuot, 12) tabily, 13) rlovo

- A) 2, 4, 7 B) 5, 7, 9, 12 C) 5, 7, 9
 D) hammasi to'g'ri yozilgan

59. Qaysi qatoridagi so'zlar oxiridagi undosh tovush p aytilsa ham, b yoziladi?

- A) bobo, bahor, bir, majbur, zarb
 B) kitob, yuzlab, kelib
 C) oltob, xitob, baxt, mirob,
 D) top, chop, qop

60. Qaysi qatoridagi so'zlarda jarangsiz / portlovchi / lab undoshi ishtirok etgan?

- A) paxta, pishloq, opa, tepa, tup, yop
 B) dala, odat, bunyod, modda, jiddiy
 C) qibla, tobla, sabzi, buzog', barakali
 D) fan, fe'l, futbol, fizika, asfalt, juft

61. Quyidagi so'zlarning qaysilarida birinchi bo'g'in yopiq bo'g'in hisoblanadi?

- 1) yangi, 2) ko'ngil, 3) dengiz, 4) singil, 5) tanga, 6) tongi
 A) 1, 3, 5
 B) 2, 3, 4
 C) 1, 2, 6
 D) hammasida ochiq bo'g'in

62. Qaysi so'zlarda unlikdan oldin unli tovushni undosh tovushdan ajratib talaffuz qilishga xizmat qiladigan tutuq belgisi qo'yiladi?
 1) a'lo, 2) in'om, 3) mo'jiza, 4) ba'zan, 5) mas'ul, 6) mo'tadil, 7) san'at, 8)

- ma'yus, 9) qat'iy, 10) ta'zim, 11) ra'y, 12) e'ton, 13) mo'tabar, 14) e'tibor, 15) qal'a

- A) 1, 2, 7, 8, 9, 10, 12, 14, 15
 B) 1, 4, 8, 10, 11, 12, 14, 15
 C) 2, 5, 7, 9, 15
 D) 2, 4, 5, 6, 7, 9, 15

63. Qaysi qatorda imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar berilmagan?

- A) material, milliard, radiator, tabiat, shariat
 B) biologiya, million, stadiyon, radio, teatr, poema
 C) mozaika, ukrain, maishat, okean, ayron, laureat
 D) alkoloid, ellipsoid, doim, shoir, oila, aeroport

64. Imlo jihatdan xato yozilmagan so'zni toping.

- A) sa'nat B) mas'ul
 C) muolaja D) uchuruq

65. Qaysi qatoridagi so'zlarda til oldi / jarangli / sing'aluvchi undoshi mavjud?

- 1) jon, 2) tiraj, 3) rivoj, 4) vaj, 5) jurnal, 6) jahon, 7) proyektor, 8) gijda, 9) jiyda, 10) tijorat, 11) ajdar, 12) jirafa
 A) 1, 3, 4, 6, 9, 10
 B) 2, 5, 7, 8, 11, 12
 C) 1, 3, 5, 7, 9, 11
 D) 1, 2, 4, 7, 8, 12

66. Qaysi qatorda berilgan barcha so'z fonetik o'zgarishga uchragan?
 A) angla, sanoqsiz, yashovchan, obro'ying, susaymoq, yig'loq,
 B) bug'ga, bo'yog'i, idroki, shahrimiz, kaptarboz, singlisi,

69. To'g'ri javobni toping.
Ostiga chizilgan so'zlarning imloviy jihatdan mosini aniqlang.

- A) hohlagan, mudofaa
B) sohlagan, mudofa
C) xoxlagan, mudofa'a
D) xohlagan, mudofaa

70. To'g'ri javobni toping.
Matndan qanday tarbiyaviy xulosa chiqarish mumkin?
A) Najmiddin Kubro shunday ulug' zot bo'lganki, undan hatto Chingizxon ham chorchigan.
B) Najmiddin Kubro shunchalar kuchli bo'lganki, uning muishtini ochishga qorolsiz erisholmaganlar.
C) Najmiddin Kubro taslim bo'lish va yovdan qochish o'rniga, Vatan uchun kurashishni afzal bildi.
D) Najmiddin Kubro bayroqning jangdagi abamiyatini yaxshi bilgani uchun bayroqni changalab oldi.

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Zilola opa shogirdi Maftuna bilan muzeydan chiqqanda soat oltidan o'chib qoldi. Zilola opa bolalarini bog'chadan olishga shoshardi. Shu sababdan talabida ketmoqchi bo'lishdi. Aksiga olib, mashinalar kam. Nihoyat, oq "Neksiya" chetroqda to'xtadi...

Zilola opa uyga kelgach, haydovchiga ikkita besh ming so'mlik uzatib, uyiga kirdi. Biroz o'tib ko'cha eshigining qattiq taqillagani eshitildi. Opa himligini so'radi:

- Men boya sizni uyingizga olib kelgan haydovchiman, - degan ovoz holdi. Haydovchining aytishicha, Zilola opa besh ming so'mlik o'rniga ellik ming so'mlik pulni berib yuborgan ekan. Opa haydovchining halolligini ko'rib sevindi, so'ng suyuqchi bermoqchi bo'ldi.

- Opajon, duo qilsangiz bo'ldi. Alloh bizni hamisha halol rizq bilan ayylasin, - dedi haydovchining ayoli. Zilola opa bu iymoni odamlarni kuzatar ekan: "Eh, qanday insofli, samimiy yurtdoshlartimiz bor-a..." - deb g'ururlanib qo'ydi.
(" Gulxan " dan)

71. To'g'ri javobni toping.
Zilola opa taksi haydovchisiga necha pul berishi lozim edi?
A) besh ming so'm B) o'n ming so'm C) ellik ming so'm D) yuz ming so'm

72. To'g'ri javobni toping.

Barcha kitoblar →

C) bobom, undan, bunday, bog'ga, biroz, ekkuncha, dimog'i,

D) oltovlon, zar'kentni, oxzodlik, ittifoqi, mening, ravnaqimiz.

MATN VA LUG'AT USTIDA ISHLASH

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Najmiddin Kubro

Xorazmni istilo qilishdan oldin Chingizxon Najmiddin Kubroga maqtub yo'llaydi: "Men Urganchni bosib olib, qatli om qilmoqchiman. Siz oila a'zolaringiz va shogirdlaringiz bilan **hohlagan / xohlagan / xoxlagan** tomoningizga ketishingiz mumkin".

Vatanparvar bobomiz uning taklifini Mo'g'ul qo'shinlari shaharga hujum qilgan vaqtda: "Yo Vatan, yo o'lim!" - deb shaharni **mudofaa / mudofa / mudofa'a** qilishga kirishadi.

Hal qiluvchi jangda u dushman bilan mardlarcha olishadi. Kamondan otigan o'qlardan biri uning ko'ksiga sanchiladi. Shahid bo'layotgan Najmiddin Kubro yov qo'lidan bayroqni tortib olib, uni changallaganicha halok bo'ladi. Dushman bayroqni tortib olish uchun uning barmoqlarini kesishga majbur bo'ladi.

Najmiddin Kubroning bu jasorati tildan tilga o'tib, afsonaga aylandi.

67. To'g'ri javobni toping.

Nuqtalar o'rniga mos so'zni ko'rsating.

- A) paysalga soliddi B) qabul qiladi C) rad etadi D) o'ylab ko'radi

68. To'g'ri javobni toping.

So'zlar va ularning izohlarini moslashtiring.

Atama	Izoh
1. mudofaa	a) bosib olish
2. istilo	b) yoppasiga qirtish
3. qatli om	d) haqqoniyat yo'lida qurbon bo'lish
4. shahid	e) himoya

- A) 1 - e, 2 - a, 3 - b, 4 - d
B) 1 - a, 2 - e, 3 - b, 4 - d
C) 1 - e, 2 - b, 3 - a, 4 - d
D) 1 - b, 2 - e, 3 - a, 4 - d

Barcha kitoblar →

- 1) mazza, mantiqqa, varoqqa, yanog'ingdan
 2) maza, mantiqqa, varoqqa, yanog'ingdan

76. To'g'ri javobni toping.
 Quyidagi gapni matn asosida xulosa qilib davom ettiring.

Onalar shuning uchun ham azizdirki, ...

- A) O'z farzandiga bo'lgan muhabbati sababli o'z xizmatining narxini aytmaydi.
 B) Farzand uchun qilgan xizmati beqiyos bo'lsa ham, undan hech nima ta'ma qilmaydi.
 C) Farzandning lahzalik mehnatini ham besamar ketishiga yo'l qo'ymaydi.
 D) Bolasi uchun o'zini qurbon qiladi, o'zini esa umuman o'ylamaydi.

77. To'g'ri javobni toping.

Bolaga pul nima uchun zarur edi?

- A) Qilgan xizmatlariga haq undirish uchun. B) Ta'tilda sarflash uchun.
 C) Onasini xursand qilish uchun. D) Boyib ketish uchun.

78. To'g'ri javobni toping.

Matn tarkibida tovush o'zgarishlarining qaysi tur(lar)i uchraydi?

- A) tovush ortishi, tovush tushishi
 B) tovush ortishi, tovush almashishi
 C) tovush tushishi, tovush almashishi
 D) tovush almashishi

Matnii o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

ALP ER TO'NGA

Afrosiyob – Turon davlatining sha'ni, shaykati uchun qattiq kurash olib borgan afsonaviy tarixiy (1) ... lardan biri. U yurtini yovuz bosqinchilardan himoya qilgan ulug' (2) ... Turkiy manbalarida bu (3) ... Alp Er To'nga nomi bilan tilga olingan. Demak, Alp Er To'nga va Afrosiyob, aslida, bitta shaxsning turkiy va forsiy nomlari bo'lib, u Turon davlatining asoschisidir.

Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit-turk" kitobida Alp so'zini quyidagicha tahlil qilgan: "Alp – bohir, qahramon". Turkiy xalqlarda bohir sarkardalar va podshohlar nomiga, odatda, Alp so'zi qo'shib ishlatilgan.

Demak, Alp Er To'nga bu nomni o'ziga ism qilib olgan dastlabki inson, turkiy xalqlarning ilk (4) ... idir. ("O'zbekiston tarixi" kitobidan)

79. To'g'ri javobni toping.

Raqamlab ko'rsatilgan o'rinlarga mos so'zlar ketma-ketligini aniqlang.

- A) sarkarda, hukmdor, shaxs, podshoh
 B) shaxs, hukmdor, podshoh, sarkarda

Ostiga chizilgan so'zning matndagi ma'nosini aniqlang.

- A) sinchiklab qaramoq, ko'zdan kechirmoq
 B) biror narsani nazarda tutmoq
 C) ketayotgan kishi bilan xayr-xo'sh qilmoq
 D) zimdan qarab tekshirmoq, ta'qib qilmoq

73. To'g'ri javobni toping.

Matnda qo'llangan qaysi so'zda keng umlining keng unliga almashishi kuzatiladi?

- A) chiqqanda B) eshigining C) haydovchining D) halolligini

74. To'g'ri javobni toping.

Qaysi maqol matn mazmuniga mos?

- A) O'g'ri bo'l, qaroqchi bo'l, insofli bo'l.
 B) Aytguvchi nodon bo'lsa, Tinglovchi dono kerak.
 C) Hisebli do'st ayrilmas.
 D) Insofi borning barakasi bor.

Matnii o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Bola xarajalar uchun dadasidan olgan pullarini vaqtidan avval sarflab qo'ydi. Yaqinda ta'til boshlanadi. Pulsiz ... qilmaydi. Yo'lini topish kerak. Qo'lga tushgan jurnalda har bir xizmat uchun haq to'lanishi lozimligini o'qib, ko'zlarini chaqnaq ketdi. Bu ... ko'ra oilasi uchun qilgan ishlarining har biriga haq olish kerak.

Do'kondan non keltirishni besh yuz so'mga, axlat to'kishni ming so'mga, onasi bilan bozorga borib kelishini uch ming so'mga baholasa, oilasidagilar qimmatga tushmaydigandek edi. Xuddi shunday qildi. Bir ... oy davomida bajaradigan ishlarini yozib, narx qo'ydi. Jami yuz ming so'm bo'lgan edi. Xatni sekingina onasining cho'ntagiga solib qo'ydi. Boyib yo'lini topganidan boshi osmondadi!

Ertalab dars stoli ustidan yuz ming so'm pul va bir xatcha topdi: "Seni dunyoga keltirganim, yillar bo'yi ustingni toza tutganim, ming azob bilan o'stirayotganimning haqi faqat sening muhabbat va erkalar ... birgina o'pib qo'yganimdir. Ishlab topgan pulingni o'ynab-kulishga ishlat, bolajonim!". ("Ona mehri" hikoyasidan)

75. To'g'ri javobni toping.

Nuqtalar o'rniga qo'yilishi lozim bo'lgan so'zlar imlovii jihatdan to'g'ri korsatilgan qatorni aniqlang.

- A) mazza, mantiqqa, varoqqa, yanog'ingdan
 B) maza, mantiqqa, varoqqa, yanog'ingdan

- C) hukmdor, shaxs, sarkarda, podshoh
D) shaxs, sarkarda, hukmdor, podshoh

80. To'g'ri javobni toping.

Ostiga chizilgan birlik bilan ma'nodosh bo'lgan va grammatik jihatdan matnga mos so'zni aniqlang.

- A) atalgan B) yozilgan C) nom olgan D) aytilgan

81. To'g'ri javobni toping.

Ajratib ko'rsatilgan oxirgi gapda *demak* so'zi qo'llanishini izohlang.

- A) Yuqoridagi ma'lumotlar ishonchli ekanini ta'kidlash uchun bu so'z qo'llangan.
B) Matnning xulosasini ifodalash uchun bu so'zdan foydalanilgan.
C) Matn tarkibida taxminiy fikrlar berilgani sababli bu so'z ishlatilgan.
D) Matn qismlarining ahamiyatligini ifodalash maqsadida qo'llangan.

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Katta ko'chani kesib o'tishga qiynalayotgan onaxonni ko'rgan ikki bola o'zlarining (1) **doymiy** odatlariga (2) **riyo**ya qilib unga ko'makka shoshilishdi.

Ularni kuzatib turgan uchinchi bola (3) **taajublanib**:

- Senlarga bundan nima (4) **manfaat**, yo'lingda ketavermaysanlarmi? – dedi.

Yaxshi (5) **oilada** o'sgan bolalar doimiy ishlarini davom ettirib, onaxonni yo'ldan o'tkazib qo'yishdi.

Onaxon ko'chaning bu betiga o'tgach:

- Tarbiya bergan ota-onangizga ming rahmat, baxtli, (6) **sandatli** bo'linglar! – dedi ularni (7) **duvo** qilib. (*'Gulxan'* dan)

82. To'g'ri javobni toping.

Raqam bilan ajratib ko'rsatilgan qaysi so'zlar imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) 1, 3, 5, 7 B) 1, 3, 7 C) 1, 2, 3, 5, 7 D) 1, 3, 4, 7

83. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi maqol matn mazmuniga mos?

- A) *Suv bilan ekin o'sar, Tarbiya bilan — odam.*
B) *Foydasi yo'q boydan qoch, Panasi yo'q soydan qoch.*
C) *Bostirmadan ayvon yaxshi, Yomon do'stdan hayvon yaxshi.*
D) *Yomonlikka yaxshilik — Mard kishining ishidir.*

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Greta Tunberg kim va u nimaga erishmoqchi?

Tengdoshingiz Greta Tunberg haqida odamlar ilk marta 2018-yil 20-avgustda eshitdilar. 12 yoshli qizchani qo'lidagi plakatda kattalarqilim isishi muammosiga e'tibor qilishmasa, maktabga chiqmasligini yozgan edi.

"O'qituvchimiz bizga ishlatilgan plastik idishlar sababli okeanlarda paydo bo'layotgan chiqindi uyumlari, dunyoning isishi oqibatida jabr bo'layotgan qutb ayiqlari haqida film qo'yib berdi. Men yig'ladim, sinfdoshlarim ham. Filmidagi sahnalar miyamdan chiqmay qoldi", degan edi Greta ilk intervyusida.

Greta Tunberg ota-onasidan hitimos qilib, uyiga tabiat uchun bezurar quyosh panellarni o'rnatdi. Tomorqaga ekin ekib, o'zi yetishtirgan mahsulotlar bilan oziqlana boshladi. O'qishga ham avtomobilda emas, velosipedda qatnaydigan bo'ldi.

2019-yilning 23-sentabrida Greta Tunbergning Birlashgan Millatlar Tashkiloti minbarida turib so'zlagan nutqi ko'pchilikning diqqatini jalb qildi.

"Men hozir maktabda bo'lish o'rni qilm o'zgarishining xavfidan kattalarni ogohlantirib yuribman. Kelajak xavf ostida qolayotganini tushunganim uchun shunday qilyapman. Men his qilayotgan tashvishni hamma his qilishini, odamlar birlashib tabiatga yordam berishlarini istayman".

Greta Tunbergning xatti-harakatini har-kim o'zicha ta'laqin qildi: kimdir uni "tabiatning himoyachisi, xaloskori" desa, yana kimdir qattiq tushkunlikdan ruhlan siqilganini aytardi.

Ba'zilar Gretani qiz desa, ba'zilar uni kalaka qilib, shu yo'l orqali mashhur bo'lishni xohlagani haqida o'ylardi. Lekin bir narsa ayon — Greta Tunbergning so'zlari tufayli dunyodagi minglab odamlar tabiatni asrash kerakligini anglab yetdilar.

84. To'g'ri javobni toping.

Greta Tunbergning nutqidan keltirilgan quyidagi qaysi gapda uning maqsadi to'la-to'kis aks etgan?

- A) O'qituvchimiz bizga ishlatilgan plastik idishlar sababli okeanlarda paydo bo'layotgan chiqindi uyumlari, dunyoning isishi oqibatida jabr ko'rayotgan qutb ayiqlari haqida film qo'yib berdi.
B) Filmidagi sahnalar miyamdan chiqmay qoldi
C) Men hozir maktabda bo'lish o'rni qilm o'zgarishining xavfidan kattalarni ogohlantirib yuribman
D) Men his qilayotgan tashvishni hamma his qilishini, odamlar birlashib tabiatga yordam berishlarini istayman

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinilar)

85. To'g'ri javobni toping.

- Greta Tunberg dastlab niman qattiq ta'sirlanadi?
 A) Odamlarning u haqida aytayotgan turli xil gaplaridan.
 B) BMT sammitiga taklif qilonganidan.
 C) Chiqindi uyumlari va qutb ayiqlari haqidagi filmd.
 D) Tomorqaga ekin ekib, o'zi yetishurgan mahsulotlar bilan oziqlanishdan.

86. To'g'ri javobni toping.

- Matnning 3-xatboshisi (abzas)da ta'kidlangan harakatlardan Gretaning maqsadi nima edi?
 A) Mashhur bo'lish va shu orqali o'z plakatlarin ommalashtirish.
 B) Isloh qilishni eng avval o'zidan boshlash.
 C) Ota-onasidan mustaqil yashashga o'rganish.
 D) Iqlim istishi muammasining oldini olishga ota-onasini ham jalb qilish.

87. To'g'ri javobni toping.

Berilgan gaplarni matn mazmuniga mos ravishda davom ettiring va ortiqcha izoh berilgan qatorni aniqlang.

1.	Greta Tunberg ota-onasidan iltimos qilib, uyiga tabiat uchun bezarar quyosh panellarni o'rnatdi.	A) ... chunki yoqilg'i tutuni tabiatga juda zararli. B) ... chunki elektr energiyasini ishlab chiqarishda iqlim o'zgarishi sabab bo'ladigan omillar mavjud. C) ... chunki shu orqali boshqalarning og'irini yengil qilish va ularga yordam berish mumkin edi. D) ... chunki sun'iy mahsulotlarni ishlab chiqarish ham zararli gazlarning ortishiga sabab bo'ladi.
2.	Tomorqaga ekin ekib, o'zi yetishtirgan mahsulotlar bilan oziqlana boshladi.	
3.	O'qishga ham avtomobilda emas, velosipedda qatnaydigan bo'ldi.	

88. Quyidagi jumla qurilishiga diqqat qiling va hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Greta Tunberg maktabga chiqishni istamagani sababli mashhur bo'lib ketdi.

- A) to'g'ri B) noto'g'ri

Matni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajar.

Tarixiy manbalarda Orol dengizi bundan 35 ming yil avval paydo bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Orol jahondagi eng katta suv havzalaridan biri bo'lgan. U Kaspiy dengizi, Shimoliy Amerikadagi Yuqori ko'l va Afrikadagi

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinilar)

Viktoriya ko'lidan keyingi to'rtinchi o'rinda turgan. Bugun esa ana shu ulkan suv havzasi deyarli ko'lmakka aylanib borayotir.

Orol fojiasi tufayli mintaqada yomg'ir deyarli yog'may qo'ydi. Yaylovlar yo'qoldi. Orolga yaqin chuchuk suvli kichik ko'llar esa quridi. To'qaylarda cho'pgan yovvoyi ohular qirilib ketishdi. Qurigan dengiz tubidan yil davomida 75 million tonnagacha chang ko'tarilishi kuzatilgan. Bu chang Tyarshan va Pomir tog'lari cho'qqilarigacha yetib borib, ulardagi muzliklarning erishini tezlashtirib yuborayotgani aytilmoqda. Suvlar va hatto havo ham sho'rlanishi natijasida aholi orasida turli kasalliklar tarqalib, ularni davolash qiyinlashmoqda.

Hozirgi kunda Orol tubida saksovluzorlar barpo etishga kiritishildi. Saksovullar tuproqdagi chang-tuzlarni shamol uchirishini to'xtatadi. Orolni saqlab qolish o'z qo'limizda!

89. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi gapni matn mazmuniga muvofiq davom ettiring.

Orol fojiasi tufayli...	a) ...mintaqada yomg'ir deyarli yog'may qo'ydi. b) ...hududda yaylovlar yo'qoldi. c) ...qushlar bu hududlarga uchib kelmay qo'yishdi. d) ...shu hududga yaqin chuchuk suvli kichik ko'llar qurildi. e) ...mintaqada yovvoyi ohular qirilib ketishdi. f) ...davlatlar orasida nizolar paydo bo'la boshladi. g) ...muzliklarning erishi tezlashgan. h) ...aholi orasida turli kasalliklar tarqalgan.
-------------------------	---

- A) a, b, c, d, e, g, h B) a, b, d, e, g, h C) a, b, d, e, f, g, h D) a, d, e, g, h

90. To'g'ri javobni toping.

Orol hududida saksovluzorlar barpo etishdan maqsad nima?

- A) Orol suvini qaytarish uchun.
 B) Insonlar sog'lig'i uchun shifobaxsh o'simlik bo'lgani sabab.
 C) Chang-tuzlarni shamol uchirib ketishdan saqlash uchun.
 D) Jonivorlar oziqlanishi uchun.

Matni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajar.

1. Musiqa - go'dakligimizdan qulog'imizga ona alhosi bilan kirgan yoqimil ohang. Xalqimizda: "Musiqa oshno bo'lgan odamdan yomonlik kutma", degan naql bor. Qo'shiqlar orqali onalarimiz bizga zavqlanish xususiyatini singdirganlar. Mohir pedagoglar bir hissiyatni yanada kuchliroq tarbiyalaganlar.

bir bo'g'imli ko'pchilik so'zlarga egallik qo'shimchasi qo'shilganda tovush o'zgarishi bo'lmaydi
D) hammasi to'g'ri

6. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zni toping.

- A) A.J. - Vallyev B) MDHning
C) TerDU ning D) BM -T

7. Mustaqil qo'llanmaydigan qismlardan tashkil topganligi sababli ajratib yozilmaydigan so'z qaysi qatorda berilmagan?

- A) ro'baro' B) dambadam
C) darbadar D) dardisar

8. Qaysi hukm xato berilgan?

- A) Juft so'zdan qo'shimcha yordamida yasalgan so'zlar chiziqcha bilan yoziladi.
B) Juft so'z qismlari orasida -u (-yu) bog'lovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qo'yiladi va juft so'z qismlari qo'shib yoziladi.
C) Yetakchi va ko'makchi fe'l bir xil shaklda juftlashib kelsa, chiziqcha bilan yoziladi.
D) Juft so'zlar -u(-yu) qo'shimchalarisiz juftlashib kelsa, orasiga chiziqcha qo'yiladi.

9. Qaysi holatda so'zlarning ikkinchi bo'g'imidagi i unlisi tushib qoladi?

- A) o'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egallik qo'shimchasi qo'shilganda
B) qayril, ayiril kabi fe'larga nisbat shaklini yasovchi -il qo'shimchasi qo'shilganda

C) ikki, olti, yetti so'zlariga -ov, -ala qo'shimchalari qo'shilganda
D) hammasi to'g'ri

10. Qaysi qatordagi so'zlar o'zbek tilining yangi imlo qoidalariga asosan to'g'ri yozilgan?

- A) nuqta nazar, yildan yilga, sotib olmoq
B) suvilon, Uchqo'rg'on, orzuyim
C) sig'uncha, bargga, otguncha
D) cho'l quvar, tarjimai hol, to'qqizil

11. Imlo qoidasiga oid xato berilmagan fikrni toping

- A) Oliy darajadagi unvon va mukofotlar nomi tarkibidagi so'zlar har biri bosh harf bilan yoziladi.
B) Muhim tarixiy sanalar va bayramlar

nomidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi.

- C) Ikkinchi qismi turdosh ot yoki obod so'zi bilan yasalgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar qo'shib yoziladi.
D) Qisqartma so'zlar har doim chiziqcha bilan qo'shib yoziladi.

12. ro'//baro', dar//hadar so'zlari haqida qaysi hukm noto'g'ri emas?

- a) izofa qismlari o'zbek tilida mustaqil ishlatilmaydi
b) bunday so'zlar qo'shib yoziladi
c) so'zning -ma, ba- yordamida birlashgan qismlari chiziqcha bilan yoziladi
d) A, B javoblar to'g'ri

13. O'rin, qorin, burun, o'g'il, bo'yin, ko'ngil kabi ba'zi so'zlarga egallik

qo'shimchasi qo'shilganda, qanday holda ro'y beradi?

A) ikkinchi bo'g'imdagi i unlisi tushib qoladi

B) ikkinchi bo'g'imdagi unli tushib qoladi

C) hech qanday o'zgarish bo'lmaydi

D) A va B javoblar to'g'ri

14. Belgining ortiqlik darajasini ko'rsatuvchi ko'pdan//ko'p, yangidan//yangi kabi so'zlar qanday yoziladi?

- A) qo'shib yoziladi
B) chiziqchasiz ajratib yoziladi
C) chiziqcha bilan ajratib yoziladi
D) ravish bo'lsa, ajratib, sifat bo'lsa, qo'shib yoziladi

15. Qaysi so'zlar chiziqcha bilan yoziladi?

- 1) kattadan katta; 2) dum dumaloq;
3) dam bodam; 4) ochiqdan ochiq
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 4 D) 2, 3

16. O'choqdagi o'tim o'chmasin desang,

qo'ri borida harakat qil. Ushbu o'zbek xalq maqoli bilan bir umumiy mazmuni ifodalayotgan maqolni aniqlang.

- A) Tog' qanchalik baland bo'lmasin, ortga qaytma: odimlasang, zabt etasan; ish qanchalik ulkan bo'lsa-da, chekinma: bajara boshladingmi - ado etasan. (Mo'g'ul xalq maqoli)
B) Yakshanba har kuni kelavermaydi. (Ingliz xalq maqoli)
C) Uxlayotgan qisqichbaqani oqim olib ketadi. (Meissika xalq maqoli)

D) Bir daqiqa kechdan ko'ra bir soat erta boshlangani ma'qul. (Nemis xalq maqoli)

17. Qaysi javobdagi barcha so'zlar qo'shib yoziladi?

- A) ko'z//oynak, qon//talash, bir//oz
B) tinchlik//sevar, sotib//olmoq, Yalqta//saroy
C) suv//ilon, shu//yerda, dardi//bedavo
D) millatlar//aro, ko'ra//qol, lang//ochiq

18. Qaysi qatorda berilgan so'z imloviy jihatdan to'g'ri emas?

- A) dunyo-qarash B) beshiktervatlar
C) mishmishchi D) hayit-ma'raka

19. Quyidagi so'zlarning qaysilarida birinchi bo'g'im ochiq bo'g'in hisoblanadi?

- 1) yangi, 2) bunga, 3) kongress, 4) singil, 5) tanga (pul), 6) tongi, 7) menga
A) 1, 4, 5, 6
B) 2, 3, 7
C) 1, 2, 4, 5, 6
D) hammasida ochiq bo'g'in

20. Qaysi hukm xato berilgan?

- A) ikkinchi qismi turdosh ot bilan ifodalangan joy nomlari ajratib yoziladi
B) ikkinchi qismi obod so'zi bilan ifodalangan joy nomlari qo'shib yoziladi
C) ikkinchi qismi atoqli ot bo'lgan joy nomlari ajratib yoziladi
D) hammasi to'g'ri

21. Qaysi qatorda imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan tarkibli nom berilgan?
 A) Sog'liqni Saqlash vazirligi
 B) Oliy majlis Senati Raisi
 C) "O'zbekistonda Xizmat ko'rsatgan fan arbobi"
 D) O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi

22. *parvo, obro', mavqe, avzo* so'zlariga I, II, III shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilganda qanday yoziladi?
 A) bir y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi
 B) I, II shaxsdagina bir y tovushi qo'shib aytiladi va yoziladi

C) hamma so'zlarga s tovushi qo'shib aytiladi va yoziladi
 D) hammasi to'g'ri

23. Qaysi qatorda egalik qo'shimchasi yordamida turlanish to'g'ri berilgan?
 A) parvom, parvong, parvosi;
 B) parvoyimiz, parvoyingiz, parvoyi;
 C) parvoyim, parvoyingiz, parvoyisi
 D) parvoyim, parvoyingiz, parvoyi;
 E) parvoyim, parvoyingiz, parvoyi;
 D) Mo'ysafid gullarni shiyponga qo'yib, mehmonlar bilan ko'risha ketdi.

36. Qaysi qatorda o'timli yasama fe'l mavjud?
 A) Dehqonchilik mashinalari yana-yana yaxshilanaverdi.
 B) Bola xuddi shuni kutib turganday, battar vig'lay boshladi.
 C) O'g'it solishni ham mashinaga yukladik.
 D) Dalada mashinalar ko'paymoqda.

37. Qaysi qatorda juft fe'l qo'llanmagan?

A) bordi-keldi
 B) ketdi-qoldi
 C) oldi-qo'ydi
 D) yayrab-quvnab

38. juft fe'l haqida to'g'ri hukmni aniqlang.
 A) bitta gap bo'lagi vazifasida keladi
 B) qo'shib yoki ajratib yoziladi
 C) qismlari alohida-alohida so'roqqa javob bo'ladi
 D) bir qismi fe'l, bir qismi boshqa so'z turkumi bo'lishi mumkin

39. Qaysi qatorda ikki mustaqil fe'l'dan tashkil topgan juft fe'l mavjud?
 A) Nabira ko'rgach, omonatini osongina topshirdi-ketdi.
 B) Ana, hech narsa bo'lmagandek yayrab-quvnab, ochilib-sochilib yurishibdi.
 C) Qayerga qadami tegsa, u yerni birpasda saranjom qiladi-qo'yadi.
 D) O'qituvchilarining oldiga shartta kiraman-da, konspekt daftarinib olib, o'sha yerda ko'chiraman-qo'yaman.

40. Qaysi qatorda fe'llarning tuzilishiga ko'ra uch turi qatnashgan?
 A) O'yim to'xonaga chiqdi-yu, yelib-yugurib xizmat qilib ketaverdi.
 B) Qayerga qadami tegsa, u yerni birpasda saranjom qiladi-qo'yadi.
 C) O'qituvchilarining oldiga shartta kiraman-da, konspekt daftarinib olib, o'sha yerda ko'chiraman-qo'yaman.
 D) Men shu Vatan qo'ynida undim-o'sdim, ulg'aydim.

Uy matni o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

I

Ona tili - yurak qatindan Mehr bo'lib sochilgan jarang. Qulog'imga go'dak paytimdan Alla bo'lib singilgan ohang.

II

Ona tili - necha asrlar. Kurashida yenggan polvonim. Necha ajdod, necha nasilar Suyib o'tgan turkiy zamonim.

III

Ona tili - do'ppi ikyigan So'z, Doim yangi yo'lcha-atlasi. Bir satriga tashlasangiz ko'z, Tovlanadi ming-ming qirrasini.

IV

Ona tili - asalchoy ta'mli, Bulbulatqin, muhabbatsheva, Lablarimga ko'chirgum doim Talaffuzin men seva-seva.

V

Ona tili - yurak qatindan Mehr bo'lib sochilgan jarang. Qulog'imga go'dak paytimdan Alla bo'lib singilgan ohang...

Iroda Umarova

41. To'g'ri javobni toping.

berilgan so'zlarni bog'in ko'chirish qoidasiga ko'ra ajratib yozing.
 yenggan, yangi, ta'mli, talaffuz, satri
 A) y-ngi-gan, yeng-gan, yan-gi, ta'm-li, ta-laf-fuz, sat-ri
 B) yng-i-gan, yeng-gan, ya-ngt, ta'm-li, talaf-fuz, sa-tri
 C) y-ngi-gan, yeng-gan, yo-ngi, ta'm-li, ta-laf-fuz, sat-ri
 D) yn-gf-gan, yeng-gan, yan-gi, ta'm-li, tal-af-fuz, sat-ri

42. To'g'ri javobni toping.

She'rning ikkinchi to'rtligida tilimiz haqida nimaga ishora bor?
 A) Tilimizning milliy sport turi - kurash singari bardoshli ekani uqtirilgan.
 B) Tilimizni yo'qotishga urinishlar bo'lgani, ammo xalqimiz o'z tilini saqlash uchun kurashgani uqtirilgan.
 C) Ona tilimizning asl turkiy tillarga borib taqalishiga ishora mavjud.
 D) Bizi xalqlar o'z tilidan uyalganida, bizning xalqimiz bu tildan faxrlanganiga ishora bor.

Matni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

O'ZBEKISTON: BOLALAR UCHUN ESSELAR TANLOVI
O'zbekiston Respublikasi ...dan

O'tkazish hududi: O'zbekiston.

Kim uchun: 8-10, 11-14 yoshdagi bolalar uchun.

Artiz topshirish muddati: 15-martdan 15-aprelgacha.

Asosiy ma'lumot:

Iqtidorli yoshlarning intellektual salohiyatini namoyon etish maqsadida tanlov e'lon qiladi.

Tanlov ikkita yosh tofasi (8-10, 11-14 yosh) bo'yicha o'tkaziladi, topshiriqlar yoshga qarab beriladi hamda har bir guruh bo'yicha 2 nafardan g'olib saralab olinadi.

Tanlovdagi ijodiy ishlarga qo'yiladigan talablar:

1. Barcha ijodiy ishlarga *mininovation.uz/esse* manziliida berilgan anketa to'ldirilgan holda ilova qilinishi kerak.
2. Tanlovga har bir ishtirokchi bittadan ijodiy ish taqdim etish huquqiga ega. Ijodiy ismi bir kishi bajargan bo'lishi zarur, hamkorlikda bajarilgan ishlar qabul qilinmaydi.
3. Tanlov uchun yuborilgan ijodiy ishlar o'zbek tilida bo'lishi shart.
4. Taqdim etilgan ijodiy ish tarkibida rangli suratlar, fotolavhalar bo'lishi mumkin, ammo qat'iy talab etilmaydi.

Tanlov shartlari:

8-10 yosh tofasi uchun

"Men novatorman" mavzusida 100-110 ta so'zdan iborat esse yozib, uni @innovator_esse "Telegram" guruhiga joylashtiring.

11-14 yosh tofasi uchun

"Mening innovatsion g'oyam" mavzusida 110-150 ta so'zdan iborat esse yozib, uni @innovator_esse "Telegram" guruhiga joylashtiring.

1. Ijodiy ishning mazmuni yuqorida ko'rsatilgan mavzuga mos kelishi lozim.
2. Ijodiy ishda muallifning shaxsiy qarashlari va ijodiy fikrlari aks etishi lozim.
3. Ijodiy ishlar hajm jihatidan berilgan talablarga mos bo'lishi kerak.
4. Yozma ijodiy ishlarda imloviy, ishloviy va uslubiy xatolarga imkon qadar yo'l qo'ymaslik lozim.

43. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi javob qo'yiladigan talablar qatorida nazarda tutilmagan?
A) *mininovation.uz/esse* manziliida berilgan anketa to'ldirilishi zarur.

B) Ijodiy ismi bir kishi bajargan bo'lishi zarur.

C) Tanlov uchun yuborilgan ijodiy ishlar rus tilida ham qabul qilinadi.

41. Taqdim etilgan ijodiy ish tarkibida rangli suratlar bo'lishi qat'iy talab etilmaydi.

44. Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

"Mening innovatsion g'oyam" mavzusida yoziladigan esselar 105 ta so'zdan iborat bo'lsa, talab bajarilmagan sanaladi va qabul qilinmaydi.

A) to'g'ri B) noto'g'ri

45. To'g'ri javobni toping.

Matn tarkibidagi ko'pincha o'runga qo'yilishi lozim bo'lgan atoqli ot - vazirlik nomi qaysi qatorida imlovijihatdan to'g'ri yozilgan?

- A) Innovatsion-rivojlanish Vazirligi
- B) Innovatsion Rivojlanish Vazirligi
- C) Innovatsion Rivojlanish vazirligi
- D) Innovatsion rivojlanish vazirligi

46. To'g'ri javobni toping.

Matn asosidagi qaysi fikrda g'alizlik mavjud?

- A) 8 yoshli ishtirokchi "Men novatorman" mavzusida esse yozishi kerak.
- B) Mazkur esselar tanlovi ikki yosh tifasida o'tkaziladi.
- C) Esselar tanlovi yakunda jami 2 nafar g'olib aniqlanadi.
- D) Ushbu esselar tanloviga artiz topshirish muddati 1 oy etib belgilangan.

47. To'g'ri javobni toping.

Tanlovga har bir ishtirokchi ... ijodiy ish taqdim etish huquqiga ega

- A) bittadan B) ikkita gacha
- C) uchta D) istagancha

48. To'g'ri javobni yozing.

10 yosh tofasiidagi ishtirokchi nechta so'zdan iborat esse yozishi kerak?

KO'MAKCHI FE'LLAR VA ULARNING MA'NOLARI

1. Ish-harakatning tez va kutilmaganda ro'y berishini ifodalagan fe'l qatnashgan gapni aniqlang.
 A) Xolasiyatida qandaydir bir mehmondorchilik o'tkaziladigan bo'ldi-yu, hammamiz o'sha yerga otlandik.
 B) Qayerga qadami tegsa, u yerni birpasda saranjom qiladi-qo'yadi.
 C) Haydar ota yo'lakda kampiriga yo'lqdi. Kampir imo bilan Astrorqulni so'radi.
 D) Boshqalar ham bosh tebratib, bu fikrga qo'shildilar.

2. Ikki o'rinda ko'makchi fe'l qatnashgan qatorni toping.
 A) Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibodlar to'lib-toshib yotibdi.
 B) U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yning boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi...
 C) Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.
 D) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rancha o'g'li Rasul kelib qoladi...

3. Yetakchi fe'l tarkibida ham, ko'makchi fe'l tarkibida ham kela oladigan qo'shimchani aniqlang.
 A) nisbat shakllari
 B) shaxs-son shakllari
 C) zamon shakllari
 D) barchasi to'g'ri

4. Ushbu qo'shimchalardan qay bir(lar)i yetakchi fe'l tarkibida qo'llana oladi?
 1) nisbat shakllari 2) shaxs-son shakllari 3) zamon shakllari 4) bo'lishsizlik shakli
 A) 1, 3, 5 B) 1, 4 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 4

5. Ko'makchi fe'l haqida xato hukmini aniqlang.
 A) ravishdoshning -a,-y,-(j) b shakllarini oladi
 B) mustaqil ma'nosini yo'qotgan bo'ladi
 C) harakat bosqichlari va tarzini bildiradi
 D) faqat yetakchi fe'l bilan birgalikda qo'llanadi

6. Harakatning to'la yakunlanganini bildiradi ko'makchi fe'lni aniqlang.
 A) olmoq B) yubormoq
 C) turmoq D) chiqmoq

7. Harakat tugallanganini bildirgan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qatnashgan?
 A) Ishni tugatdi. B) O'qib tugatdim.
 C) Vaqt tugadi. D) Kun nihoyaladi.

8. Ketmoq fe'li qaysi qatorda mustaqil fe'l sifatida qo'llangan?
 A) Sahnaga ko'zi tushdi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi.
 B) Bu nima degan gap o'zi, juda jim bo'lib ketdingiz!
 C) Chaqirayotganimga qaramay, jim keta boshladi.
 D) O'yin-kulgi, askiya yarim kechagacha cho'zilib ketdi.

- A) Qarshisiga yugurib-chiqqan Zumrad bilan quchoqlashib ko'risha ketishdi.
 B) Daragi bo'lmadi. Ishdan kelgach, nari-beri tamaddi qilib, uyiga o'tib bordim.
 C) Bu gaplarni boyga faqat Qoravoygina ayta olar edi.
 D) Umarali o'rindan turdi-da, tasbqariga chiqib ketdi.

13. Harakat bosqichini bildirmaydigan ko'makchi fe'lni aniqlang.
 A) olmoq B) boshlamoq
 C) turmoq D) yotmoq

14. Qaysi qatorda qo'llangan mustaqil fe'l boshqa o'rinda ko'makchi fe'l sifatida ham qo'llana oladi?
 A) Hech nimaga tushunolmay o'tirgan Mirsaid so'radi...
 B) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 C) Sho'rlik Oqto'sh qochaman deb umhалоq oshib tushadi.
 D) Mirsodiq eshikni sekin ochdi-yu, sevtinib ketdi.

15. Ketmoq fe'li qaysi qatorda yetakchi fe'l sifatida qo'llangan?
 A) Sahnaga ko'zi tushdi-yu, yuragi orqasiga tortib ketdi.
 B) Hozir ketsang, keyin boshqa qaytib kelma...
 C) Chaqirayotganimga qaramay, jim keta boshladi.
 D) Ketishga tayyorgarlik ko'rayotganimda, kelib qoldi.

- A) Harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydigan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Otamiz aravaga qo'shilgan otmi otaklab borardi, xullas, Zovboshiga boshimni taqitlab qo'yishgandini aytdilar.
 B) Tog'dan bizga qishning soqinlashganidan xabar beruvchi shamollari esa boshladi.
 C) Yo'l nishab edi. Tushib ketayapmiz. Gohi otning tuyog'i silliq toshda sirg'alib ketadi.
 D) Do'simboy ota uyga kirib bo'lganda hech nimaga tushunolmay o'tirgan Mirsaid o'zicha g'udrandi...

10. Ushbu qo'shimchalardan qay bir(lar)i ko'makchi fe'l tarkibida qo'llana oladi?
 1) nisbat shakllari 2) shaxs-son shakllari 3) zamon shakllari 4) fe'ling vazifa shakllari 5) bo'lishsizlik shakli
 A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 5 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 3, 4

11. Ushbu qo'shimchalardan qay bir(lar)i faqat ko'makchi fe'l tarkibida qo'llana oladi?
 1) nisbat shakllari 2) shaxs-son shakllari 3) zamon shakllari 4) bo'lishsizlik shakli
 A) 2, 3, 4 B) 1, 5 C) 2, 3 D) 1, 2, 3

12. Harakatni bajarishga imkoniyat mavjudligi ma'nosini ifodalaydigan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qo'llangan?

16. Harakatning davomligini bildiradigan ko'makchi fe'llarni aniqlang.
 A) boshlamoq, turmoq, tugatmoq
 B) yubormoq, tashlamoq, qo'yarmoq
 C) boshlamoq, olmoq, chiqarmoq
 D) yotmoq, yurmoq, turmoq

17. Harakatning tez va oson bajarilishini ifodalaydigan ko'makchi fe'llarni aniqlang.
 A) boshlamoq, turmoq, tugatmoq
 B) yubormoq, tashlamoq, qo'yarmoq
 C) boshlamoq, olmoq, chiqarmoq
 D) yotmoq, yurmoq, turmoq

18. Harakat bosqichini bildirgan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qo'llanmagan?
 A) Chor atrofi baland devor bilan o'ralgan tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi.
 B) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 C) Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.
 D) U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yning boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi...

19. Harakat bosqichini bildirgan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qatnashgan?
 A) Gapni shundan boshlamaysizmi?!
 B) Dovul boshlanayotgani xavotirli edi.
 C) Boshlanishidan hammasi yaxshiday ko'ringan edi.
 D) Chandilgan iplarini yechib, ayirib ota boshladik.

20. O'z mustaqil ma'nosini yo'qotgan, asosdan anglashilgan harakatning bosqichini bildirgan fe'l qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Hech nimaga tushunolmay o'tirgan Mirsaid so'radi...
 B) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 C) Sho'rlik Oqto'sh qochaman deb umibaloq oshib tushadi.
 D) Mirsodiq eshikni sekin ochdi-yu, sevinib ketdi.

21. Harakatning davomligini ifodalagan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Sovuq bo'shashgan hamon, ko'klam daragi kelmasdan, tag'in ayvonga ko'chib olar edi.
 B) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 C) Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.
 D) U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yning boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi...

22. *yoziq bormoq, aytib bormoq, kuchayib bormoq, ortib bormoq, o'tib bormoq*
 Mazkur shakllar tarkibida kelayotgan bormoq fe'lining ma'nosi qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?
 A) harakatning davomligi
 B) harakatning tez va oson bajarilishi
 C) harakatning to'la yakunlangani
 D) harakat tugallangani

23. Yetakchi fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi qo'llangan qatorni aniqlang.
 A) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 B) Hech nimaga tushunolmay o'tirgan Mirsaid so'radi...
 C) Sho'rlik Oqto'sh qochaman deb umibaloq oshib tushadi.
 D) O'yin-kulg'i, askiya yarim ko'chagacha cho'zilib ketdi.

24. Yetakchi fe'l o'timli fe'l bo'lgan ko'makchi fe'li so'z qo'shimchasini aniqlang.
 A) qarab qo'yarmoq
 B) qo'yib yubormoq
 C) to'ta boshlamoq
 D) bora olmoq

25. Harakat boshlanishini bildirgan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qatnashgan?
 A) Tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi.
 B) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 C) Indamay g'ishtlarni ustma-ust taxlay boshladi.
 D) U o'ziga hayratomuz tikilib turgan Oqbo'yning boshini u yon-bu yon burib qarab qo'yadi...

26. Harakat davoini etishini bildirgan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qatnashgan?
 A) Tor joyda uning aqli yetmaydigan ajoyibotlar to'lib-toshib yotibdi.

B) Gohida shu ish ustiga uy egasining o'rtancha o'g'li Rasul kelib qoladi...
 C) Rasul uni yerdan ko'tarib bag'riga bosadi, silab-siypaydi.
 D) Eng qizig'i devor boshida o'qtin-o'qtin ko'rinish beradigan babaq xo'roz.

27. Harakatning to'la yakunlanganini bildirgan ko'makchi fe'l qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Hozircha muvaqqat sim tortib turaylik, doimiy simni Farhoddan elektr o'lganimizda tortamiz.
 B) Hozir men Toshkentdaman.
 C) Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi.
 D) Dadasining qo'lidan ushlab dikir-dikir sakrab, o'ynoqlab keta berdi.
 E) Sudda shu masalalar ko'rib chiqildi.

28. Berilgan so'zlardan nechitasi ko'makchi fe'l sifatida qo'llana oladi?
boshlamoq, olmoq, chiqarmoq, urmoq, tugatmoq, turmoq, tashlamoq
 A) barchasi B) 7 tasi
 C) 6 tasi D) 5 tasi

29. Qaysi qatorda davomiylik ma'nosini ifodalagan ko'makchi fe'li so'z qo'shimchasi mavjud?
 A) hayday boshlamoq
 B) haydab bo'lmoq
 C) haydab turmoq
 D) haydab yubormoq

30. Ko'makchi fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi qo'llangan qatorni aniqlang.

- A) Hozircha muvaqqat sim tortib turaylik...
 B) Ba'zan Mehrixonlar oilasiga ham borib-kelib turadi.

- C) Dadasining qo'lidan ushlab o'ynoqlab keta berdi.
 D) Sudda shu masalalar ko'rib chiqildi.

Quyidagi matn parchalarini o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

a
 Bu g'oyamni eshitgan bobom juda xursand bo'ldilar. "Nima yordam kerak bo'lsa, aytaver, o'g'lim!" - dedilar. Men o'z g'oyamni qanday amalga oshirish ustida juda ko'p o'ylayapman va bu borada aniq rejalar ishlab chiqqanman.

b
 Bobomning ushbu ishlariga yordam berish maqsadida yaqinida men kichik bir uskuna ishlab chiqishni rejalashtiryapman. Bu uskunaning o'zi meva va sabzavotlarni kattaligi bo'yicha saralab beradi. Keyinchalik uskunani yanada takomillashtirib, biryo'la mahsulotlarni qoplarga solish yoki yashiklarga joylab chiqish vazifasini ham bajaradigan qiltmoqchiman.

d
 Bugun yurtimizda zamonaviy texnologiyalarni yaratishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Sababi ular insonlarning hayotini yengillashtirishga xizmat qiltmoqda.

e
 Men 10 yoshdaman. Mening bobom - fermer. Ular dehqonchilik bilan shug'ullanadilar va har yili yetishtirgan mahsulotlarini yig'ib olishda bir qancha qiyinchiliklarga duch keladilar. Ayniqsa, piyoz va kartoshkalarini kattasini kattaga, o'rtachasini o'rtachaga, kichigini kichikka ajratish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar.

31. To'g'ri javobni toping.

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida esse matni tartibini tiklang.
 A) d, b, e, a B) b, d, a, e C) e, a, d, b D) d, e, b, a

32. To'g'ri javobni toping.

Matnning qaysi bandida (abzasida) bobo nabirasining rejasidan quvonadi va unga dalda beradi?
 A) a bandida B) b bandida C) e bandida D) d bandida

Quyidagi matn parchalarini o'qing va berilgan topshiriqlarni bajaring.

...Men maktabga borgan yillarim qishloq bolalari chit, bo'z, tirinka bolalardan tikilgan kiyimlarni kiyishar, qishloqda o'ntadan bittasida kelajak, palto, magazinning jun shimi bo'lsa bo'lar, qo'lganlari to'n yoki tashkacha, po'pakli ishtonbog'l sonida sangillab turuvchi qo'lbola ishton, tirin etikcha va do'ppida yurardi. Qizlar esa kamzul ustidan xaltaga o'xshash do'ppi bilan bahonal chopon kiyishar, boshga qalin ro'mol o'rashar. Jaijigina kaitish-oyatib oyoqlariga juda yarashub turardi.

O'quvchilar sumkasi degan narsaning o'zi yo'q edi. Onalarimiz qalin pantolon xalta tikib berar, uning bo'yiga lib oladigan uzun bog'ichi, siyohli dovat solinadigan cho'ntakchasi bo'lardi. O'qituvchimiz qayta-qayta uqtirishiga qatnashmay, siyohga botirilgan ruchkaniing perosini dovat chetiga bir surtib o'zini esdan chiqarib qo'yaverardik, natijada, ortiqcha siyoh goh dafhtarimizga tashib tushardi, goh qo'lumiz rangga belamardi. Shu qo't bilan belxtiyor *burun / burin* artsak, ustid labimizda rangmo'ylov paydo bo'lib, *kalguga / kulguga* bolardik.

Tanafus / tanaffus / tanaffis bo'ldi deguncha birov mulla, aka to'qituvchimizga qo'shilib radio tinglar, birov kitob xaltasiga solib kelgan to'nini kavshay boshlar; ko'pchiligimiz qiy-chuv bilan quvlashib yurib, darsga qo'ng'iroq bo'lganidagina maktab yonidan oqib o'tuvchi artiq sari chopardlik, yerga yotganimizcha og'zimizda simirib suv icha boshlardik.

...**Boji boricha kunduzi dars tayyorlashga urinardim.** Qorong'iga qolsang, keratin isi anqib turadigan lampachiroq ko'zingni toltqirgandan toltqirib tashlaydi. Endigina paydo bo'lgan elektr chiroqlari oyiga uch-to'rt yillitilgan bo'ladi. Shundayam shamdan xira. Bu yetmagandek, umumiy qilib solingan ko'pda qatorlashib yotgan opa-ukalaring: "Chiroqni o'chiq! Uxla!" - deb tixirlik qila boshlaydi.

Anvar Obidjan.

33. To'g'ri javobni toping.

Quyida keltirilgan so'zlar va izohlarni moslashtiring.

- | | | |
|----------|------------|---------------|
| a) chit | b) tirinka | d) kirza etik |
| e) dovat | f) bo'z | g) fufayka |

1. Suv o'tkazmaydigan, pishiq sun'iy materialdan tayyorlangan oyoq kiyim.
2. Qadimgi Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda ko'pinchu jezdan quyilgan yoki loydan (Xitoyda chinidan ham) yasalgan siyohdon.
3. Xom pishirilgan paxta ipidan qo'l dastgohida to'qilgan mato.
4. Paxta tolasidan to'qilgan mato, gazlama.

5. Ust kiyim uchun ishlatiladigan ip yoki yarim jun gazlama.
 6. Paxta solib qovilgan, oldi tugmalab qo'yiladigan kalta kiyim, kurтка.
 A) 1 - d, 2 - b, 3 - f, 4 - a, 5 - e, 6 - g
 B) 1 - d, 2 - e, 3 - g, 4 - a, 5 - b, 6 - f
 C) 1 - d, 2 - e, 3 - f, 4 - a, 5 - g, 6 - b
 D) 1 - d, 2 - e, 3 - f, 4 - a, 5 - b, 6 - g

34. To'g'ri javobni toping.

- Quyidagi gapni adib qanday asoslaydi?
Illoji boricha kunduzi dars tayyorlashiga urinarдим.
 A) Endigina paydo bo'lgan elektr chiroqlarining ko'zga salbiy ta'siri kechikib dars tayyorlashiga imkon bermagan.
 B) Kerosin ishi anqib turadigan lampachuroq xira nur sochishi oqibatida ko'zini toliqtirgan.
 C) Siyohga botirilgan ruchkadan tunda foydalanib bo'lmagan.
 D) O'qituvchi darsni maktabning o'zida bajarishni talab qilgan.

35. To'g'ri javobni toping.

- Matndan olingan qaysi gap tarkibida ko'makchi ibora shaklidagi yetakchi fe'llar ergashib kelgan?
 A) Qizlar esa kamzul ustidan xaltaga o'sxshash paxtali baxmal chopon kiyishni boshga qalin ro'mol o'rashar, jajjigina kallish-maxsi oyoqlariga juda yarasli turardi.
 B) O'qituvchimiz qayta-qayta uqtirishiga qaramay, siyohga botirilgan ruchkaning perosini dovot chetiga bir surtib olishni esdan chiqarib qo'yaverardik.
 C) Qorong'iga qolsang, kerosin ishi anqib turadigan lampachiroq ko'zingni toliqtirgandan toliqtirib tashlaydi.
 D) Darsga qo'ng'iruv bo'lganidagina maktab yonidan oqib o'tuvchi artiq soq chopardik, yerga yotganimizcha og'zimizda simirib suv icha boshlardik.

36. Huksunning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

- O'sha paytlarda sumkalar mavjud bo'lmagan, shu sababli onalar farzandlariga kitob xalta tikib berishgan.*
 A) to'g'ri B) noto'g'ri

37. To'g'ri javobni toping.

- Ajratib ko'rsatilgan gaplar boshida nima sababdan ko'pinuqta qo'llangan?
 A) Gap mazmunan tugallanmay qolgan.
 B) So'zlovchining cheksiz his-hayajoni ifodalangan.
 C) Matnda ayrim qismlar olib tashlangan.
 D) Dialogda subbatdoshning gapi javobsiz qolgan.

38. To'g'ri javobni toping.
 Ushbu matn qaysi turdagi matnga mansub?
 A) boshqa matn B) tasviriy matn
 C) hikoyat matni D) aralash matn

39. To'g'ri javobni toping.

- Ushbu variantda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning imloviy jihatdan to'g'ri variantini aniqlang.
 A) burun, kulguga, tanaffus B) burun, kulguga, tanaffus
 C) burun, kulgiga, tanaffus D) burin, kulguga, tanaffus

40. O'ling va quyidagi test topshiriqlarini bajarib.

Bu test yoshlaringizdan boshlab bu dunyoning voqea va hodisalari xotirasida bo'lgan Urushdan qaytmaganlarning azalari-yu, qaytgan mayib-majruh qo'shinchilarining qo'ltiqayoqlari to'qillatib yurganlari esimda. Ocharchilik, urushning kunlari yeganlari ko'p ko'rganman. Biz otlada to'rt o'g'il, to'rt qo'shimchi Akalarim Buxoro, Toshkent olib o'quv yurtlarida, ti-achiyot shaharlarida o'qishardi. Tabiiyki, ular ko'tarib yurgan kitoblarning aksariyati shu adabiyot namunalari edi. Mening allaqachon savolim chiqqan, kitoblarni to'qillatib o'qiy olardim. Men bugungi kunda g'oyatda ajablanib shularni ko'rganman. Negadir bolaligimda xotiram nihoyatda kuchli edi. Bir o'qiganim esimda qolaverardi. Radio, televideniye yoxud boshqa tomoshalar ko'rganimdan keyin, ermajim kitob edi-da. Duch kelgan narsani o'qib, eubchi narsani yodlab olardim. Bu kitoblar orasida xalq dostonlari ham, Navoiy shonli Puschindan tarjimalar ham, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon she'riyati va yana boshqa ko'p roman-u qissalar bo'lard. Endi she'rlar yoza bo'lganimda bunga nima turki bo'lganini aniq bilmayman. Har holda, kitoblarni qo'qiyalashga ishqiiboz bo'lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, shu zavqim toshib, nimanidir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo'q. Komandlikning ham iloji yo'q. Shuning uchun ona, maktab, brigadlar, Nodir kabi so'zlarni o'zimga she'rga solib, aylantirib yurardim.

Abdulla Oripov

40. To'g'ri javobni toping.

- Quyidagi sarlavha ushbu matnga mos tushadi?
 A) Yo'qotganlarim va topganlarim. B) Urush oqibatlarini.
 C) Ko'rgan-bilganlarim. D) Qo'fiya san'ati

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

41. To'g'ri javobni yozing.

Matndagi qaysi jumalalarda urush fojiasining oqibatlari aks etgan?

42. Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Bolaning yetuk shoir bo'lib yetishishida akalari ko'tarib yurgan kitoblarning o'rni juda muhim.

A) to'g'ri B) noto'g'ri

43. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi gapda ajratib ko'rsatilgan so'z matnda qanday ma'noda qo'llangan? Endi shu so'zlar yozga boshlaganida bunga nima **turki** bo'lganini aniqlay bilmayman.

- A) Uncha qattiq kuchli bo'lmagan qisqa, keskin zarb.
B) Biror ish, harakatning boshlanishi, amalga oshishi, yuzaga chiqishi uchun qo'zg'atuvchi, undovchi sabab
C) Kishini xo'rlovchi, tahqirlovchi harakat.
D) Qo'zg'atuvchi, undovchi gap-so'z.

FE'LARNING IJG'AVIY SHAKLLARI. FE'L NISBATLARI

1. Bajaruvchisi aniq bo'lgan harakat yoki holatni bildirgan fe'l shakli qaysi qatorda qo'llangan?

- A) o'qidi B) o'qitdi
C) o'qildi D) o'qishdi

2. Qaysi so'z o'zlik nisbatida qo'llana olmaydi?

- A) yuv B) ko'r
C) tara D) bor

3. Quyida berilgan so'zlardan nechta ham o'zlik, ham majhul nisbatda qo'llana oladi?

- A) berildi, to'plandi, o'qildi, bostildi, surildi, ochildi, borildi
B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta

Barcha kitoblar →

-152-

@ABTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

7. Qaysi qatorda bajaruvchining o'zi ustida amalga oshadigan harakat yoki holatni ifodalaydigan fe'l shakli aniqlanib etgan?

A) Ammo kampingning dodiga odam bor to'plandi.

B) Uning og'liga kirib qilgan taftishi jahl boboga bir umid bog'ishlagan edi.

C) Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

D) Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda.

8. Birgalik nisbatdagi fe'l ishtirok etgan gapni toping.

A) Boshida tashvishi bo'lishiga (aramay, bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi).

B) Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar.

C) Kim bilandir allamahajga baxslashdi.

D) Alisher uyga kirishi bilan qolganlar jim bo'lishdi.

9. Quyidagi fe'lardan nechtasini barcha nisbatda qo'llash mumkin?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

10. Qaysi qatorda majhul nisbat shakli mavjud emas?

A) Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi.

B) Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda.

C) Majlis ahli bu safar kutilganidan ancha barvaqt yig'ildi.

D) Bir bor ekan, bir yo'q ekan, dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo xushnavo bulbul yaratilmagan ekan.

11. Shaxs yoki narsalarning harakat, holatini atab kelgan so'z turkumi qanday ataladi?

A) ravish B) faoliyat C) fe'l D) sifat

12. Qaysi gapda orttirma nisbat shakli ishtirok etgan?

A) Uning rangi qo'ruvdan oqargan, qo'llari qaltirab turardi.
B) Oqar suvning oqimi biroz pasaygan edi.
C) U yig'ilganlarni xonaga chaqirdi.
D) U Akramni yo'ldan qaytardi.

13. Qaysi qatorda qaytarmoq fe'li qatnashgan gap berilgan? (bilts) A) Robiya uyiga yolg'iz qaytardi.
B) Sabina, ehtimol, yana qaytar.
C) Buni qaytar dunyo deydi.
D) Farida uni yo'ldan qaytardi.

14. Quyida berilgan fe'llardan qaysilari aniq nisbat shaklida? 1) o'rgildi; 2) tirmashdi; 3) tortdi; 4) bo'lindi; 5) havaslandi; 6) talaytirdi; 7) chizildi; 8) tinglashdi; 9) iksilandi
A) 3, 4, 7, 9, 10 B) 1, 2, 3, 5, 9
C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 3, 4, 5, 6, 7

15. O'timil fe'l ishtirok etgan qatorni aniqlang.
A) Vodil qishlog'ining choyxonasi yo'l boshidagi ikkita katta kekxa chinorning soyasida joylashgan.
B) Bir burchakda katta stol atrofida yoshlar o'tiri
b, gazeta, jurnal va kitob o'qishadi.

Barcha kitoblar →

-153-

@ABTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

C) Past-baland chorpoyalarda qip-qizil, ozoda g'lamlar ustida odamlar guruh-guruh bo'lib chaqchaqlashadi.
D) O'ng tomondagi chorpoyada to'rt-besh kishi o'tirib, qah-qah urib kulishadi.

16. Gul bog' rini nasim tildi — to'kildi. Saboga hikoyat qildi — to'kildi. Falak ishiga boq: bir haftada gul Chiqdi, g'unchaladi, kuldi — to'kildi...
Ushbu gapda nechta fe'l qatnashgan?
A) 9 ta B) 6 ta C) 7 ta D) 8 ta

17. Qaysi qatorda o'timli fe'l qatnashgan?
A) o'qitdi B) bordi
C) keldi D) kelishildi

18. O'zlik nisbatdagi fe'l ishtirok etmagan gapni toping.
A) Hozirgi kunda milliy xalq hunarmandchiligiga katta e'tibor berilmoqda.
B) Sobir masalani yechishga qiyinaldi.
C) Halima juda ozoda kiyinadi.
D) U belbog'ini yuziga tashlab, ko'rpachaga cho'zildi.

19. Quyida berilgan gapdagi tagiga chizilgan so'z qanday nisbatda?
Yaldiraydi, doim tavlanar, Oy nurida cho'miluvchi tosh.
A) o'zlik B) majhul
C) aniq D) ortirma

20. Qaysi qatordagi fe'l o'zlik nisbatda?
A) uyg'otmoq B) o'rganmoq
C) o'ylanmoq D) ikkilanmoq

21. Bandadan qaytmasa, Xudodan qaytar.
Ushbu gapda ostiga chizilgan so'z nisbatini aniqlang.

A) aniq B) birgalik
C) ortirma D) majhul

22. Qaysi qatorda ham o'timli, ham o'timsiz fe'l qatnashgan?
A) Maktabimiz muzeyi yangi eksponatlar bilan boyitildi.
B) Yuragim hayajondan gupullab uradi.
C) Shundan so'ng To'maris qo'shin to'plab, jangga o'tlandi.
D) Qizlar o'zaro sekin suhbatlashib turishardi.

23. Qaysi qatorda gapdagi ma'nosi qarab ham o'zlik, ham majhul nisbatda qo'llana oladigan so'zlar berilgan?
A) ochilmoq, berilmoq, to'planmoq
B) tashlanmoq, ochilmoq, sevinmoq
C) bosilmoq, cho'zilmog, tarannmog
D) surilmoq, osilmoq, jonlanmoq

24. Birgalik nisbatdagi fe'l ishtirok etmagan gapni toping.

A) Vodil qishlog'ining choyxonasi yo'l boshidagi ikkita katta kelka chinorning soyasida joylashgan.
B) O'tgan yili qishloq jamoasi choyxonani ta'mirlashdi.
C) Bir burchakda katta stol atrofida yoshlar o'tirib gazeta, jurnal va kitob o'qishadi, bir burchakda radiodan so'nggi xabar eshittishadi.
D) Talabalarni yotoqxonalariga joylashtirishdi.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

25. Berilgan so'zlardan nechtasini tanib?

Yulduz, qaytarmoq, kiyimoq, so'ramoq, yotqatmoq, quvonmoq, o'shamoq
A) 1 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 2 ta

26. Bir burchakda katta stol atrofida yoshlar o'tirib gazeta, jurnal va kitob o'qishadi, bir burchakda radiodan so'nggi xabar eshittishadi.
Ushbu gapdagi fe'llar haqida to'g'ri berilmagan hukmini aniqlang.
A) o'timsiz fe'l mavjud B) majhul nisbatdagi fe'l mavjud
C) o'timli fe'l mavjud D) birgalik nisbatdagi fe'l mavjud

27. O'tgan yili qishloq jamoasi choyxonani ta'mirlashdi, obod qilishdi.

Ushbu gapda qo'llangan fe'llarning nisbatini aniqlang.
A) nisbat shakli mavjud emas
B) aniq nisbatda
C) aniq va birgalik nisbatda
D) birgalik nisbatda

28. Omonlik tilasang agar sen o'zing, tilingdan chiqarma yarqisiz so'zing.
Ushbu misralarda qo'llangan fe'llar nisbatini aniqlang.

A) ikkisi ham aniq nisbatda
B) ikkisi ham ortirma nisbatda
C) aniq va ortirma nisbatda
D) nisbat shakli mavjud emas

29. Ular ajratib qo'yilsa, ikkisi ham o'zligini yo'qatadi.

Ustiga chizilgan so'zning qaysi nisbatda ekanini aniqlang.
A) aniq nisbat B) o'zlik nisbat
C) ortirma nisbat D) majhul nisbat

30. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari vazifasiga ko'ra qanday qo'shimchalar sirasiga kiradi?

A) so'z yasovchi
B) sintaktik shakl yasovchi
C) lug'aviy shakl yasovchi
D) muraktab qo'shimcha

31. Qaysi nisbatda harakatni bajaruvchi shaxs noaniq bo'ladi?
A) aniq nisbat B) o'zlik nisbat
C) ortirma nisbat D) majhul nisbat

32. Paxta va zig'ir talasidan tayyorlangan matolar namlab yoki suv purkab, yaxshi quritmay dozmollanadi.

Ushbu gapda qaysi nisbat fe'llari ishtirok etgan?
1) aniq nisbat; 2) o'zlik nisbat; 3) majhul nisbat; 4) ortirma nisbat; 5) birgalik nisbat
A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 2, 4
C) 1, 3, 5 D) 1, 3, 4

33. Gul bog' rini nasim tildi — to'kildi. Saboga hikoyat qildi — to'kildi. Falak ishiga boq: bir haftada gul Chiqdi, g'unchaladi, kuldi — to'kildi...
Mazkur gapda qatnashgan fe'llar qaysi nisbatda?

A) aniq, o'zlik B) aniq, o'zlik, majhul
C) o'zlik, majhul D) faqat aniq

34. Ortirma nisbatdagi fe'l(lar)ni toping.

1) yugurmoq; 2) surishtirmoq; 3) yasatmoq; 4) chaqirmoq; 5) qaytarmoq; 6) qotirmoq
A) 3, 5, 6 B) 3, 4, 6


Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- B) Dunyoda hamma narsa yaratilgan ekan-u, ammo bulbul yaratilmagan ekan.
 C) Qo'limda bir metr keladigan irg'ay tayoq. Belbog'imga bitta kulcha tugilgan.

D) U yuziga belbog'ini tashlab, ko'rpachaga cho'zildi.

Ushbu diagrammada aks etgan ma'lumotlar bo'yicha topshiriqlarni bajarib.

Hududlar bo'yicha kasalliklar statistikasi
(kasallik miqdori % da aks etgan)



54. To'g'ri javobni toping.

Qaysi qatorida diagrammada aks etgan ko'rsatkichlar haqida to'g'ri ma'lumot berilmagan?

- A) Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Navoiy viloyatlarida nafas olish a'zolari kasalliklari boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori darajada.
 B) Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qon aylantirish tizimi kasalliklari boshqa hududlarga nisbatan birmuncha quyi darajada.
 C) Toshkent, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida ovqat hazm qilish a'zolari bilan bog'liq kasalliklar nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega.
 D) Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida nafas olish a'zolari bilan bog'liq kasalliklar Toshkent, Jizzax, Sirdaryo viloyatlariga qaraganda yuqori darajada.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

55. To'g'ri javobni toping.
 Ovqat hazm qilish a'zolari bilan bog'liq kasalliklar qaysi hududlarda nisbatan yuqori ko'rsatkichga ega?
 A) Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Navoiy viloyatlarida
 B) Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida
 C) Toshkent, Jizzax, Sirdaryo viloyatlarida
 D) Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarida

Matnli o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajarib.

AMIR

Abu Ali ibn Sino kasal bo'lib yotgan Buxoro amirini ko'rgach unga dori-darmon berib, uch kun o'rnidan qimirlamasdan yotishni buyuribdi. Ertasiga amirning sog'lig'idan xabar olgani kelsa, o'rnida yo'q, bog'da aylanib yurgan ekan.

Amirning bog' kezib yurganini ko'rgan Ibn Sino undan ranjibdi, amirga hech narsa demabdi-yu, u bilan birga kezib, yo'lni ataylab amir yotog'iga huribdi.

Amir o'rniga kirib yotgach, uning tomirini ushlab ko'ribdi, ko'ziga diqqat qilibdi, yana dori-darmon berib, uch kun yotib dam olishni tayinlabdi. Lekin bu gal u ilgari aytmagan qattiqroq ta'kidlaganini payqagan amir yosh tabibga qarab:

– O'zing yoshsan-u, tiling hurro-ya, amirlar bilan gaplashishni ham bilmasan, – debdi kulib.

– Siz xalqqa amir bo'lsangiz, tabib tan amiridir. Odatda kim buyruqni bajaransa, amir unga jazo beradi. Rost, siz mamlakat, el-yurt amirisiz, lekin betobligingizda tabibga itoatkorsiz. Buyruqqa bo'ysunmagan amaldorlar bilan yurtni idora qilib bo'lmaganidek, tabib ham buyruqqa bo'ysunmagan betoblar ustidan hukm yuritilmaydi, – debdi Ibn Sino.

– Tiling o'tkir-u, lekin gaplaringda mantiq bor, juda dadil yigit ekansan. Ilo'ldi, amirni yengding, endi amir amirga itoat qiladi, – debdi kulib hukmdor.

U shunday debdi-yu Ibn Sining aytilganlarini bajo keltirishga jazo qilibdi va bir necha kundan so'ng sog'ayib ketibdi.

Har bir yurtida bo'lgan kabi ma'lik-u shoh,

Tabib erur tan amiri – dardidan ogoh.

Abu Ali ibn Sino haqida afsona va rivoyatlardan

56. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan ma'lumotlarni moslashtiring.

1	kasal	a	hukm yuritmoq
2	mamlakat	b	betob
3	itokat qilmoq	c	yurt
4	hukmdor	d	bo'ysunmoq
5	idora qilmoq	e	amir
6	tili otkir	f	tili burro

- A) 1 - b, 2 - c, 3 - d, 4 - e, 5 - a, 6 - f
 B) 1 - b, 2 - c, 3 - d, 4 - a, 5 - e, 6 - f
 C) 1 - f, 2 - c, 3 - d, 4 - e, 5 - a, 6 - b
 D) 1 - c, 2 - b, 3 - d, 4 - a, 5 - f, 6 - e

57. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi gapdagi ostiga chizilgan birliklar ma'nosi to'g'ri izohlangan qatorni aniqlang.

U shunday debdi-yu Ibn Sinoning aytganlarini baho keltirishga jazm qilibdi, va bir necha kundan so'ng ayib ketibdi.

- A) baho keltirmoq - rozi bo'lmoq; jazm qilmoq - kelishmoq
 B) baho keltirmoq - yashirmoq; jazm qilmoq - aytmoq
 C) baho keltirmoq - bajarmoq; jazm qilmoq - qaror qilmoq
 D) baho keltirmoq - bajarmoq; jazm qilmoq - majbur bo'lmoq

58. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan *qattiqroq ta'kidlamoq* birlikmasida ma'no ko'chirishning qaysi turi qo'llangan?

- A) metanimita B) sinekdoxa C) vazifadoshlik D) metafora

59. Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Buxoro amiri o'ziga qattiq gapirgan yosh tabibni jazolashni ko'ngliga tugibdi.
 A) to'g'ri B) noto'g'ri

60. To'g'ri javobni toping.

Amirning bog' kezib yurganini ko'rgan Ibn Sino undan ranjibdi...

Ostiga chizilgan so'zning morfematik tarkibi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
 A) ranji/b/di B) ranj/1/b/di C) ranj/1b/di D) ranji/bdi

61. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi fikr matn xulosasi sifatida olinishi mumkin?

A) Tabiblar yoshlikdanoq muomala madaniyatini, muloqot odobini o'rganmog'i dukar.

B) Amirlar ham oddiy inson, ammo tabiblar amirlarga juda ham e'tiborli birlashlari lozim.

C) Baho topishni istasa, amirlar ham tabibga bo'ysunishga majbur bo'ladi.

D) Ibn Sino amirni bo'sundirish yo'lini o'ylab topgan tabibdir.

62. To'g'ri javobni yozing.

Ibn Sinoning so'zamolligi nimada namoyon bo'lgan?

63. Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Ibn Sinoning aytganlarini baho keltirgan Buxoro amiri to'qqiz kundayoq sog'ayib ketibdi.
 A) to'g'ri B) noto'g'ri

64. To'g'ri javobni yozing.

Matn mazmuniga yaqin quyidagi maqollarni diqqat bilan o'qing va nuqtalar ostiga qavs ichidagi mos so'zni qo'ying.

1 ... (ganj, boylik, xazina) ning boshi - sog'lik.

2 Kasal - bitta, ... (shifa, davo, dori)si - mingta.

3 Kasalga ... (bol, asal) ham bema'za tuyular.

4 Chiniqqanga gard yuqmas, Tiniqqanga - ... (balo, ofat, dard).

5 Qorning ochmasdan ovqat ... (iste'mol qil, ye, tanovul qil), qorning ta'ymasdan qo' artgln.

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

ZAXIRA QO'SHINING UYI

"Boshi berk ko'cha" degan iborani ko'p eshitgansiz. Bu karish joyi bo'lib, shu joyi yopiq ko'chaga aytiladi. Bilasizmi, inson organizmida ham shunday a'zo bor. U appendiks deb ataladi.

Qorinimizning ichida yo'g'on ichak degan, qazi yoki kolbasaga o'xshab bo'ladigan a'zo bo'lib, uning (1) boshlanish qismi ko'rikchak deb ataladi. Appendiks esa ko'rikchakka ulangan, uzunligi 5-10 cm keladigan chuvalchangsimon a'zo. Appendiksning og'rib qolishi esa "appenditsit kasalligi" deyiladi. Demak, "ko'rikchagini oldirib tashladim" degan gap noto'g'ri. Odam

ko'richaksiz yashay olmaydi. Shifokorlar faqat ko'richakka ulangan jajji appendiksni olib tashlaydilar, xolos.

Appendiksni kichkina xaltachaga (2) o'xshatish mumkin. Uning ichida turli bakteriyalar yig'iladi. Olimlar uzoq yillar davomida appendiksni odam uchun keraksiz a'zo deb hisoblashgan. Hatto Germaniyada yangi tug'ilgan bolaning appendiksi jarrohlik yo'li bilan (3) olib tashlangan. Ammo 2007-yilda amerikalik olimlar appendiks juda muhim, kerakli a'zo ekanini (4) isbotlashdi. Bu jajji xaltachaning ichida immun tizimining foydali bakteriyalardan iborat katta qo'shimi "uxlab" yotadi. Agar yo'g'on ichakda zararli bakteriyalar ko'payib, qorningiz og'rib qolsa va immun "qo'shimi" ularni yenga olmasa, appendiks ichidagi zaxira "qo'shimi" yordamga keladi!

Ammo aytim bolalarning ko'p miqdorda yog'li ovqat, pista va yong'och iste'mol qilishi oqibatida appendiks ichi zararli bakteriyalar bilan to'lib, kasallanib qolishi mumkin. Bunda oldiniga kindikyuqortisi, so'ng qorning o'ng tomoni qattiq og'riydi. Ko'ngil aynib, tana harorati ko'tariladi. Bu vaqtda tez shifoxonaga borish shart. Appendiks jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi.

Sa'dullo Qur'onov

65. To'g'ri javobni yozing.

Matnda "boshi berk ko'cha" va kichkina xaltachaga o'xshatilgan inson a'zosi qaysi ekan?

- A) ko'richak B) yo'g'on ichak C) appendiks D) oshqozon

66. To'g'ri javobni yozing.

Nimadir Nimadir Nimadir Nimadir

A) Olimlar uzoq yillar davomida appendiksni odam uchun keraksiz a'zo deb hisoblashgan.

B) Hatto Germaniyada yangi tug'ilgan bolaning appendiksi jarrohlik yo'li bilan olib tashlangan.

C) Ammo 2007-yilda amerikalik olimlar appendiks juda muhim, kerakli a'zo ekanini isbotlashdi.

D) Bu jajji xaltachaning ichida immun tizimining foydali bakteriyalardan iborat katta qo'shimi "uxlab" yotadi.

67. To'g'ri javobni yozing.

Matnda qo'llangan quyidagi jumlada so'zlar nima uchun qo'shtirnoqqa olinganini aniqlang.

Agar yo'g'on ichakda zararli bakteriyalar ko'payib, qorningiz og'rib qolsa va immun "qo'shimi" ularni yenga olmasa, appendiks ichidagi zaxira "qo'shimi" yordamga keladi!

A) Ko'chirma gap tarkibida qo'llangani sababli qo'shtirnoqqa olingan.

B) Ko'chma (kinoyaviy) ma'noda qo'llangani sababli qo'shtirnoqqa olingan.

Barcha kitoblar →

C) Ushbu so'zlar noo'rin qo'llangani sababli qo'shtirnoqqa olingan.

D) Ma'nosi o'quvchi uchun noaniq bo'lgani sababli qo'shtirnoqqa olingan.

68. To'g'ri javobni yozing.

Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini toping.

Ko'p miqdorda yog'li ovqat, pista va yong'och iste'mol qilishi oqibatida ko'richak ichi zararli bakteriyalar bilan to'lib, kasallanib qolsa, u jarrohlik yo'li bilan olib tashlanadi.

- A) to'g'ri B) noto'g'ri

69. To'g'ri javobni yozing.

Matn sarlavhasi qaysi jumlada o'z izohini topgan?

A) "Boshi berk ko'cha" degan iborani ko'p eshitgansiz. Bilasizmi, inson organizmida ham shunday a'zo bor. U appendiks deb ataladi.

B) Bu jajji xaltachaning ichida immun tizimining foydali bakteriyalardan iborat katta qo'shimi "uxlab" yotadi.

C) Olimlar uzoq yillar davomida appendiksni odam uchun keraksiz a'zo deb hisoblashgan.

D) Appendiks esa ko'richakka ulangan, uzunligi 5-10 cm keladigan chuvalchangsimon a'zo.

70. To'g'ri javobni yozing.

Ostiga chizilgan fe'llarning qaysi biri birligallik nisbatda?

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

FEL'LARNING LUG'AVIY SHAKLLARI, FE'LLARNING VAZIFADOSH SHAKLLARI

1. Fe'llar gapda qanday gap bo'lagi vazifasida qo'llana oladi?

- A) barcha vazifada kela oladi
- B) ega va kesim
- C) hol, to'ldiruvchi, kesim
- D) faqat kesim

2. Qaysi qatorda fe'ling faqat kesim vazifasida qo'llanadigan shakliga misol berilgan?

- A) o'qidi B) o'qib
- C) o'qimoq D) o'qigan

3. Fe'ning vazifa shakllari vazifasiga ko'ra qo'shimchalarning qaysi turiga mansub bo'ladi?

- A) sintaktik shakl yasovchi
- B) lug'aviy shakl yasovchi
- C) so'z yasovchi qo'shimcha
- D) old qo'shimcha

4. Fe'l so'z turkumi qaysi so'z turkumlariga xoslanadi?

- A) ot, sifat, son
- B) ot, sifat, ravish
- C) sifat va ravish
- D) olmosh, sifat, ot

Barcha kitoblar →

5. Fe'ning otga xoslangan shakli qatnashmagan qatorni aniqlang.
 A) Boshida tashvishi bo'lishiga qaramay, bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi.
 B) Xalqni o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l.
 C) Biror xalqning axloqini bilmoq uchun uning adabiyoti bilan tanish.
 D) Shohjahon hazin kayfiyatga berilgach, ko'ngli qorong'uligini na o'yin-kulgu, na sayr-sayohat yoritib olardi

6. Boshida tashvishi bo'lishiga qaramay, bolani erkalashga, tarbiyalashga vaqt topdi.
 Ushbu gapda fe'ning qaysi so'z turkumiga xoslangan shakli qatnashgan?
 A) faqat ot B) ot, sifat, ravish C) ot va sifat D) ravish va ot

7. Xalqning sha'niga, ming yillar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga dog' tushirishga hech kimning haqi yo'q.
 Ushbu gapda qo'llangan fe'ning vazifa shakli haqida noto'g'ri hukmni aniqlang.
 A) nisbat qo'shimchasidan keyin qo'llangan vazifa shakli mavjud
 B) so'z yasovchi qo'shimchadan so'ng qo'llangan vazifa shakli mavjud
 C) hol vazifasida qo'llangan vazifa shakli mavjud
 D) aniqlovchi vazifasida qo'llangan vazifa shakli mavjud

8. Sodda yasama fe'l tarkibida qo'llangan vazifa shakli qaysi qatorda berilgan?
 A) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.
 B) Xalqni o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l.
 C) Erta bahorda daraxt ekish, yerlarni yumshatish bizning eng yaxshi odatimizdir.
 D) Biror xalqning axloqini bilmoq uchun uning adabiyoti bilan tanish.

9. Harakat nomi qo'shimchasi nisbat qo'shimchasidan so'ng qo'llangan so'z qaysi qatorda berilgan?
 A) Xalqning sha'niga, ming yillar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga dog' tushirishga hech kimning haqi yo'q.
 B) Xalqni o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l.
 C) Qo'ziboy ishga aralashuvini hain, chiqib ketishini ham bilmay qoldi.
 D) Yozuvchi turmushni har tarafлама o'rganishi, buning uchun uning hamma sohalaridan xabardor bo'lishi kerak.

10. Qaysi qatorda to'ldiruvchi vazifasida qo'llangan harakat nomi mavjud?
 A) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.
 B) Xalqni o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l.

- C) Har bir voqea va hodisaga katta mas'uliyat, xalqimizga xos donolik va aql-zakovat bilan yondashishimiz kerak.
 D) Biror xalqning axloqini bilmoq uchun uning adabiyoti bilan tanish.

11. Qaysi gap tarkibida bitta tovushdan iborat harakat nomi qo'shimchasi mavjud?
 A) Xalqning sha'niga, ming yillar davomida to'plagan obro'-e'tiboriga dog' tushirishga hech kimning haqi yo'q.
 B) Xalqni o'zingga xayrixoh bo'lishini istasang, avval o'zing xalqqa xayrixoh bo'l.
 C) Qo'ziboy ishga aralashuvini hain, chiqib ketishini ham bilmay qoldi.
 D) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.

12. Harakat nomi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida tovush o'zgarishi yuz bergan qatorni aniqlang.
 A) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.
 B) Birovlarning gapini zimdan tinglash odobdan emas.
 C) Erta bahorda daraxt ekish, yerlarni yumshatish bizning eng yaxshi odatimizdir.
 D) Bu Vatanni jon bilan sevmooqqa, Cho'lpon, hozir o'l...

13. Harakat nomi qo'shimchasi qo'shilishi natijasida lablanmagan sudiga murojaat qilishga haqlisiz.
 14. Qaysi qatorda tarkibida shakli yasovchilar qo'shimchalarning har ikki turi qo'llangan fe'ning vazifa shakli mavjud?
 A) Xufiyalar fikricha, mahbusni bu yerdan olib chiqqani kelmoqchi ekanlar.
 B) Birovlarning gapini zimdan tinglash odobdan emas.
 C) Erta bahorda daraxt ekish, yerlarni yumshatish bizning eng yaxshi odatimizdir.
 D) Bu Vatanni jon bilan sevmooqqa, Cho'lpon, hozir o'l...

15. Munosabat shaklini olgan harakat nomi qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi.
 B) Mana endi, Sobirjon o'g'lim, ishlab, ro'zg'orga qarashadigan vaqtingiz bo'ldi.
 C) Erta bahorda daraxt ekish, yerlarni yumshatish bizning eng yaxshi odatimizdir.
 D) Bu Vatanni jon bilan sevmooqqa, Cho'lpon, hozir o'l...

- A) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.
 B) Xufiyalar fikricha, mahbusmi bu yerdan olib chiqqani kelmoqchi ekanlar.
 C) Ilim insonni izzat va sharafiga yetkazadigan vositadir.
 D) Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ekan odam chinakam insondir.

18. Fe'ning sifatga xoslangan shakli qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Bobur gulni yana bir hidlab, boshidagi sallasining qatiga qistirib qo'ydi.
 B) Aka-uka maslahatlashib, tong otguncha, shu yerda qolishga qaror qilishdi.
 C) O'sha davrada bevosdan maqtanib qo'yganimga o'zimning ham g'ashim keladi.
 D) Men bobomning maqtovini eshitib, kekdayib bormoqdaman.

19. Xato berilgan hukmni aniqlang.

- A) Fe'ning sifatga xoslangan shakli sifat-dosh deyiladi.
 B) Sifatlar shaxs va narsaning turg'un belgisini ifodalaydi.
 C) Sifat-doshlar shaxs va narsaning barqaror belgisini ifodalaydi
 D) Sifat-doshlar shaxs va narsalarning belgisini bildiradi.

20. Qaysi qatorida shaxs yoki narsaning belgisini bildiruvchi so'z qatnashmagan?

- A) Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yninga olmaslik ayb.

- B) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.
 C) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.
 D) Arslondan qo'rqqandan ko'ra o'z nafsidan qo'rqqan foydaliroq.

21. Shaxs yoki narsaning turg'un, barqaror belgisini ifodalaydigan so'z qaysi qatorida berilgan?

- A) bo'lmagan (gap) B) oqar (suv)
 C) qulay (sharoit) D) oq'iydigan (bola)

22. Shaxs yoki narsaning turg'un (barqaror) belgisini ifodalaydigan so'z qaysi qatorida qatnashgan?

- A) Bilmaslik ayb emas, bilmaganini bo'yninga olmaslik ayb.
 B) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.
 C) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.

- D) Navoiy ixchamgina xonada tanho ishlar edi.

23. Shaxs yoki narsaning o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydigan so'z qaysi qatorida qatnashgan?

- A) Kechga yaqinlashgach, havo aynib, shamol turdi.

B) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.

- C) Vatanni saqlash, uning maorifi uchun qayg'urmoq unga yordam etmoqdir.

- B) Navoiy ixchamgina xonada tanho ishlar edi.

24. Qaysi so'z birlikmasi tarkibida shaxs yoki narsaning o'zgarish, harakat belgisini ifodalaydigan so'z qatnashgan?

- A) suv oqar B) qaytar dunyo
 C) salqin havo D) oq gul

25. Qaysi qatorida majhul nisbat shaklidan so'ng qo'llangan sifat-dosh shakli mavjud?

- A) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.
 B) Arslondan qo'rqqandan ko'ra o'z nafsidan qo'rqqan foydaliroq.

C) Ilim insonni izzat va sharafiga yetkazadigan vositadir.
 D) Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ekan odam chinakam insondir.

- 26.** Fe'lga xos bo'lgan zamon, bo'lishli-bo'lishsizlik, nisbat ma'nolarini ifodalaydigan vazifa shakli qaysi?

- A) barchasi to'g'ri B) sifat-dosh
 C) harakat nomi D) ravish-dosh

27. Shaxs-narsalarning o'tgan zamonga xos harakat belgisini ifodalaydigan qo'shimcha qaysi qatorida qo'llanmagan?

- A) O'z o'rnida aytilmagan so'z hech kim yo'q yerda chalingan kuyga o'xshaydi.

- B) Arslondan qo'rqqandan ko'ra o'z nafsidan qo'rqqan foydaliroq.
 C) Ilim insonni izzat va sharafiga yetkazadigan vositadir.

- D) Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ekan odam chinakam insondir.

28. Qaysi qatorida qo'llangan sifat-dosh shakli imloviy jihatdan xato yozilgan?

- A) Mana endi, Sobirjon o'g'lim, ishlab, ro'zg'orga qarashadigan vaqtiniz bo'ldi.

B) Odamlar sizni qattiq hurmat qilishadi, opa, — dedi Kamol astoydil kuyunib, — sha'ningizga dog' tushiradigan bunaqa ishlarga izn bermang.

C) Ilim insonni izzat va sharafiga yetkazadigan vositadir.

D) Boshqalar qalbiga yaxshilik urug'ini ekan odam chinakam insondir.

29. Qaysi qatorida sifat-dosh qo'shimchasini qo'llash bilan bog'liq imloviy xatolik mavjud?

- A) O'z nafsiga asir bo'lgan odam insoniylikni qo'ldan boy beradi.
 B) Biz chekkan g'amlarni siz ko'rmang.

C) To'g'ri gap tuqqaningga yoqmaydi, deydilar.

D) Bog'da turfa xil gullar o'sgan ekan.

 D) Uning yaxshi o'quvchi bo'lib, to'rtinchi sinfni «to'rt» baholarga yakunlayotganidan dadasi bilan otasi, buvisi ham xursand.

36. Men o'qimay turib ham boshimda

shu qadrdan qalpoqcham bor ekan,
 albatta, agronom ham, injener ham,
 ariston ham bo'la olaman, deb qattiq
 ishonar edim.

- Ushbu gapda nechta shaxs oti qo'llangan?
 A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

37. Ikkinchi qismi turdosh otdan

- iborat bo'lgan atoqli otlar
 A) qo'shib yoziladi
 B) chiziqcha bilan yoziladi
 C) qo'shib yoki ajratib yoziladi
 D) ajratib yoziladi

38. Dadam kunduzi g'o'zani chopiq

- qilib juda charchagan ekan, sira
 uyg'ormadi.
 Ushbu gap haqida to'g'ri hukmni aniqlang.

- D) qo'shtirnoqsiz ajratib yoki qo'shib yoziladi

30. Xalqaro tashkilot va oliy davlat tashkilotlari va mansablarning nomlari qay tarzda yoziladi?

- A) tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi
 B) qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan yoziladi
 C) tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi
 D) qo'shtirnoqsiz ajratib yoki qo'shib yoziladi

31. Atoqli ot yozilishi bilan bog'liq xatolik qaysi qatorda uchraydi?

- A) O'zbekiston Oliy Majlisi
 B) «Bahor» konsert zali,
 C) Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi
 D) Oliy Xo'jalik Sudi

32. Atoqli ot yozilishi bilan bog'liq xatolik qaysi qatorda uchramaydi?

- A) Buxoro viloyati Hokimligi
 B) Osiyo Taraqqiyot banki
 C) Samarqand chinni zavodi
 D) Guliston Davlat universiteti

33. Daraxtlarda gul, bolalarning

do'ppilariga lolalar qistirilgan.

- Ushbu gapda turdosh otning qaysi tur(lar)i qatnashgan?
 A) shaxs oti, o'rin-joy oti
 B) narsa oti
 C) faoliyat-jarayon oti, narsa oti
 D) shaxs oti, narsa oti

34. Atoqli otdan yasalgan shaxs oti qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Bittasi tashkentlik Yusufbek bo'lining o'g'li Otabeti

- Berilgan so'zlardan nechitasi mavhum ot sanaladi?
 A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta

26. Mavhum otlarga qo'shib, ta'kidlash, kuchaytirish ma'nolarini ifodalaydigan qo'shimcha vazifasiga ko'ra qanday qo'shimcha hisoblanadi?

- A) so'z yasovchi
 B) lug'aviy shakl yasovchi
 C) sintaktik shakl yasovchi
 D) vazifa shakli yasovchi

27. Qaysi qatorda ot so'z turkumiga mansub birlik berilgan?

- A) keldi-ketdi B) qator-qator
 C) chelak-chelak D) es-es

28. Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlar, transport vositalari kabitarga berilgan shartli nomlar qay tarzda yoziladi?

- A) tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi
 B) qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan (birikmali holatlarda faqat birinchi so'z bosh harf bilan) yoziladi
 C) tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi
 D) qo'shtirnoqsiz ajratib yoki qo'shib yoziladi

29. Vazirliklar nomi qay tarzda yoziladi?

- A) tarkibidagi har bir so'z bosh harf bilan yoziladi
 B) qo'shtirnoq ichida bosh harf bilan yoziladi
 C) tarkibidagi birinchi so'z bosh harf bilan yoziladi

A) Ancha ovragarchilik bilan bir mashina paxta olib qaytdik.
 B) Huriniso ipakchilik zvenosining boshlig'i bo'lgan ekan.
 C) Shomurod asli yilqichining bolasi, dehqonchilikni xushlamaydi.
 D) Yulqin akam traktor terimini bo'shagandan keyin hovlining kamchiliklarini tuzatadi.

43. Shaxs o'tidan hosil qilingan faoliyat-jarayon o'ti qaysi qatorlarda qatnashgan?
 A) Billim kishining ko'nglini yoritadi, unga ro'shnolik beradi.
 B) Ta'tilda o'qituvchi opamiz sayohatga olib boradigan bo'ldi.
 C) Bog'chada maza edi. Kuni kecha xayrlashuv tantanasi bo'ldi.
 D) Sho'yorlik kursini bitirib, konda ishlay boshladim.

44. Yasama shaxs o'ti va yasama faoliyat-jarayon o'ti qatnashgan gapni aniqlang.

A) Ancha ovragarchilik bilan bir mashina paxta olib qaytdik.
 B) Ta'tilda o'qituvchi opamiz sayohatga olib boradigan bo'ldi.
 C) Shomurod asli yilqichining bolasi, dehqonchilikni xushlamaydi.
 D) Yulqin akam traktor terimini bo'shagandan keyin hovlining kamchiliklarini tuzatadi

45. Otaqo'zi bo'lajak kuyovining bachkana qiliqlariga ichida bir g'ijimib qo'ydi.
 Ushbu gapda ostiga chizilgan yasama o't qaysi so'z turkumidan hosil qilingan?
 A) o't B) sifat C) fe'l D) ravish

Barcha kitoblar →

-194-

@ABTbooks kanalida

46. duradgorlik, suvoqchilik, chilangarlik, ustachilik, tilanchilik, dehqonchilik

Ushbu so'zlardan nechitasi -lik qo'shimchasi yordamida yasalgan?
 A) barchasi B) beshitasi
 C) uchitasi D) to'rttasi

47. Ko'plik shakli ta'kidlash, kuchaytirish ma'nosini ifodalagan qatorni aniqlang.
 A) Osmon kabi tiniq tuyg'ular mavj uradi bu yosh ko'nglimda.
 B) Bahor keldi. Aritlarda suv to'lib-toshib, sharqirab oqa boshladi.
 C) Shavkatlarning kattagina uzumzor bog'i bor.
 D) Bahorni boshlab kelgani uchun odamlar bu gubni ko'ziga surtib, e'zozlaydilar.

48. Otlarning ko'plik shakli qanday ma'nolarni ifodalay oladi?

1) ko'plik 2) hurmat 3) umumlashirish 4) kuchaytirish
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
 C) 1, 2, 4 D) faqat 1

49. Otlarning lug'aviy shakllari qaysi qatorida to'g'ri berilgan?

1) ko'plik shakli 2) egalik shakli 3) erkash shakli 4) kichraytirish shakli
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
 C) 1, 3, 4 D) faqat 1

50. Qaysi qatorida ko'plik ma'nosini ifodalagan ko'plik shakli mavjud emas?

A) Shavkatlarning kattagina uzumzor bog'i bor.
 B) Dadamlar: — Xo'sh, qalay bu yerlar yoqdimi? Qara, hamma yoq

sokin. Qushlar, baliqlar — bizniki, — dedilar.

C) Bahor keldi. Aritlarda suvlar to'lib, sharqirab oqa boshladi.
 D) Hamma ishlarning boshi to'g'rtlik va halollidir.

51. Lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha bilan qo'llangan shaxs nomi qaysi qatorida berilgan?

A) Nigora Saidlarnikiga kirganda, uying chiroqlari yoqilgan edi.
 B) Ey farzandlar — g'unchalar! Sizga mehrim shunchalar.
 C) Ko'zlarim hali barf tanimas edi, qalam ushloimasdi hali qo'llarim.
 D) Kapalak izidan quvib tinnasdan, Yulduzlarni sanar edim tunlari.

52. Erkash shaklini olgan shaxs oti qaysi qatorida qo'llangan?

A) Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman.
 B) Qo'zichoqlar boshlarini xurjundan chiqarib jim yotishardi.
 C) Voy, bo'yginangdan aylanib ketay seni.
 D) Sog'intirib qo'yding-ku ayajonimgi!

53. Kichraytirish shaklini olgan narsa oti qaysi qatorida qo'llangan?

A) Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman.
 B) Bu — Olimtoy yaratgan robot.
 C) Voy, bo'yginangdan aylanib ketay seni.
 D) Sog'intirib qo'yding-ku ayajonimgi!

54. Qaysi qatorida ham erkash, ham kichraytirish shakli qo'llangan?

A) Yoylib oqayotgan suvning u yer-bu yerida top-toza otroqlar ko'rinish turardi.

B) Obbo, azamat-ey, Qo'zivoymas, Qo'chqorvoy bo'lib ketibsan-ku!
 C) Huriniso ketib, Saidaga qarashib turgan Kifoyatxonni yubordi.
 D) Sobirjon zerikkan paytlarida kuchukchasi bilan gaplashadi.

55. Qo'zichoqlar boshlarini xurjundan chiqarib jim yotishardi Ushbu gapda qo'llangan lug'aviy shakllar haqida noto'g'ri hukmni aniqlang.

A) harakat nomi shakli qatnashgan
 B) ravishdosh qo'shimchasi qo'llangan
 C) kichraytirish shakli ishtirok etgan
 D) ko'plik qo'shimchasi qatnashgan

56. Bahoroy juda go'zal, Hamma fasladan o'zar.

Gul-chechakdan libosi, Yoqimlidir havosi.

Ushbu misralarda ot turkumiga mansub so'z necha o'rinda qo'llangan?
 A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta

57. Qo'zichoqlar boshlarini xurjundan chiqarib jim yotishardi Ushbu gapda necha o'rinda munosabat shakli qo'llangan?
 A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 2 ta

58. Qo'zichoqlar boshlarini xurjundan chiqarib jim yotishardi Ushbu gapda necha o'rinda otga xos shakl yasovchi qo'shimcha qatnashgan?
 A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta

-195-

@ABTbooks kanalida

59. O'limning onasi uyda o'tiradi, do'ppi tikadi.

Ushbu gapda ot turkumiga oid nechta birlik qo'llangan?

- A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta

60. O'limning onasi uyda o'tiradi, do'ppi tikadi.

Ushbu gapda nechta turdosh ot qatnashgan?

- A) 5 ta B) 4 ta C) 3 ta D) 6 ta

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajarating.

EKOLOGIK BANK

Perulik Xoseni ko'pchilik taniydi. U 7 yoshida birinchilardan bo'lib "Ekologik bank"ka asos solgan tadbirkor. Yo'q u "milloz"lari, ya'ni tengdoshlarining "pulini shilib", boyib ketishni maqsad qilmagan. Aksincha, o'zidek kambag'al, o'qishga imkoni yetmaydigan bolalarga yordam bermoqchi xolos.

Aslida, Xose ham o'rtoqlaridek nochor oilaning farzandi. Maktabga har kuni nonushtasiz ketishdan, o'qish uchun to'lovlarni vaqtida berolmaslikdan rosa qiynalardi. Ba'zida otasi kamroq maosh olsa, darslarini qoldirishga ham majbur bo'lardi. Birgina u emas, o'rtoqlari, qo'shnilari ham shunday yashashardi.

Oxiri Xose o'z biznesini ochishga qaror qildi. Qarasa, sinfdoshlari pulni to'g'ri sarflasholmas ekan. Shunda u bolalar uchun "Ekologik bank" ochadi va qayta ishlanadigan chiqindilarni olib kelganga pul bera boshlaydi. Chiqindi evaziga maxsus tashkilot ham Xosega pul to'lashga rozi bo'ladi. Shu tariqa, uddaburon Xose tabiatga va bolalarga yaxshilik qilishting yo'lini topadi.

Xose "Ekobank"ni boshqartishdan tashqari tengdoshlariga pulni to'g'ri sarflash yo'llarini ham o'rgatadi. Puldan qiynalganlarga kichikroq qarz - mikrocredit ham berib turadi. Bu bolalarga har kuni ovqat yeyishga, maktabga qatnashga yordam beradi.

Xosening tadbirkorligi ortidan bugun 2500 bola maktabga qatnayapti. Chunki Peruda o'qish xarajatlarini hamma ham to'lay olmaydi-da! Xose kelajakda 20000 bolaga yordam bermoqchi. Uning yagona maqsadi: bugun qashshoq bo'lgan bolalar ulg'ayganida qashshoqlikda yashashmasin! Ular ham adolatli sharoitda o'qishga, ta'lim olishga haqli!

Hozir 14 yoshga kirgan Xose: "Bolalar kichik g'oyalari bilan katta o'zgarish qila oladilar. Bizga faqat imkon berishsa, bas!" - deydi. Rostdanim, Xosedek ona tabiatni asraydigan, o'rtoqlariga yordam beradigan bolalar orangizda juda ko'p. Ularga faqat imkon berish kerak.

Charos Nizomiddinova

61. To'g'ri javobni toping.

Xosening "Ekologik bank" ochishdan maqsadi nima edi?

- A) Otasi bergan pullarni foizlar hisobiga ko'paytirish.
 B) O'qishga imkoni yetmaydigan bolalarga yordam berish.
 C) Bolalarning qo'lida jamlanib qolayotgan pullarni maqsadli sarflash.
 D) Boshqalarning pullari hisobiga o'z xarajatlarni ham qoplash.

62. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan quyidagi parcha tarkibidagi fe'llar to'g'ri tahlil qilinmagan qatorni aniqlang.

Xose "Ekobank"ni boshqartishdan tashqari tengdoshlariga pulni to'g'ri sarflash yo'llarini ham o'rgatadi. Puldan qiynalganlarga kichikroq qarz - mikrocredit ham berib turadi. Bu bolalarga har kuni ovqat yeyishga, maktabga qatnashga yordam beradi.

- A) Harakat davomiyligini ifodalagan ko'makchi fe'l shakli ishtirok etgan.
 B) To'rt o'rinda harakat nomi shaklidagi fe'llar qatnashgan.
 C) Sifatdosh shaklidagi fe'l tarkibida harakat bajaruvchisining noaniqligini bildirgan nisbat qo'shimchasi mavjud.
 D) Ot va fe'l asoslar qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'l qatnashgan.

63. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan qaysi gapda ostiga chizilgan so'z tarkibida tovush tushishi hodisasi yuz bermagan?

- A) Qarasa, sinfdoshlari pulni to'g'ri sarflasholmas ekan.
 B) Puldan qiynalganlarga kichikroq qarz - mikrocredit ham berib turadi.
 C) Birgina u emas, o'rtoqlari, qo'shnilari ham shunday yashashardi.
 D) Bugun qashshoq bo'lgan bolalar ulg'ayganida qashshoqlikda yashashmasin!

64. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi fikrni matn xulosasi sifatida olib bo'lmaydi?

- A) Agar imkon berilsa, bolalar kichik g'oyalari bilan katta o'zgarish qila oladilar.
 B) Har bir bola adolatli sharoitda o'qishga, ta'lim olishga haqli!
 C) Tabiatga berilgan yordam, ashlida, o'zimizga berilgan yordamdirdi.
 D) Tabiatni asraydigan, o'rtoqlariga yordam beradigan bolalar juda ko'p.

65. To'g'ri javobni toping.

Matnda qo'llangan yasama shaxs otini aniqlang.

- A) sinfdoshlari B) bolalarga
 C) o'rtoqlariga D) milloz

Surat asosida quyidagi testi bajarang.



66. To'g'ri javobni toping.

Suratda tasvirlangan jarayon qaysi qatorida to'g'ri izohlangan?

- A) Jamiyat a'zolari ikki xil bo'ladi: ayrimlari turfa xil chiqindilarni tabiatga uloqtirib, uni ifloslantirishi va qolganlari tabiatni asrash uchun bormakoni bilan kurashishlari mumkin.
- B) Kimlardir jamiyat rivoji uchun maishiy texnika chiqindilarini qayta ishlashga harakat qilsa, yana kimlardir ularning mehnatini toptab, istalgan joyga chiqindi tashlab ketishadi.
- C) Shunday tadbirkor kishilar borki, ular o'z faoliyatlarini natijasida ham o'zlarini foyda oladilar, ham tabiatni asrashga beminnat yordam ko'rsatadilar.
- D) Bu hayotda har kim o'ziga keragini oladi: kimdir o'zi uchun yaxshi narsalarni tashlab olsa, yana kimlardir duch kelgan narsaga qo'l uzatadi.

Matnuni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajarang:

...Ayrim odamlarga barcha narsa o'z holicha qolaversa ham mayli. Lekin men unani emasman. Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg'uda bo'lsam, o'qituvchimiz qoldira olmayman. Kichik sinfida o'qiyotganimda menga jabr ko'rsatuvchi okeandagi plastik uyum, global iqlim isishi sababli qutb ayiqlari Shifdoshlarim ham yig'lagan. Lekin film tugagach, ular bemalol yana boshqa ishlari bilan shug'ullanaverdi. Men esa unday qila olmayman. O'sha lavha xayolimdan ketmaydi...

Greta Tumberg

Barcha kitoblar →

-198-

@ABThebooks kanalida

- 67. Gap to'g'ri davom ettirilgan qatorni aniqlang.
Itolarga film qo'yib bergan o'qituvchining maqsadi...
- A) ...plastik buyumlardan foydalanishni o'rgatish.
- B) ...tabiatning barcha a'zolari o'zaro bog'liq ekanini uqtirish.
- C) ...qutb ayiqlarini asrab qolish.
- D) ...o'qituvchilarga global iqlim haqida nazariy ma'lumot berish.

68. Matndan olingan quyidagi gapning ma'nosiga diqqat qiling. Matn tarkibidagi qaysi gap Shu gapning ma'nosini aynan ta'kidlagan?

Ayrim odamlarga barcha narsa o'z holicha qolaversa ham mayli.

- A) O'qituvchimiz global iqlim isishi sababli qutb ayiqlari jabr ko'rsatuvchi haqida film qo'yib bergan.
 - B) Lekin men unafaq emasman.
 - C) Ular bemalol yana boshqa ishlari bilan shug'ullanaverdi.
 - D) Ayniqsa, biror narsadan xavotirda yoki qayg'uda bo'lsam, buni shunday qoldira olmayman.
69. To'g'ri javobni toping.
Quyidagi inkor gaplarning qaysi biri mantiqan qahramon xarakterini ochib bermaydi?
- A) Lekin men unafaq emasman.
 - B) Buni shunday qoldira olmayman.
 - C) Men esa unday qila olmayman.
 - D) O'sha lavha xayolimdan ketmaydi...

Matnuni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajarang.

TELEBOSHOVCHI KIM?

XX asrning 40-yillariga kelib dunyoda teleboshlovchilik kasbi paydo bo'ldi. Chunki shu yillarda endigina ixtiro qilingan televizor odamlarning uylariga kirib kela boshlagandi. U vaqtlarda telekanallar hozirgidek ko'p bo'lmagan. Faqat bitta kanal bo'lgan. Efir vaqti esa kuniga bir soatdan oshmagan. Shu vaqtda mahallada yozgona bo'lgan "televizorli xonadon" ga butun qo'ni-qo'shnilar yig'ilib, naza qilib televizor ko'rishgan. Ekranida ko'rinib berib, so'nggi yangiliklarni aytayotgan teleboshlovchi esa odamlarning eng qadrdon kishisiga aylanib ketgan.

Yillar o'tib, telekanallar ham, ko'rsatuvlar ham ko'paydi. Ko'rsatuvlar axborot, ko'ngilochar va shou kabi turlarga ajraldi. Natijada, yangiliklar va sport sharhlovchisi, ob-havo ma'lumotlari, shou va musiqiy ko'rsatuvlar boshlovchisi kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Endi har bir ko'rsatuv uchun alohida-alohida teleboshlovchi kerak bo'lardi. Sababi "Axborot" ko'rsatuvining boshlovchisi uchun "Musiqiy tanaffus" ko'rsatuviga ham boshlovchilik qilish qiyin edi-da.

Barcha kitoblar →

-199-

@ABTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

Teleboshlovchi studiyada faoliyat yuritadi. Aytgandek, suxandon va teleboshlovchini bir-biridan farqlash kerak. Suxandon tayyor matnini o'qib beradi. Ya'ni o'zi ijod qilmaydi. Ular asosan informatsion ko'rsatuvlarda ishlaydi. Teleboshlovchi esa izlanadi, kerakli ma'lumotlarni yig'adi, mustaqil ravishda intervyular oladi, qayerda qanday gapirish kerakligi ustida bosh qotiradi, vaziyatga qarab improvizatsiya qila oladi. Bir so'z bilan aytganda, ular ijodkor bo'lishadi.

Teleboshlovchi kamera qarshisida o'zini qanday tutishni, tomoshabinlarning e'tiborini qanday jalb etishni, fikrini aniq va tushunarli tarzda **yetkaza olishni** bilishi lozim. Shuning uchun topqit, so'zamol, uddaburon teleboshlovchilar kutilmagan vaziyatlarda ham o'zlarini yo'qotib qo'ymaydi. Bu sifatlarga ega bo'lmagan teleboshlovchilar faoliyati davomida millionlab tomoshabinlar oldida **uyalib qolishi** hech gap emas.

Albatta, teleboshlovchi yolg'iz o'zi bo'lmaydi, kadr ortida uning butun jamoasi ishlaydi. Jamoada ... va yana ko'plab mutaxassislar yig'iladi. Ammo efir vaqtida tomoshabinlar faqat boshlovchini ko'radi xolos.

Teleboshlovchilik - dunyodagi eng og'ir kasblardan biri. Bu kasb egalari deyarli dam olish kunlarisiz ishlashga majbur. Chunki odamlar dam olish kunlari ko'proq televizor ko'radi-da. Yana teleboshlovchilar tong sahardan studiyaga kelishga, ba'zan yarim tunda boshlovchilik qilishga majbur bo'lishadi. Tasvirlarga olish jarayonlari bir necha soatga cho'zilib ketganda esa tushlik qilishni ham unutilib qo'yishadi. Qolaversa, ular doim tashqi ko'rinishlariga e'tibor berishga, sport bilan muntazam shug'ullanishga majbur. Ha, uyquchi va dangasalarga bu kasb umuman mos kelmaydi.

Xo'sh, endi aytgich, siz hali ham teleboshlovchi bo'lishni orzu qilyapsizmi?

70. To'g'ri javobni toping.

- Nima uchun dastlab teleboshlovchilik kasbi ko'p tarmoqli bo'lmagan?
- A) Chunki u paytlarda televizor kam bo'lgan va odamlar deyarli televizor ko'rishmagan.
- B) Chunki u paytlarda ko'rsatuvlarning bir qancha turlari mavjud bo'lmagan.
- C) Chunki teleboshlovchi bo'lishni ko'pchilik istamagan.
- D) Chunki bu soha juda mushkul bo'lgan va bunga talabgorlar erta-yu kech ishlayshgan.

71. To'g'ri javobni toping.

Matn asosida quyidagi ma'lumotlarning qay birlari to'g'ri berilganini aniqlang.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

1. Teleboshlovchilik kasbi 1940-yilda paydo bo'lgan.
2. Telekanallar erishgina paydo bo'lgan vaqtida efir vaqt bitta soatdan ko'p emas edi.
3. Teleboshlovchilarning ko'payishiga teleko'rsatuvlarning o'zishi sabab bo'lgan.
4. Teleboshlovchi tayyor matnini o'qib beradi.
5. Teleboshlovchi odatda informatsion ko'rsatuvlarda ishlaydi.
6. Teleboshlovchi yolg'iz o'zi bo'lmaydi, efir vaqtida uning butun jamoasi ishlaydi.
7. Suxandon efir vaqtida sez-tiz improvizatsiya qilishga majbur bo'ladi.

- A) 1, 2, 3, 4, 6, 7
 B) 2, 3, 4, 5, 6, 7
 C) 1, 2, 3
 D) 1, 2, 3, 6

72. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan quyidagi parchani qayta o'qing va yordamchi so'zlarni vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajrating. Qaysi javobda yordamchi so'zlar to'g'ri ajratilganini aniqlang.

1. So'zni o'zga bog'lash
2. So'zga qo'shimcha ma'no yuklash

Yillar o'tib, telekanallar ham, ko'rsatuvlar ham ko'paydi. Ko'rsatuvlar axborot, ko'ngilochar va shou kabi turlarga ajraldi. Natijada, yangiliklar va sport sharhlovchisi, ob-havo ma'lumotlari, shou va musiqiy ko'rsatuvlar boshlovchisi kabi yo'nalishlar paydo bo'ldi. Endi har bir ko'rsatuv uchun alohida-alohida teleboshlovchi kerak bo'lardi. Sababi "Axborot" ko'rsatuvining boshlovchisi uchun "Musiqiy tanaffus" ko'rsatuviga ham boshlovchilik qilish qiyin edi-da.

- A) 1 - va, kabi, uchun; 2 - ham, -da
 B) 1 - va, kabi; 2 - ham, uchun, -da
 C) 1 - ham, -da; 2 - va, uchun, kabi
 D) 1 - kabi, uchun; 2 - va, ham, -da

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

73. To'g'ri javobni toping.

Ko'p nuqta o'rnida kadr ortida faoliyat yuritadigan kasb egalari sanalgan. Qaysi qatorida bu so'zlar imloviy jihatdan to'g'ri yozilganini aniqlang.

- A) rejissyor, prodyuser, senarist, grimchi, aperator, chirog'chi
- B) rejissor, prodyuser, ssenaris, grimchi, operator, chiroqchi
- C) rejissor, produser, senarist, grimmmchi, operator, chiroqchi
- D) rejissyor, prodyuser, ssenarist, grimchi, operator, chiroqchi

74. To'g'ri javobni toping.

Suxandon va teleboshlovchining farqi nimada?

- A) Suxandonlar teledasturlarni to'g'ridan to'g'ri olib boruvchilardir. Teleboshlovchi esa havaskor suxandonlar sanalib, ular o'zlari mustaqil ko'rsatuv olisholmaydi.
- B) "Axborot" ko'rsatuvida teleboshlovchilar, "Musiqiy tanaffus" ko'rsatuvida esa suxandonlar faoliyat ko'rsatadi.
- C) Kamera qarshisida faoliyat yurituvchilar suxandonlar sanaladi. Teleboshlovchilar esa kadr ortida xizmat qiladiganlardir.
- D) Tayyor matn o'qib beradigan va, asosan, informatsion ko'rsatuvlarda ishlaydigan kishilar suxandon sanaladi. O'zi izlanib, ijod qilib, kerakli ma'lumotlarni yig'adigan va intervyular oladigan kishilar teleboshlovchi hisoblanadi.

75. To'g'ri javobni toping.

Sabab - oqibat tarzida berilgan quyidagi jumalarni muvohiqlashtiring.

1. Dangasalarining teleboshlovchi bo'lishi qiyin...	a)	...chunki ko'rsatuvlarning turi va yo'nalishi ortib, kengayib bormoqda.
2. Bugungi teleboshlovchilikning sobalar bilan bog'liq yo'nalishlariga talab yuqori...	b)	...chunki kutilmagan vaziyatlarda o'zini yo'qotib qo'ygan telboshlovchilar millionlab tomoshabinlar oldida uyaliib qolishi mumkin.
3. Bu kasb egalari topqir, so'zamol, uddaburon bo'lishi kerak...	d)	...chunki katta jamoaning bir a'zosi sifatida ko'rsatuvning sifatli chiqishiga u ham javobgar.
4. Teleboshlovchi o'z kasbiga o'ta mas'uliyatli bo'lish shart...	e)	...chunki bu kasb ba'zida dam olish kunlari ham ishlashni taqozo qiladigan mashaqqatli faoliyat sanaladi.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- A) 1 - a, 2 - b, 3 - d, 4 - e
- B) 1 - e, 2 - a, 3 - b, 4 - d
- C) 1 - e, 2 - b, 3 - a, 4 - d
- D) 1 - d, 2 - a, 3 - b, 4 - e

76. To'g'ri javobni toping.

Matnda ostiga chizib ajratib ko'rsatilgan qaysi so'z mantiqan "ortiqcha" ekanini aniqlang.

- A) paydo bo'ldi B) aylanib ketgan
- C) yetkaza olishni D) uyaliib qolishi

SIFAT SO'Z TURKUMI

Sifat. Yasalishi. Tuzilishi. Asliy va nisbiy sifat

1. Sifat turkumiga mansub so'zlar qaysi turkumdagi so'zlarga bog'lanib, ularning belgisini bildiradi?
A) ot B) fe'l C) son D) ravish
2. *O'ziyam juda g'alati odam, sergapmi, kargapmi, bilib bo'lmaydi.* Ushbu gapda o'ning belgisini bildirgan nechta so'z qo'llangan?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
3. Fe'l turkumidagi so'zdan hosil bo'lgan sifat qaysi qatorda qo'llangan?
A) Kechki payt hujrada Boburning yolg'iz o'zi o'tirar edi.
B) Cho'ponlar sezgir, itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor.
C) Do'mbirachi qadimgi qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda.
D) Bu o'rmonda odamsimon maymunlar yashaydi.
4. Qaysi qatorda ham sifat-dosh, ham sifat ishtirok etgan?
A) Pochcham ellikdan oshgan, novcha, kasalmand, rangpar kishi.
B) Cho'ponlar sezgir, itlar ham ziyrak, bo'ridan ayyor.
C) Do'mbirachi qadimgi qozoq hayotidan dostonlar kuylamoqda.
D) Bu o'rmonda odamsimon maymunlar yashaydi.
5. Belgiga egalikni bildiradigan qo'shimchalar qaysi qatorda to'g'ri berilgan?
A) -li, -in, -q, -dor, -qi
6. Qaysi qatorda ham sifat, ham fe'l bo'la oladigan shakldosh so'z berilgan?
A) yut B) ter C) oq D) uch
7. *Oldimda mevali va mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon. Archa ham serob. O'riklarining yappog'i qizil, qontalash. Xuddi biror ular shoxiga bir satil qizil bo'yoqni sepib tashlaganday. Archa ham serob.* Mazkur gapda nechta sifat qatnashgan?
A) 7 ta B) 6 ta C) 5 ta D) 8 ta
8. *Yo'lning ikki betidagi qoramtir, oq, qizil daraxtlarning tanga-tanga barglari iliq quyosh nuridan marvariddek tovlanadi.* Ushbu gap haqida to'g'ri berilmagan hukmi aniqlang.
A) sodda tub sifat ishtirok etgan
B) orttirma darajadagi sifat qatnashgan
C) sodda yasama sifat qatnashgan
D) o'zaytirma darajadagi sifat mavjud
9. *Uning chaqnoq ko'zlari, siyrak qoshi, o'yechan turishi katta bardoshini, sadoqatini, aqilini aks ettirib turardi.* Ushbu gapda qaysi turdagi sifat mavjud emas?
A) yasama sifat B) asliy sifat

- C) tub sifat D) qo'shma sifat
10. Qaysi qatorda ot + ot shaklidagi qo'shma sifatlar berilgan?
A) qirqoyuq, ishyoqmas sho'rtumshuq
B) toshbag'ir, sheryurak, devqomat
C) erksevar, sofdil, ochko'z,
D) bodomqovoq, balandparvoz, uzunquloq
11. Fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan yasama sifatni aniqlang.
A) G'iyos aka yumshoq ajrtiq ustiga yonboshladi.
B) Mehmon degan unaqa sergap bo'lmaydi.
C) Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi.
D) Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi.
12. Fe'ldan yasalgan sifat qaysi qatorda qo'llangan?
A) Barcha e'zguliklar zamirida xosiyatli orzular yotadi.
B) Mehmon degan unaqa sergap bo'lmaydi.
C) Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi lang ochiq turar edi.
D) Avaz dahlizdan rangdor vassali, sertokcha uyga kirdi.
13. O'xshashlik belgisini bildiruvchi yasama sifat qaysi qatorda qo'llangan?
A) Kechki payt hujrada Boburning yolg'iz o'zi o'tirar edi.
B) Dastlabki kunlar yo'l unchalik mashaqqatli bo'lmadi.
C) Bu o'rmonda odamsimon maymunlar yashaydi.
14. Qaysi qatorda xoslik belgisini bildiruvchi qo'shimcha yordamida yasalgan sifat mavjud?
A) Kechki payt hujrada Boburning yolg'iz o'zi o'tirar edi.
B) Dastlabki kunlar yo'l unchalik mashaqqatli bo'lmadi.
C) Bu o'rmonda odamsimon maymunlar yashaydi.
D) Daryoga doimiy ravishda irmoqlar kelib qo'shilib turmasa, uring oqimi jo'shqin bo'la olmaydi.
15. *Shahzodaning diini ma'yus, ammo har kungi mudhish tuyg'ulariga o'xshamagan, allaqanday pokiza hislar chuig'ab oldi.* Ushbu gapda qatnashgan sifatlar haqida noto'g'ri hukmi aniqlang.
A) uch o'rinda sodda sifat qatnashgan
B) qo'shma yasama sifat qatnashgan
C) sodda yasama sifat qatnashgan
D) sodda tub sifat qatnashgan
16. Qaysi qatorda yasama sifat va yasama ot juftligi berilmagan?
A) oqshomgi - kuzgi
B) erinchoq - o'yinchoq
C) chizg'ich - yulg'ich
D) yasama - bostirma
17. *oqshomgi - sezgi* so'zlaridagi qo'shimchalar qaysi qatorda to'g'ri izohlangan?
A) ikki so'zda ham sifat yasovchi qo'shimcha hisoblanadi
B) ot va sifat yasovchi o'zaro shakldosh qo'shimchalar sanaladi

C) sifatga xos ko'p ma'noli
qo'shimcha hisoblanadi
D) har ikkalasi ot yasovchi bo'lib,
o'zaro shakldosh

18. Qaysi qatorda sifat va ot
yasovchi qo'shimchalar
shakldoshligiga misol berilgan?
A) avvalgi - yozgi
B) sayroqi - yig'loqi
C) yashirin - ilin
D) unumdor - mulkdor

19. Quyida berilgan so'zlar to'g'ri
izohlangan qatorni aniqlang. 1)
bolalik 2) bolalik
A) ikkisi ham sifat turkumiga
mansub
B) birinchisi - sifat, ikkinchisi - ot
C) qo'shimchalar shakldoshligi
mavjud
D) ushbu so'zlar asosdosh sanaladi

20. *erinchok, chizg'ich, yasama,*
yashirin, sezgi, sayroqi, mulkdor,
teпки
Berilgan so'zlardan nechitasi yasama
sifat sanaladi?
A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 1 ta

21. Sifat va ot turkumiga mansub
so'zlarni hosil qiladigan shakldosh
so'z yasovchi qo'shimchalar to'g'ri
berilgan qatorni aniqlang.
1) -choq 2) -qi 3) -li 4) -ki 5) -dor 6) -
g'ich 7) -gi 8) -ma 9) -in
A) berilganlarning barchasi
B) 1, 2, 5, 6
C) 1, 2, 4, 5, 6, 7, 8, 9
D) 1, 2, 4, 5, 6

22. Sifat yasovchi qo'shimcha
qo'shilishi natijasida tovush
almashishi yuz bergan so'zlarni
aniqlang.

A) qaynoq, tirnoq, bo'yoq
B) yumshoq, yig'loqi, quruq
C) so'roq, chaqnoq, tanlov
D) sayroqi, sanoq, o'ynoqi

23. Sifat yasovchi qo'shimcha
qo'shilishi natijasida tovush
almashishi yuz bergan so'z qaysi
qatorda qo'llangan?

A) Avaz dahlizdan rangdor vassali,
sertokcha uyga kirdi.
B) Bo'm-bo'sh otxonaning eshigi
lang ochiq turar edi.
C) Uning chaqnoq ko'zlari
sadoqatini, aqlini aks ettirib turardi.
D) Inson tabiatning eng ongli
farzandi.

24. Ot yasovchi va otga xos lug'aviy
shakl yasovchi qo'shimchalar bilan
shakldosh bo'lgan sifat yasovchi
qo'shimcha qaysi?

A) -dor B) -g'ich C) -choq D) -ma

25. *Kechki payt hujrada Boburning*
yolg'iz o'zi o'tirar edi.

Ushbu gapda tarkibiga ko'ra
sifatlarning qaysi turi qatnashgan?
A) tub sifat B) qo'shma sifat
C) yasama sifat D) takroriy sifat

26. Qaysi qatorda tarkibiga ko'ra
sifatlarning ikki turi ham
qatnashgan?

A) *Kechki payt hujrada Boburning*
o'zi o'tirar edi.
B) *Cho'ponlar sezgir, itlar ham*
ziyrak, bo'ridan ayyor.

C) Do'mbirachi qadimgi qozoq
hayotidan dostonlar kuylamoqda.
D) Bu o'rmonda odamsimon
maymunlar yashaydi.

27. Berilgan so'zlardan nechitasi
yasalma sanaladi?

shirali, mazmundor, serunum, shirin,
ko'yakbop, xushfe'l, oqish, katta,
kamhosil

A) barchasi B) 5 tasi
C) 6 tasi D) 7 tasi

28. Oldimizda mevali va mevasiz
daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon. *Archa*
ham serob. O'riklarning yaproq'i qizil,
qontalash. Xuddi birov ular shoxiga
bir satil qizil bo'yoqni sepib
toshlaganday.

Mazkur matnda qo'llangan sifatlار
haqida xato hukmi aniqlang.

A) to'rtta yasama sifat qatnashgan
B) ikkita tub sifat ishtirok etgan
C) qo'shimcha qo'shib yasalgan sifat
mavjud
D) so'z qo'shib yasalgan sifat mavjud

29. Qaysi qatorda ham tub, ham
yasama sifat qatnashgan?

A) Oldimizda mevali va mevasiz
daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon.
B) O'riklarning yaproq'i qizil,
qontalash.

C) Xuddi birov ular shoxiga bir satil
qizil bo'yoqni sepib tashlaganday.
D) Ko'zga shunday jozibali
ko'rinadiki, uzib-uzib g'arch-g'urch
tishlaging keladi.

30. Asosi - ot, yasovchi asosi esa fe'l
bo'lgan yasama sifat qatnashgan
qatorni aniqlang.

A) Oldimizda mevali va mevasiz
daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon.
B) Ariqlarda suv emas, o'ynoqi nur
oqadi.
C) O'riklarning yaproq'i qizil,
qontalash.

D) Hozir ular uchun eng bexatar yo'l
Toshkent edi.

31. *O'ziyam juda g'alati odam,*
sergapmi, kangapmi, bilib bo'lmaydi.
Ushbu gapda qatnashgan sifatlار
haqida noto'g'ri hukmi aniqlang.

A) uch o'rinda sodda sifat
qatnashgan
B) qo'shma yasama sifat qatnashgan
C) sodda yasama sifat qatnashgan
D) sodda tub sifat qatnashgan

32. *Samig' aka elliklardan oshgan,*
tarvuzdek yum-yumaloq, hazilkash,
shirinso'z odam.

Ushbu gapda sifatlarning tuzilishiga
ko'ra qaysi turi qatnashmagan?
A) sodda sifat B) qo'shma sifat
C) juft sifat D) takroriy sifat

33. *Baland-past devorlar orqasidagi*
mevalarning oq, pushti, qizil

gullariga tabassum bilan qaraysan.
Ushbu gapda qo'llangan sifatlار
haqida to'g'ri hukmi aniqlang.

A) sodda yasama sifatlار uyushib
kelgan
B) ma'nosiga ko'ra sifatlarning ikki
turi qatnashgan
C) juft sifat kesimga bog'lanib, uning
belgisini bildirgan
D) takroriy sifat otga tobe bog'lanib
kelgan

34. Qaysi qatorda nisbiy sifat qatnashgan gap berilgan?
 A) Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan-ufqqa tutashgan.
 B) Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esadi.
 C) Tiniq, ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.
 D) Kechki payt hujrada Boburning yolg'iz o'zi o'tirar edi.
35. Qaysi qatorda sifat turkumiga mansub birlik ishtirok etmagan?
 A) Men tomasha qilib boraman, xayol qanotida go'yo sahrolar, tog'lar kezaman.
 B) Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esadi.
 C) Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan-ufqqa tutashgan.
 D) Tiniq, ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.
36. Sodda sifat va takroriy sifat bitta predmetning belgisini bildirib kelgan qatorni aniqlang.
 A) Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan-ufqqa tutashgan.
 B) Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esadi.
 C) Tiniq, ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.
 D) Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi.
37. Sodda tub va yasama sifatlar fe'lga bog'lanib kelgan qatorni aniqlang.
 A) Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan-ufqqa tutashgan.
 B) Kuz fasli. Shamollar mayin, yoqimli esadi.

- C) Tiniq, ko'm-ko'k osmonda onda-sonda yengil bulutlar asta kezadi.
 D) Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi.
38. Sifatdan yasalgan ot qaysi qatorda mavjud?
 A) Toshbag'ir odamdand yaxshilik kutma.
 B) Nodon, kaltafahm odamdand yaxshi gap chiqmaydi.
 C) Ona yerning xushbo'y tafti mast qiladi kishini.
 D) Orzu millatga hayotbaxsh ruh bag'ishlaydi.
39. Qaysi qatorda maza-ta'm bildiruvchi sifat va turdosh ot qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma sifat mavjud?
 A) Shirinso'z, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi.
 B) Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Toshbag'ir odamdand yaxshilik kutma.
40. Qaysi qatorda kesim vazifasida qo'llangan sifat mavjud?
 A) Shirinso'z, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi.
 B) Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Toshbag'ir odamdand yaxshilik kutma.
41. Sifatdoshga tobelangan sifat qaysi qatorda mavjud?

- A) Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
 B) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovungaga o'xshaydi.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Shoxlar qurib, ularda yakkam-dukkan yaproqlarigina qoladi.
42. Ot va fe'l qo'shilishidan yasalgan fe'l qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Osmono'par koshonalar, ko'rkam imoratlar shaharning ko'rkiga ko'rk qo'shayotgani hech kimga sir emas.
 B) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovungaga o'xshaydi.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
43. Fonetik yozuv qoidasi asosida yozilgan sifat qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Shirinsuxan, oqko'ngil insonlar mevali daraxtga o'xshaydi: hamma ulardan bahra oladi.
 B) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovungaga o'xshaydi.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Osmono'par koshonalar, yangi libos kiygan cho'l-u sahrolar tasviri qo'shiq parvoziga esh bo'ladi.

44. Ham sodda, ham qo'shma yasama sifatlar qatnashgan gapni aniqlang.
 A) Toshbag'ir odamdand yaxshilik kutma.
 B) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovungaga o'xshaydi.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.
45. Qaysi gapda tarkibida ot va sifat qo'shilishidan hosil bo'lgan yasama sifat qatnashgan?
 A) Mehnatsevar, zahmatkash insonlar odamlarning ko'rkid, ishyoqmaslar esa ularning og'riq joyidir.
 B) Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Toshbag'ir odamdand yaxshilik kutma.
46. Qaysi gapda tarkibida ot va ot qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma sifat qatnashgan?
 A) Balandparvoz, quruq gapirgan odamning gapi bemaza qovungaga o'xshaydi.
 B) Sofdil va jonkuyar insonlar bilan bu dunyo oboddir.
 C) Hulkarning och jigarrang yonoqlarida ajib bir qizillik o'ynaydi.
 D) Menga o'xshash esli-hushil yigitga zoriqib o'tirgan ekan.
47. O'zaro yaqin ma'noli ikki asosning juftlashib kelishidan hosil

bo'lgan juft sifat qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan.
B) Yaxshi-yomon gaplar o'lgandir-da oralaridan.
C) Uzoq-yaqindan melunonlar kelgan.
D) Kasbning katta-kichigi bo'lmaydi.

48. O'zaro zid ma'noli ikki asosning juftlashib kelishidan hosil bo'lgan juft sifat qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Baland-past devorlar orqasidagi mevalarning oq, pushi, qizil gullariga tabassum bilan qaraysan.
B) Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik - nodonlar ishi.
C) Goh-goh keladigan uzoq-yuluq xabarlardan boshqa aloqa yo'q.
D) Eski-tuski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintuv qilib yurgan edim.

49. Shu payt tashdan tushib kelayotgan sarg'ish-qo'ng'ir ayiqning bahaybat gavdasi ko'rinish qoldi.

- Ushbu gap haqida berilgan noto'g'ri hukmni aniqlang
A) sodda yasama sifat ishtirok etgan
B) takror sifat predmet belgisini bildirgan
C) tuzilishiga ko'ra sifatning ikki turi mavjud
D) sifatudosh predmet belgisini bildirgan

50. devoriy, aqlli, qishki, chiroyli, yuzaki, ko'chma, derazali

Ushbu so'zlardan nechta nisbiy sifat sanaladi?

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta

Barcha kitoblar →

-210-

@ABTbooks kanallida

51. Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina, g'ishtin uycha bor.

- Ushbu gapda qaysi turdagi sifat qatnashmagan?
A) yasama sifat B) sodda sifat
C) nisbiy sifat D) qo'shma sifat

52. Old qo'shimcha yordamida yasalgan sodda sifat qatnashgan qatorni aniqlang.

- A) Noinsoflikning ham chegarasi bordir, birodar?
B) Nodon odamdan uzoqroq yurgan ma'qul.
C) O'riklarning yaprog'i qizil, qontalash.
D) Hozir ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

53. Kech qaz bo'lsa ham, havo ochiq, quyosh charoqlab turardi.

- Ushbu gapda qaysi turdagi sifat qatnashmagan?
A) yasama sifat B) sodda sifat
C) nisbiy sifat D) asliy sifat

54. Juft ot belgisini bildirib kelgan juft sifat qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Sehirli qalpoq axtarib eski-tuski kiyim-boshlar tashlanadigan burchak-surchaklarni tintuv qilib yurgan edim.
B) Shoshilish, yengil-yelpi ishlarga havas, jahldorlik - nodonlar ishi.
C) Goh-goh keladigan uzoq-yuluq xabarlardan boshqa aloqa yo'q.
D) Menga o'xshash esli-hushli yigitga zoriqib o'tirgan ekan.

55. Kimdir yelpib-yelpib barra-barra go'shtlardan kabob pishiryapti.

@ABTbooks kanallida

-211-

Barcha kitoblar →

@ABTbooks kanallida

Ushbu gapda tuzilishiga ko'ra sifatlarning qaysi turi qatnashgan?
A) sodda sifat B) qo'shma sifat
C) juft sifat D) takroriy sifat

56. Shaxs otiga tobe bog'lab, uning belgisini bildirgan takroriy sifat qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Yangi-yangi aniqar kavlub, qo'riqlar ochamiz.
B) Yirik-yirik tomchilar yer-u ko'kni savalay ketdi.
C) To'p-to'p daraxtlar tag'in lipillab orqada qolib ketdi.
D) Ko'chani sho'x-sho'x botalar to'ldirib o'tishdi.

57. Shu payt tashdan tushib kelayotgan sarg'ish-qo'ng'ir ayiqning bahaybat gavdasi ko'rinish qoldi.

- Ushbu gapdagi sifatlar miqdori va tuzilish turini aniqlang.
A) 2 ta: 1 ta juft, 1 ta sodda
B) 3 ta: 1 ta juft, 2 ta sodda
C) 2 ta: 1 ta qo'shma, 1 ta sodda
D) 3 ta: 2 ta qo'shma, 1 ta sodda

58. qishki, chiroyli, derazali, devoriy, aqlli, yuzaki, ko'chma

Ushbu so'zlardan nechta asliy sifat sanaladi?

- A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta

59. Asliy va nisbiy sifat bitta predmetning belgisini bildirib kelgan qatorni aniqlang.

- A) Temur yuksak insoniylik xususiyatlariga ega bo'lgan buyruk shaxs edi.
B) Daraxtlar siyrak, onda-sonda pakana daraxtlar uchrab qoladi.

C) Otlar balandlik, tepalikka intilib, oyoqlarini g'urur bilan chiroyli tashlaydi, boshlarini ko'rkam tutadi.
D) Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina, g'ishtin uycha bor.

60. Hozir ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

- Mazkur gapda qo'llangan sifat haqida to'g'ri hukmni aniqlang.
A) sodda tub sifat B) nisbiy sifat
C) qo'shma sifat D) yasama sifat

SIFAT DARAJALARI, MA'NO GURUHLARI

61. Qor tip-tiniq shudring tomchisiga aylandi.

- Ushbu gapda sifatning qaysi daraja shakli qo'llangan?
A) oddiy daraja
B) qiyosiy daraja
C) ortirma daraja
D) ozaytirma daraja

62. U tadbirkor va josur lashkarboshi, dono va adolatli hakim, fazil va o'qimishli inson, ajoyib shoir, yetuk olim edi.

- Ushbu gapda sifatga oid nechta birlik qo'llangan?
A) 7 ta B) 8 ta C) 9 ta D) 10 ta

63. Sifat darajalari haqida to'g'ri berilmagan hukmni aniqlang.
A) Oddiy daraja shakli boshqa darajalar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

B) Ortirma daraja shakli ozaytirma daraja shaklidagi sifat oldidan eng,

g'oyat, juda, nihoyatda, bag'oyat so'zlarini keltirish orqali hosil qilinadi.
 C) Rang-tus bildiruvchi ayrim sifatlardan -(j)mtir, -(i)sh qo'shimchalari yordamida ozaytirma daraja shakli yasaladi.
 D) Belgining me'yordan biroz oz yoki ko'p ekanligini qiyosan ifodalaydigan sifati shakli qiyosiy daraja shakli sanaladi.

64. *Qirg'ovullar O'rta Osiyodagi eng chiroyli qushlardan biridir.* Ushbu gap haqida berilgan xato hukmni aniqlang.
 A) aniq nisbatdagi fe'l qatnashgan
 B) turdosh ot ikki o'rinda qatnashgan
 C) ortirma darajadagi sifat mavjud
 D) turdosh o'tdan yasalgan sifat mavjud

65. Qaysi qatorda ikki o'rinda ortirma darajadagi sifat qatnashgan?
 A) Ish juda nozik, g'oyatda qo'rqinchili edi.
 B) Qirg'ovullar O'rta Osiyodagi eng chiroyli qushlardan biridir.
 C) Bog' juda katta, bir-gektarcha keladi.
 D) Qor tip-tinik shudring tomchisiga aylandi.

66. Ortirma daraja shaklida qo'llangan yasama sifat qaysi qatorda mavjud?
 A) Eng olis yulduzgacha bo'lgan masofa 160 ming yorug'lik yiliga teng ekan.

B) Dunyoda eng bebaho, ammo benazir tarqatiladigan xazina bor. Bu ona mehri.
 C) Bog' juda katta, bir-gektarcha keladi.
 D) Hovli ham, uy ham bo'm-bo'sh, hamma yoq suv quygandek jimjit edi.

67. Qaysi qatorda tuzilishiga ko'ra sifatlarning ikki turi qatnashgan?
 A) Ish juda nozik, g'oyatda qo'rqinchili edi.
 B) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo'q.
 C) Qoramtir osmon asta-sekin yoritsha boshladi.
 D) Bo'yi mendan kattarog'-u, o'zi sap-sariq.

68. Belgining me'yordan biroz kam ekanligini ifodalagan qiyosiy daraja shakli qaysi qatorda qo'llangan?
 A) Uning nazarida bundan suyumliroq, bundan ham zavqliroq va shavqliroq ish yo'q edi.
 B) Bilmadim... Oqshommi go'zalroq, tongmi?! Bir-biridan go'zal, bir-biridan fusunkor.
 C) Tilimiz dag'alroq, lekin juda boy, rangli, oho! to'kilmagan ertak, doston va qo'shiq ko'p.
 D) Dunyoda do'stlikdan afzalroq, yoqimliroq narsa yo'q.

69. Sifatning qiyosiy darajasi ishtirok etmagan gapni aniqlang.
 A) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo'q.
 B) Insonning aqli mushtidan ko'ra kuchliroqdir.

C) Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi.
 D) Go'zallikdan ezigulik yaxshiroqdir.

70. Sifatning qaysi ma'no turida qo'shimcha yordamida ozaytirma daraja shakli yasash mumkin?
 A) rang-tus sifatlari
 B) makon-zamon sifatlari
 C) hajm-o'lchov sifatlari
 D) xususiyat sifatlari

71. Qo'shimcha yordamida hosil qilingan ozaytirma daraja shakli qaysi qatorda qatnashgan?
 A) U aravani Nuriddin minganini ko'rib xiyala yengil tortdi.
 B) Hay, biroz sekinroq yursalaring-chi?
 C) Birozgina aqlsiz, ammo ayrganingizdan chetga chiqmaydi.
 D) Qoramtir osmon asta-sekin yoritsha boshladi.

72. Qaysi qatorda ozaytirma daraja shaklidagi sifat qo'llangan?
 A) U aravani Nuriddin minganini ko'rib xiyala yengil tortdi.
 B) Hay, biroz sekinroq yursalaring-chi?
 C) Birozgina aqlsiz, ammo ayrganingizdan chetga chiqmaydi.
 D) Keyin sal hushimni yig'ib qarassam, oyoqlarim go'yo o'zidan-o'zi yurib ketyapti.

73. *U dudug, xiyalagina dudug bo'lishiga qaramay, sho'x xushchaqchoq, yaxshigina askiya ham qilar ekan.* Ushbu gapda sifatning qaysi daraja shakli(lar)i qatnashgan?

A) oddiy va ozaytirma daraja shakllari
 B) ortirma va oddiy daraja shakllari
 C) oddiy va qiyosiy daraja shakllari
 D) faqat oddiy daraja shakli

74. Qaysi qatorda hajm-o'lchov bildiruvchi sifat qatnashgan gap berilgan?
 A) Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan.
 B) Kuz fasli. Shamollari mayin, yoqimli esadi.
 C) Atrofdagi go'zal va ajoyib gullar o'sar edi.
 D) Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi.

75. Qaysi qatorda sifatning ikki ma'no turiga mansub birliklar qatnashgan?
 A) Atrofdagi go'zal va ajoyib gullar o'sar edi.
 B) Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak.
 C) Tinik, ko'm-ko'k osmonda ondasonda yengil bulutlar asta kezadi.
 D) Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi.

76. Qaysi qatorda xususiyat bildiruvchi sifat qatnashgan gap berilgan?
 A) Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.
 B) Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi.
 C) Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarini oq, pushti gullar bilan bezadi.

C) Bo'ladigan savdoning tezroq bo'lgani yaxshi.
 D) Go'zallikdan ezigulik yaxshiroqdir.

70. Sifatning qaysi ma'no turida qo'shimcha yordamida ozaytirma daraja shakli yasash mumkin?
 A) rang-tus sifatlari
 B) makon-zamon sifatlari
 C) hajm-o'lchov sifatlari
 D) xususiyat sifatlari

71. Qo'shimcha yordamida hosil qilingan ozaytirma daraja shakli qaysi qatorda qatnashgan?
 A) U aravani Nuriddin minganini ko'rib xiyala yengil tortdi.
 B) Hay, biroz sekinroq yursalaring-chi?
 C) Birozgina aqlsiz, ammo ayrganingizdan chetga chiqmaydi.
 D) Qoramtir osmon asta-sekin yoritsha boshladi.

72. Qaysi qatorda ozaytirma daraja shaklidagi sifat qo'llangan?
 A) U aravani Nuriddin minganini ko'rib xiyala yengil tortdi.
 B) Hay, biroz sekinroq yursalaring-chi?
 C) Birozgina aqlsiz, ammo ayrganingizdan chetga chiqmaydi.
 D) Keyin sal hushimni yig'ib qarassam, oyoqlarim go'yo o'zidan-o'zi yurib ketyapti.

73. *U dudug, xiyalagina dudug bo'lishiga qaramay, sho'x xushchaqchoq, yaxshigina askiya ham qilar ekan.* Ushbu gapda sifatning qaysi daraja shakli(lar)i qatnashgan?

A) oddiy va ozaytirma daraja shakllari
 B) ortirma va oddiy daraja shakllari
 C) oddiy va qiyosiy daraja shakllari
 D) faqat oddiy daraja shakli

74. Qaysi qatorda hajm-o'lchov bildiruvchi sifat qatnashgan gap berilgan?
 A) Cho'l-u biyobon. Keng, ulug'vor sahrolar ufqdan ufqqa tutashgan.
 B) Kuz fasli. Shamollari mayin, yoqimli esadi.
 C) Atrofdagi go'zal va ajoyib gullar o'sar edi.
 D) Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi.

75. Qaysi qatorda sifatning ikki ma'no turiga mansub birliklar qatnashgan?
 A) Atrofdagi go'zal va ajoyib gullar o'sar edi.
 B) Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak.
 C) Tinik, ko'm-ko'k osmonda ondasonda yengil bulutlar asta kezadi.
 D) Bulutlar rang-barang, ranglar tinmay o'zgaradi.

76. Qaysi qatorda xususiyat bildiruvchi sifat qatnashgan gap berilgan?
 A) Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.
 B) Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi.
 C) Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarini oq, pushti gullar bilan bezadi.

D) Usta qarigina, burni cho'tirroq, juda so'zamol, mahmadona kishi.

77. Qaysi qatorda hid bildiruvchi sifat qatnashgan gap berilgan?

- A) Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.
 B) Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi.
 C) Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarni oq, pushti gullar bilan bezadi.
 D) Yo'llarimda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon.

78. Makon-zamon belgisini bildirgan sifat qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Usta qarigina, burni cho'tirroq, juda so'zamol, mahmadona kishi.
 B) Yo'llarimda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon.
 C) Dastlabki kunlar yo'l unchalik mashaqqatli bo'lmadi.
 D) Hozir ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

79. *Yozgi harakat - kuzgi barakat* Ushbu gapda sifatning qaysi ma'no turiga oid birlik qatnashgan?

- A) rang-tus B) makon-zamon
 C) xususiyat D) hajm-o'lchov

80. *Usta qarigina, burni cho'tirroq, juda so'zamol, mahmadona kishi.* Ushbu gapda nechta sifat qatnashgan?

- A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 1 ta

81. Qaysi qatorda hid bildiruvchi sifat qatnashgan?

- A) Chumchuqlar ham nima shirin, nima achchiqligini bilsa kerak.
 B) Mamat olachipor, yashil tepalikdan pastlikka tomon yayov kelmoqda.
 C) Atirgunning bo'yiga mast bo'lib, tikan zahri ni sezmay qolibman.
 D) Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.

82. Yasama sifat qatnashgan qatorni aniqlang.

- A) Bir g'uncha edingiz yel ham tegmagan, ifor taralardi sizdan muattar.
 B) Ko'z tashlab ko'rilsa, ko'm-ko'k suv ko'k charxiga o'xshaydi.
 C) Bahor keldi. Maktab sahnidagi o'riklarni oq, pushti gullar bilan bezadi.
 D) Yo'llarimda zangori ko'llar, oyna kabi tiniq va bejon.

83. *Sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qoladi. Bunday vaqtda uning ma'nosi ham sifatga yuklanadi.* Ushbu qoidaga mos keladigan javobni aniqlang.

- A) Dunyoda johillikdan dahshatliroq narsa yo'q.
 B) Yoshroqlari olovga yaqinroq o'tirishar edi.
 C) Dastlabki kunlar yo'l unchalik mashaqqatli bo'lmadi.
 D) Hozir ular uchun eng bexatar yo'l Toshkent edi.

84. Qaysi qatorda o'tlashgan juft sifat qatnashgan?

- A) Shoxlar qurib, ularda yakkam-dukkam yaproqlargina qoladi.

B) Menga o'xshash esil-hushli yigitga soriqib o'tirgan ekan.

- C) G'ir-g'ir shaboda turli-tuman g'iyohlarning hidlarini olib keladi.
 D) Yomon-u yaxshini xulqidan anglag'li, Yomonni yomon, yaxshini yaxshi bil.

85. *Yomon bilan yo'lqosh bo'lsang, yomonidan burun o'lsang.*

- Yaxshi bilan sirdosh bo'lsang, yaxshilik bilan unasan.* Ushbu maqolda nechta sifat o'tlashib kelgan?
 A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 1 ta

86. *Oftob balandroq ko'tarildi-yu, bulutlar tarqab, tog'larida ham havo ochilib ketdi.*

- Ushbu gapda qo'llangan sifat haqida to'g'ri hukmni aniqlang.
 A) o'tning belgisini bildirib kelgan
 B) sodda yasama sifat hisoblanadi
 C) hajm-o'lchov sifati sanaladi
 D) ozaytirma daraja shaklida

87. Qaysi qatorda bir so'z tarkibida belgining me'yordan kamligini ifodalaydigan ikki xil qo'shimcha mavjud?

- A) Oyko'l qishlog'ida na ko'l bor, na kattaroq artq.
 B) Oqlangan maktab binosi oydimda ko'kishroq ko'rinadi.
 C) Cho'qqilar avvalgidan ham oqroq va silliqroq ko'rinadi.

D) Kuy ta'sirida tog'lar avvalgidan azizroq va ulug'vorroq ko'rinib ketdi.

88. *Hunarli o'lmas, hunarsiz kun ko'rmas.*

- Ushbu gap haqida noto'g'ri hukmni aniqlang.
 A) yasama sifat ishtirok etgan
 B) sodda tub sifat qatnashgan
 C) ikki o'rinda sifat qatnashgan
 D) o'tlashgan sifat ishtirok etgan

89. Sifat turkumiga mansub birlik qatnashmagan qatorni aniqlang.

- A) Ko'k yuzida pag'a bulut — oq bulut,
 B) Oq bulutdan sut yog'armi yoki qut?
 C) Pag'a bulut — yaxshi ko'klam elchisi,
 D) Havolarda yomg'ir isi, sel isi...

90. O'tga xos lug'aviy shaklini olgan sifat qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Baxtning qo'lida oy bo'lsa, olamni yoritmas.
 B) Kattaga katta bo'l, kichikka-kichik.
 C) Yoshroqlari olovga yaqinroq o'tirishar edi
 D) Bilimli biladi bilim hurmatini.

Matnli o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

IQLIM O'ZGARISHINING OQIBATLARI

Global iqlim o'zgarishining oqibatlari ko'psonli ixtiloflar va ommaviy ko'chishlarga ham sabab bo'ladi. Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatini mos kelishini tasdiqladi.

Amaliy-tizimli tahil xalqaro instituti olimlari o'tkazgan tadqiqot ilk bor iqlim o'zgarishi va ortib borayotgan ixtiloflar, shuningdek, tabiiy oqibatlar tufayli yuzaga kelayotgan ommaviy ko'chishlar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib berdi.

So'nggi vaqtlarga qadar olimlar iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmay kelayotgan edi. Gap shundaki, bir omil boshqasining yuzaga kelishiga sabab bo'layotganini isbotlash uchun o'ta qat'iy va jiddiy ilmiy dalillar talab etiladi.

Mualliflar buning uchun bir qancha tadqiqotlarni umumlashtirib, yagona manzarani hosil qilishga intilgan. Boshlanishiga ular 2006-2015-yillar davomida 157 davlatda qochoqlar boshpana so'rab bergan arizalar sonini o'rganib chiqdi. So'ng qochoqlarning asl vatamida ro'y bergan iqlim o'zgarishining dinamik jadvali tuzildi. Iqlim o'zgarishining asosiy ko'rsatkichi sifatida yog'ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi olindi.

Qurull ziddiyatlarining soni va ko'lami esa Shvetsiyada joylashgan Uppsala universiteti 1946-yildan beri yuritib keladigan qurolli inqirozlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasiga tayanib o'rganildi. Tadqiqotchilar ishlab chiqqan ilmiy modelda qochoqlarning asl vatani va ular kelgan mamlakat orasidagi masofa, harikkala davlatdagi aholi soni, ulardagi siyosiy vaziyat, etnik va diniy guruhlar hamda boshqa omillar hisobga olindi.

Pirovardida tadqiqot natijalari 2006-2015-yillar davomida iqlim o'zgarishi migratsiya darajasi va yo'nalishiga katta ta'sir etganini ko'rsatdi. Kuchli qurg'oqchiliklar esa mavjud qurolli ziddiyatlarni yanada kuchaytirgani, qurbonlar sonining keskin ortishiga sabab bo'lgani aniqlandi.

... Isib borayotgan dunyoni halokatga yuz tutishdan asrash uchun global isish darajasini 2 gradusdan pastda ushlab turish g'oyasini ilk bor 1975-yili AQSHlik iqtisodchi Uilyam Nordhauz ilgari surgan edi. Biroq 1990-yillarga qadar biror davlat atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini cheklash masalasiga jiddiy e'tibor qaratmadi. Nihoyat 1990-yillar o'rtasida Yevropa davlatlari ikki darajali cheklov bo'yicha qo'shma bitimlarni imzoladi. 2010-yilga kelib esa iqlim ishi muammosiga qarshi kurash BMT siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

... "Global isishni 1,5 gradusdan pastda ushlab turish juda mushkul masala", - deydi mutaxassislar. Agar hozir insoniyat qo'lida mavjud barcha imkoniyatlar ishga solinganda ham, bu maqsadga 2040-yilga boribgina erishish mumkinligi bashorat qilinadi. Iqlim ishini 1,5 gradusdan pastda saqlash

ko'ngi kun uchun erishib bo'lmay maqsaddek ko'rinayotgan bo'lsa-da, ko'plab davlatlar iqlim o'zgarishi muammosiga endilikda jiddiy qaramoqda.

... Ayrim ekologlar esa global isishga qarshi yangi texnologiyalar yoki milliardlab daraxt ko'chati o'tqazish bilan kurashish shart emasligini aytadiladi. Agar biz hozir atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini ko'kin qisqartirsak va ozliq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun tabiiy muhitni buzilgan yerlarni qayta tiklasak yoki go'sht iste'mol qilishni kamaytirsak, shuning o'zi bir yarim gradus maqsadga erishishda yetarli bo'larkan. Shundan so'ng havo tozaradi, semizlik darajasi ham pasayadi. Tabiiy muhiti yaxshiroq allig'an, sanoatlashirilgan dunyodan ko'ra shuni yaxshiroq.

Abdullavli Soyibnazarov, siyosiy sharhlovchi

91. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi so'zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini aniqlang.

1. Ixtilof	a) aralashish, qo'shish, tartibsizlik b) qarama-qarshilik, ziddiyat, kelishmovchilik a) aholining bir mamlakattan boshqa bir mamlakatga ko'chishi b) xorijiy fuqarolarning ma'lum bir davlatga yashash uchun ko'chib kelishi
2. Migratsiya	a) muayyan harakat yoki voqea-hodisaning holati, o'sishi, o'zgarishi, rivojlanishi b) jismlar mexanik harakatining ularga ta'sir qiladigan kuchlar bilan bog'liqligini o'rganuvchi bo'lim
3. Dinamika	a) usti yopiq joyda hosil bo'ladigan gazlarning ta'siri b) suv bug'lari, karbonat angidrid, azot va metan gazlarining atmosferaga ta'siridan kelib chiquvchi muammo
4. Issiqxona gazlari	a) Yerni o'rab turgan gazsimon qobiq b) hosim o'lchov birligi
5. Atmosfera	

- A) 1 - a, 2 - a, 3 - a, 4 - a, 5 - a
- B) 1 - b, 2 - a, 3 - a, 4 - b, 5 - a
- C) 1 - b, 2 - a, 3 - a, 4 - a, 5 - b
- D) 1 - a, 2 - b, 3 - a, 4 - b, 5 - a

92. To'g'ri javobni toping.

Qaysi vaqtdan e'tiboran BMT global isishga jiddiy e'tibor qaratga boshladi?

- A) 1975-yildan
- B) 1990-yildan

C) 2010-yildan D) 2015-yildan

93. To'g'ri javobni toping.

- Iqtisodchi Uilyam Nordhauz tomonidan ilgari surilgan g'oya qaydi?
 A) Go'sht iste'mol qilishni kamaytirish, shuning o'zida bir yarim gradus maqsadga erishishda yetarli bo'ladi.
 B) Migratsiya darajasini pasaytirish uchun global isish ta'sirini kamaytirish zarur.
 C) Iqlim isishi muammosiga qarshi kurash BMT siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylinishi kerak.
 D) Dunyoni halokatga yuz tutishdan asrash uchun global isish darajasini 2 gradusdan pastda ushlab turish kerak.

94. To'g'ri javobni toping.

- Iqlim isishini 1,5 gradusdan pastda saqlash uchun quyidagi qaysi chora(lar) muhim?
 1) *atmosfera*ga chiqarilayotgan issiqxona gazlarini keskin qisqartirish
 2) oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun tabiiy muhitni buzilgan yerlarni qayta tiklash
 3) go'sht iste'mol qilishni kamaytirish
 A) 1, 2, 3 B) 2, 3 C) 1, 3 D) 1, 2

95. To'g'ri javobni toping.

- Matndan olingan qaysi gap tarkibida qo'llangan juft so'z turkumi jihatdan farqli?
 A) Yaqinda ilm-fan bu nazariyaning haqiqatga mos kelishini tasdiqladi.
 B) Olimlar iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratmay kelayotgan edi.
 C) Oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish uchun tabiiy muhit buzilgan yerlarni qayta tiklasak ...yetarli bo'larкан.
 D) Amaliy-tizimli ta'lim xalqaro instituti olimlari o'tkazgan tadqiqot ilk bor iqlim o'zgarishi va ortib borayotgan ixtiloflar o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatib berdi

96. Hukmning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

- Iqlim o'zgarishlari davlatlararo ixtiloflar va ommaviy ko'chishlarga ham sabab bo'lgan.*
 A) to'g'ri B) noto'g'ri

97. To'g'ri javobni toping.

- Iqlim o'zgarishi va migratsiya o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratgan olimlar dastlab qaysi ishni amalga oshirishgan?
 A) Qochoqlarning asl vatanida ro'y bergan iqlim o'zgarishining dinamik jadvalni tuzildi.
 B) Shvetsiyada joylashgan Uppsala universiteti ma'lumotlar bazasiga tayanib qurolli ziddiyatlarining soni va ko'lami o'rganildi.
 C) 157 davlatda qochoqlar boshpana so'rab bergan arizalar soni o'rganib chiqildi.
 D) Yog'ingarchilik miqdorining tushib ketishi va parlanish hajmi o'rganildi.

98. To'g'ri javobni toping.

- Iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirishning eng muhim omili nimada?
 A) issiqxona gazlarini cheklash
 B) milliardlab daraxt ko'chati o'tqazish
 C) qurolli ziddiyatlarining oldini olish
 D) migrantlar uchun yaxshi sharoit yaratish

99. To'g'ri javobni toping.

- Matning oxirgi abzasida ajratib ko'rsatilgan fe'larning barchasi uchun umumiy bo'lgan xususiyatni aniqlang.
 A) Barchasi majhul nisbatdagi fe'llar sanaladi.
 B) Barchasi o'lgan zamon ma'nosini ifodalagan.
 C) Barchasi xabar mayli ma'nosini ifodalagan.
 D) Barchasi yasama fe'llar sanaladi.

100. To'g'ri javobni toping.

- Quyidagi jadvalda berilgan birkmalar tarkibidagi sifatlarni yasama va tub sifatlarga ajratung. To'g'ri javobni + ishorasi yordamida belgilang.

No	Birkmalar	Yasama sifat	Tub sifat
1)	tabiiy oqibatlar		
2)	ommaviy ko'chishlar		
3)	jiddiy e'tibor qaratmay		
4)	ilmiy dalillar		
5)	qurolli inqirozlar		
6)	siyosiy vaziyat		

7)	diniy guruhlar	
8)	asosiy ko'rsatkichi	

Quyidagi ma'lumotlarga diqqatlingizni qaratib va berilgan topshiriqlarni bajaring.

- Yerdagi ... havo harorati 1983-yil 21-iyulda Antarktida ning "Vostok" stansiyasida qayd etilgan, o'shanda maxsus termometr $-89,2^{\circ}\text{C}$ ni ko'rsatgan. Bu meteorologik kuzatuvlar tarixidagi eng past haroratdir.
- ... havo harorati 1922-yilda Liviyada qayd etilgan. Unga ko'ra, Yerdagi eng yuqori harorat $+57,8^{\circ}\text{C}$ deb belgilangan.
- Inson uchun ... harorat $+20...+25$ daraja.

4. Yer yuzidagi insonlar o'rtacha havo harorati -50 va $+50$ daraja oralig'idagi sharoitda yashay olishi mumkin, lekin ayrim hududdagi insonlar -50 darajadan ... va $+50$ darajadan ... ko'rsatkichlarga ega sharoitda ham jon saqlay oladilar.

101. To'g'ri javobni toping.

Nuqtalar o'rniga quyidagi qaysi so'zlar qo'yiladi?

- Qo'yish uchun so'zlar: **eng qulay, eng issiq, pastroq, eng past, yuqoriroq.**
- 1 - eng yuqori; 2 - eng qulay; 3 - eng past; 4 - yuqoriroq / pastroq
 - 1 - eng past; 2 - eng yuqori; 3 - eng qulay; 4 - yuqoriroq / pastroq
 - 1 - eng past; 2 - eng yuqori; 3 - eng qulay; 4 - pastroq / yuqoriroq
 - 1 - eng past; 2 - eng yuqori; 3 - eng qulay; 4 - pastroq / yuqoriroq

102. To'g'ri javobni toping.

Bo'sh o'rinlar kerakli so'zlar bilan to'ldirilgach, qaysi bandeda sifatning ham ortirma darajasi, ham oddiy darajasi mavjud bo'ladi?

- 1-bandeda
- 2-bandeda
- 3-bandeda
- 4-bandeda

103. To'g'ri javobni toping.

Berilgan sifatning nechitasi to'rt xil daraja shaklida ham qo'llanishi mumkin? **issiq, chuqur, tonggi, toza, yorug', samoviy, katta, past, forzandli, yashil, baland, tekis.**

- A) barchasi
- B) 10 ta
- C) 9 ta
- D) 11 ta

Matni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Global iqlim o'zgarishining O'zbekiston iqlimiga ta'siri:

- harorat ko'tarilishi natijasida quyning bug'lanish koeffitsiyenti / koeffitsiyenti oshishi hududlarda suv resurslari kamayishiga, tanqisligiga olib kelmoqda;
- ekologik tanglik oqibatida yil davomida umuman yog'ingarchilik / yog'ingarchilik bo'lmagan kunlar soni ko'paymoqda;
- tuproqning namligi kamayishi hisobiga takroriy qurg'oqchilik / qurg'oqchilik xavfi ortmoqda va hosildorlik ko'rsatkichlari tushib ketmoqda;
- Orol dengiziga **quyuladigan / quyuladigan** suv hajmining kamayishi daryo deltasining cho'lga aylanishi va qurigan dengiz tubida yangi cho'l maydonlari paydo bo'lishini tezlashtiryapti;
- atmasferada / atmasferada** changlanish miqdori ortmoqda;
- haddan ortiq isish va sovish labi **anomal / anomal** hodisalar qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mevalarning nobud bo'lishiga olib kelmoqda.

kun.uz

104. To'g'ri javobni toping.

Bir necha variantda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning imloviy jihatdan to'g'ri yozilganini aniqlang.

- koeffitsiyenti, yog'ingarchilik, qurg'oqchilik, quyuladigan, atmasferada, anomal
- koeffitsiyenti, yog'ingarchilik, qurg'oqchilik, quyuladigan, atmasferada, anomal
- koeffitsiyenti, yog'ingarchilik, qurg'og'chilik, quyuladigan, atmasferada, anomal
- koeffitsiyenti, yog'ingarchilik, qurg'og'chilik, quyuladigan, atmasferada, anomal

105. To'g'ri javobni toping.

Matndagi qaysi gaplar tarkibida sodda yasama fe'llar qatnashgan?

- A) barchasida
- B) 1, 2, 3, 5, 6
- C) 1, 2, 3, 4, 5
- D) 1, 2, 4, 5, 6

Matni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

Mutavassislar (qilm o'zgarishining asosiy omili issiqxona effekti ekanini ta'kidlashadi. Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi "issiqlxona effekti" deyiladi. Ya'ni quyoshdan kelgan nurni Yer ham atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga zavodlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yorida ortiq qiziydiki iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi.


Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida farq kam bo'ladi. Ya'ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta'sirida qoladi. Ushbu sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.

106. To'g'ri javobni toping.

Ma'lumotlarni quyidagi jadval asosida qismlarga ajratang va "issiqlxona effekti" qanday oqibata olib kelishini aniqlang.

Issiqxona effekti	?
Hodisaning ta'rif	?
Hodisaning sodir bo'lish jarayoni	?
Natija	?
Oqibat	?

- A) ...Quyoshdan kelgan nurni Yer ham atmosfera orqali koinotga qaytaradi. Ushbu nurlarning bir qismi koinotga chiqib ketish o'rniga zavodlardan chiqarilgan turli gazlarga yutiladi. Uning koinotga qaytib chiqib ketmasligi oqibatida Yer yuzi me'yorida ortiq qiziydi va iqlimga ta'sir ko'rsatadigan issiqxona qatlami hosil bo'ladi.
- B) Natijada sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida farq kam bo'ladi. Ya'ni odamlar va tabiat tunda ham kunduzgi kabi issiq va dim havo ta'sirida qoladi.
- C) Ushbu sutkalik issiqlik esa keskin isish hodisasini keltirib chiqaradi.
- D) Quyoshdan kelgan issiqlikning Yer sathida jamlanib, dimlanib qolishi "issiqlxona effekti" deyiladi.



107. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi javobda matn va surat orasidagi aloqa noto'g'ri tatbiq etilgan?

- A) Iqlimning haddan ortiq isib ketishi tabiatga juda jiddiy zarar keltiradi: o'simlik va hayvonot dunyosi nobud bo'lishi mumkin.
- B) Issiqlikning keskin ko'tarilishi natijasida muzliklarning erishi va buning oqibatida suv sathining ko'tarilishi kuzatiladi, oqibatda suv toshqinlari odamzotga ko'plab ziyon yetkazishi mumkin.
- C) Tabiatdagi muvozanatning buzilishi jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni ham yuzaga keltiradi, bu esa insonning tabiatga nechog'lik bog'liq ekanini ko'rsatadi.
- D) Zavod va fabrikalardan chiqayotgan zaharli tutunlar to'g'ridan to'g'ri Quyoshga yetib borib, u yerda ham muvozanat buzilishiga sabab bo'lishi mumkin.

SON SO'Z TURKUMI

Turlari. Tuzilishi. Hisob so'zlar

1. Qaysi qatorda hayvonlar miqdorini bildiradigan hisob so'z berilgan?
A) nafar B) tup C) bosh D) yashar
2. Sonlarga xos bo'lmagan xususiyatni aniqlang.
A) narsalarning tartibini bildiradi
B) narsalarning son-sanog'ini bildiradi
C) so'z yasallish xususiyatiga ega
D) lug'aviy shakl yasovchilarga ega
3. Qaysi qatorda chama son ifodalangan gap berilmagan?
A) Bekatda o'ntacha odam avtobus kutib turishardi
B) Bolalar davrini ikki aylandi, qo'1 berib ko'rishishdi.
C) Barvasta, yoshi elliklarga borib qolgan bo'lsa ham...
D) Mashrab o'n besh-yigirma bolaga javobgar.
4. Jamllovchi son qo'shimchalari unli bilan tugagan sonlarga qo'shilganda, qanday tovush o'zgarishi ro'y beradi?
A) son oxiridagi unli tushib qoladi
B) son oxiridagi unli almashadi
C) son oxirida bir unli orttiriladi
D) tovush o'zgarishi ro'y bermaydi
5. Qaysi so'zda tovush tushishi ro'y bermagan?
A) ikkovi B) yettalasi
C) uchovi D) oltovlon
6. Sanoq son bilan sanaladigan narsalarni ifodalovchi so'z o'rtasida qo'llanilib, bu narsaning o'ichovini bildiradigan so'zlar qanday ataladi?
A) sanoq sonlar B) tartib sonlar
C) miqdor so'zlar D) hisob so'zlar
7. Qaysi o'rinda hisob so'z noo'rin qo'llangan?
A) to'rt kilogramm un
B) uch tonna paxta
C) besh kilometr yo'l
D) o'n nafar hayvon
8. Hisob so'z bilan qo'llangan son qaysi qatorda mavjud?
A) Ikki soatlar eshakda yurib, tog'dan-tog'ga o'tib andak toliqqan edim.
B) Yetimlik nimadir, bizlardan so'ra, O'ninchi yillarning sargardonligi...
C) Besh-oltita tinish belgi kelib bugun, o'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in.
D) Globusda bo'lgan har kichik nuqta, Millionlab qondoshga vatan, albatta.
9. Uzunlik o'ichovini bildirgan hisob so'z qaysi qatorda qo'llangan?
A) o'n metr atlas
B) yuz gramm shaker
C) o'n litr benzin
D) besh chelak olma
10. Kecha tog'ang berib ketgan zog oradan ikkitasini olib qo'lganman, birgalashib choy icharniz.

Ushbu gapda, sonning qaysi ma'no turi qatnashgan?
A) sanoq son B) taqsim son
C) jamllovchi son D) dona son

11. Qaysi qatorda o'simliklar miqdorini ifodalash uchun qo'llanadigan hisob so'z qo'llangan?
A) Uning oldidagi besh-oltita nok va behi daraxtlari hozir oppoq bo'lib gullab turibdi.
B) Oldimizda mevali va mevasiz daraxtlari ko'p bo'lgan o'rmon.
C) Archa ham serob.
D) Shoikrom o'n kuncha ilgari ishga ketayotib birrov kirib ukasidan hol so'ragan edi.
E) Derazamning oldida bir tup O'rik oppoq bo'lib gulladi.
12. Chama son qatnashmagan gapni aniqlang.
A) Mashrab bilan Akmal esa o'n besh-yigirma bolaga javobgar.
B) U o'y surib ikki soatning ikki daqiqadek tez o'tib ketganini sezmay qolibdi.
C) Rayroq dastasida, stanokda, g'ishtda ming-minglab qo'llar tartini sezaman.
D) Bekatda o'ntacha odam avtobus kutib turishardi.
13. Qaysi qatorda son tarkibida yuz bergan fonetik o'zgarish mavjud?
A) Sizlar mana shu to'qqizta xivichni birga qo'shib sindirib ko'ringlar-chi!
B) U yig'lab, to'rt tomonga yuguribdi.
C) Yuragi shuvillab, cheklanib o'tarkan, uch-to'rt yashar qizchaga ko'zi tushdi.
14. Narsalarning miqdorini taqsimlab ko'rsatadigan qo'shma son qaysi qatorda qo'llangan?
A) Azim har yelkasiga to'rttadan odam sig'adigan yigit bo'libdi.
B) U bu yilgi bahorda har yuz ona qo'ydan bir yuz yigirma bittadan qorako'l qo'zisi oldi.
C) Laylak har yili uchtdan bola ochar ekan.
D) Har birining oldiga bir siqimdan mayz, ikkيتدan non, bir choynakdan choy qo'yib chiqdim.
15. Son haqida berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.
A) Tartib son shakllari yasalanda, fonetik o'zgarish yuz beradi.
B) Chama ma'nosi sonlarni juftlash yo'li bilan ham ifodalanadi.
C) Tartib sonlar rim raqamlari bilan ifodalanganda, chiziqcha qo'yiladi
D) Butun miqdorni bildiruvchi qism ko'pincha jo'nalish kelishigida keladi.
16. Rejaning uchdan ikki qismi bajarildi.
Ushbu gapda sonning qaysi ma'no turi qatnashgan?
A) taqsim son B) tartib son
C) kasr son D) chama son
17. chorak, o'ntadan, yarim, uchdan ikki, yettinchi, nimchorak, beshdan bir
Ushbu birliklarning nechitasi kasr sonlarga mansub?
A) barchasi B) 5 tasi

- C) 3 tasi D) 2 tasi
18. Quyidagilardan hisob so'z sifatida qo'llana oladigan birliklarni aniqlang.
 1) *etak* 2) *qadam* 3) *tomchi* 4) *hovuch* 5) *hafta* 6) *metr* 7) *daqiq*
 A) barchasi B) 1, 2, 3, 4, 5
 C) 2, 4, 5, 6, 7 D) 1, 3, 4, 6

19. Qaysi qatorda ham kasr son, ham tartib son qatnashgan?
 A) Birinchi kuni gazlamaning to'rtidan bir qismi, ikkinchi kuni qolgan gazlamaning beshdan bir qismi sotildi.
 B) Shoikrom uni har kuni maktabdan o'zi olib ketar, ikkinchi smenada dars tugaguncha poylab turar edi.
 C) Cho'ponlar har kuni tunda bittadan qo'y g'oyib bo'layotganini sezib qolishdi.
 D) Navro'z juda qadimiy hayramlardan, ya'ni salkam 3000 yillik tarixga ega.

20. U darrov hushini yig'ib oldi. Qo'lini yuvdi-da, bir... suv ichdi. Ushbu gapda ko'p nuqta o'rnida qaysi hisob so'zni qo'llash mumkin?
 A) etak B) lahza
 C) tomchi D) hovuch

21. Narsalarning ketma-ketlik tartibini bildiradigan son qo'llanmagan qatorni aniqlang.
 A) Ikkinchi arava to'ng'arilib, uchinchi aravani ancha nariga surib borib, g'ildiraklarining yarmigacha qumga ko'mib qo'yibdi.

- B) Birinchi arava g'ildiraklariga bog'langan uch ot bor-u, qolgan otlardan darak yo'q.
 C) Yuz qadamcha narida qumga botib yotgan uchinchi aravaning o'ng tomonida saman yo'rg'a orqa tomonidan qumga botib, chiqa olmay unardi.
 D) Aravaga qo'shib bo'lmaydigan begona ikki otdan tamoman darak yo'q.

22. Qaysi qatorda kasr son qo'llanmagan?
 A) Chorak soat o'tmasdan hukmnomani eshittirdilar.
 B) Eshakning ustiga ikkitaidan bo'lib mindik.
 C) U yarim metr joyga o'tilib borib o'tirib qoldi.
 D) Musayev sontiga qaradi: o'n bir yarim.

23. Qaysi qatorda miqdor sonlarning barcha ma'no turlariga oid birliklar berilgan?
 A) yuzlab, yigirma besh, beshdan ikki, o'ttiztacha
 B) to'qqiztadan, o'n sakkiz, sakkiz, o'nadan, yettita
 C) to'qqizinchi, minglab, minglarcha, beshovi, yarim
 D) mingtacha, bitta, ellik, beshtadan, uchdan bir, uchalasi

24. Sonning ma'no turini hosil qiluvchi qaysi qo'shimcha ravish yasovchi qo'shimcha bilan shakldosh sanaladi?
 A) -tadan B) -tacha
 C) -larcha D) -ovlon

25. Sonning qaysi ma'no turini hosil qiluvchi shakillar orasida ravish yasovchilar bilan shakldosh bo'lgan qo'shimchalar mavjud?
 A) sanoq son B) taqsim son
 C) jamlovchi son D) chama son

26. Sonlar juft qo'llanganda, asosan, qaysi ma'no turini ifodalaydi?
 A) sanoq son B) chama son
 C) jamlovchi son D) dona son

27. Qaysi o'lchov so'z hayvonlarning miqdorini ifodalashga xoslangan?
 A) nafar B) bosh C) litr D) tup

28. Qaysi qatorda uzunlikni o'lchash uchun qo'llanadigan o'lchov so'zlar berilgan?
 A) paqir (chelak), shisha, bochka

- B) tutam, quchoq, bog'
 C) qarich, qadam, yog'och
 D) nafar, bosh, litr, tup

29. Chama sonlar qatorini toping.
 A) ikkidan bir, bittadan, mingta
 B) o'ninchi, ikkalasi, yigirma
 C) o'ntacha, minglab, minglarcha
 D) qirq sakkiz, to'rtta, ikkinchi

30. Sonlarning ma'no turlarini hosil qiladigan shakl yasovchi qo'shimchalar to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?
 A) -iz, -cha, -lar, -ish, -tir, -uv, -gan
 B) -imtir, -in, -il, -cha, -larcha, -choq
 C) -lab, -tadan, -ta, -(U)chi, -ov, -ala
 D) -si, -dan, -day, -gacha, -lar, -dagi

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

EKSPORT YOKI IMPORT?

1. Kunda-kunora televizor yoki radioda, ba'zan kattalarning suhbatida "eksport" va "import" degan so'zlar qulog'ingizga chalinsa kerak. Aslida, iqtisod sohasida muhim bo'lgan bu so'zlarni tushunish qiyin emas.
2. Agar biron davlat o'zida ishlab chiqarilgan mahsulotni boshqa davlatga sotasa, bu *eksport* deb ataladi. *Import* esa, aksincha, biron mahsulotni boshqa davlatdan sotib olishdir.
3. Masalan, O'zbekiston oltin va boshqa rangli metallar, tabiiy gaz, paxta hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ko'p eksport qiladi. Ya'ni boshqa davlatlarga sotadi. Shu bilan birga, bizda import mahsulotlari ham juda ko'p. Biz samolyot, turli dastgohlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat va doridarmonning asosiy qismini haligacha boshqa davlatlardan sotib olamiz, ya'ni import qilamiz.

4.

Odatda rivojlangan davlatlar mahsulotlarini asosan eksport qiladi. Boshqa davlatlar esa bunday mahsulotlarni ishlab chiqara olmaganini uchun ularni sotib olishga majbur. Jahon iqtisodiyoti ana shunday ishlaydi. E'tibor qilsangiz, biz asosan xomashyoni ko'p eksport qilamiz. Tayyor mahsulotni esa ko'proq import qilamiz. Xo'sh, bu nimadan darak beradi? Alsuski, bu bizda xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot yaratadigan zavod va fabrikalarning kam ekanini bildiradi. Xomashyoni qayta ishlab, tayyor mahsulot sifatida sotayotgan xorijliklar esa yaxshigina daromad oladi.

5. Agar import mahsulotlarini o'zimiz ishlab chiqarganimizda, iqtisodimiz yanada rivojlanar edi. Sababi chet davlatdan biror narsa sotib olganimizda O'zbekistondagi pullar o'sha davlatga chiqib ketadi-da. Demak, biz bor e'tiborimizni eksportboop tovarlar ishlab chiqarishga qaratishimiz kerak. Qaysi davlatning eksport mahsulotlari ko'p bo'lsa, shu davlatning iqtisodi baquvvat bo'ladi. Uning aholisi ham boy yashaydi.

6. Xo'sh, endi o'yab ko'ring, kelajakda tadbirkor bo'lsangiz, eksport bilan shug'ullanasizmi yoki import bilan?

"Tajji akademik" jurnalidan.

31. To'g'ri javobni toping.

Matnning qismlari alohida-alohida nomlansa, 4-qismi qanday umumiy nom bilan atalishi mumkin?

- A) Ma'lumotni misollar bilan tushuntirish
- B) Xulosa va yechim
- C) Muhim ma'lumot
- D) Muammo va tahlil


32. To'g'ri javobni toping.

Matnning xulosa qismida uqtirilgan fikrni toping.

- A) Keng miqyosda eksportboop tovarlar ishlab chiqaradigan mamlakatlarning aholisi ham boy-hadavlat yashaydi.
- B) Mamlakatimizning eksport salohiyatini yuqori darajaga ko'tarish uchun, asosan, tayyor mahsulotlarni eksport qilishimiz muhim.
- C) O'zbekiston rangli metallar va tabiiy gazga boy davlat sanaladi, shu sababli bu mahsulotlar ko'plab eksport qilinadi.
- D) Odatda ko'pgina davlatlar qaysidir zaruriy mahsulotlarni ishlab chiqara olmaganini uchun ularni sotib olishga majbur bo'ladi.

Ushbu diagramma asosida quyidagi test topshiriqlarni bajarung.

O'zbekitonda avtomobil oldi-sotdisi bo'yicha shartnomalar grafigi (2022)



33. To'g'ri javobni toping.

Ushbu diagramma asosida shakllantirilgan qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Ikkilamchi bozordan xarid qilingan avtomobillar soni birlamchi bozordan xarid qilingan avtomobillar soniga nisbatan tegishli oylarning barchasida ham yuqori bo'lgan.
- B) 7 oylik davr davomida avtomobil oldi-sotdisi bo'yicha eng quyi ko'rsatkich iyul oyiga to'g'ri kelgan.
- C) Aprel oyida birlamchi bozorda ham, ikkilamchi bozorda ham boshqa oydagilarga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich kuzatilgan.
- D) Birlamchi bozordan avtomobil xarid qilishning eng quyi ko'rsatkichi yilning avvalida, ya'ni Yanvar oyida kuzatilgan.

34. To'g'ri javobni toping.

Tegishli oylar va shu oyda xarid qilingan avtomashinalar sonini moslashtiring.

Oylar	Xarid qilingan avtomobillar soni
1. Yanvar	a) 62 ming dona b) 50 ming dona d) 51 ming 500 dona e) 55 ming 500 dona
2. Fevral	
3. Mart	

4.	Aprel	f) 63 ming 300 dona
5.	May	g) 54 ming 600 dona
6.	Iyun	h) 47 ming 200 dona
7.	Iyul	

- A) 1 - d, 2 - b, 3 - e, 4 - f, 5 - g, 6 - a, 7 - h
 B) 1 - d, 2 - b, 3 - e, 4 - a, 5 - g, 6 - f, 7 - h
 C) 1 - b, 2 - d, 3 - e, 4 - f, 5 - g, 6 - a, 7 - h
 D) 1 - b, 2 - d, 3 - e, 4 - a, 5 - g, 6 - f, 7 - h

Matni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajaring.

QONUN IJODKORLIGI

Qonun davlat hokimiyatining maxsus faoliyati mahsuli sifatida vujudga keladi. Davlat amrining oliy ifodasi bo'lmish qonun hokimiyatning alohida vakolatli organi tomonidan amalga oshiriladigan murakkab jarayon natijasida yaratiladi.

Qonun ijodkorligi (qonunni yaratish) jarayoni - davlat oliy vakillik organining konstitutsiyada belgilangan tartibda yangi qonunlarni yaratishga, amaldagi qonunlarga qo'shimcha va o'zgartirish kiritishga qaratilgan, shuningdek, eskirgan qonunlarni bekor qilish borasidagi harakatlarni yig'indisidir. Qonun yaratish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- qonun bilan belgilanishi kerak bo'lgan vaziyatni aniqlash;
- qonun loyihasini tayyorlash;
- qonun loyihasini muhokama etish;
- qonunni qabul qilish.

U yoki bu qonunning yaratilishiga bo'lgan ehtiyojlar o'rganish qonunchilik jarayonining boshlang'ich nuqtasidir. Bardi-yu, qonunga ehtiyoj bo'lmasa, qonun chiqaruvchi tartibga solish ro'y bermaydi, qabul qilingan qonun ishlamaydi, u amaldagi huquqiy tizimga singishib ketolmaydi, natijada qonun obro'sizlanadi yoki umuman bajarilmaydi. Masalan, "Hamma kirlarni kirsuvunda yuvsin!" degan mazmunda qonun ishlab chiqilsa, u ehtiyojni hisobga olmagan qonun hisoblanadi. Chunki kimdir kir yuvish kukunni afzal ko'rsa, yana kimdir boshqa turdagi tozalash vositasini xush ko'radi. Bundan tashqari, kirm sovunda yoki kukunda yuvish xalqqa foyda ham, zarar ham keltirmaydi. Natijada bu qonun xalq orasida obro'sizlanib qoladi va qonun chiqarganlarning adolatlil emasligini anglatadi.

Qonun loyihasini tayyorlash biror qonunga ehtiyoj borligi aniqlangandan so'ng qonun loyihasi ishlab chiqish, ya'ni qonunning matni yozilishidir.

Qonun loyihasini muhokama etish jarayoni ham juda muhim bo'lib, unda qonun chiqaruvchi tashkilotlar qonun matnini muhokama qilishadi. Qonun matnini birinchi o'qishda o'zgarishi kerak bo'lgan o'rinlar aniqlanadi. Takliflar aytiladi. Kerakli o'rinlar o'zgartirilgach, qonun **ikkinchi o'qishga** yuboriladi. Barcha qonun matni to'g'ri bo'lganiga ishonch hosil qilgach, qonun uchinchi o'qishga kiritiladi. Bu bosqich "qonunni qabul qilish" deb nomlanadi.

Qonunni qabul qilish jarayonida qonun loyihasi muhokama etilib, so'nggi ko'rinishga keltiriladi va ovoz berish boshlanadi. Qonun chiqaruvchi tashkilot a'zolari knopka bosish yo'lli bilan qonunga ovoz berishadi. Natijada qonun tasdiqlanadi, yoki rad etiladi. Tarafdorlar soni ko'p bo'lgan holatda qonun qabul qilinadi.

"Davlat va huquq nazariyasi" kitobidan

35. To'g'ri javobni toping.


Qonun yaratishda birinchi bo'lib nimani hisobga olish zarur?

- A) Qonundan foydalanadigan aholi manfaatlarini.
 B) Qonunga ehtiyoj mavjud yoki mavjud emasligini.
 C) Qonun matnini yozishda adabiy til me'yorlariga amal qilishni.
 D) Muhokama jarayoni qay tartiq o'tkazilishini.

36. To'g'ri javobni toping.

Qonun matnida o'zgarishi kerak bo'lgan o'rinlarning aniqlanishi, takliflar berilishi kabi jarayonlar qaysi bosqichda amalga oshiriladi?

- A) qonun bilan belgilanishi kerak bo'lgan vaziyatni aniqlash bosqichida
 B) qonun loyihasini tayyorlash bosqichida
 C) qonun loyihasini muhokama etish bosqichida
 D) qonunni qabul qilish bosqichida



37. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi fikrni berilgan gaplar hisobiga davom ettiring. Qaysi javob mos kelmaydi?

Tabloda aks etgan natijalarga ko'ra...

- A) Qonun qabul qilinmagan.
- B) Ovozlar soni teng bo'lib qolgan.
- C) Betaraf yoki ovoz bermaganlar bo'lmagan.
- D) Ovoz beruvchilar soni jami 40 ta bo'lgan.

38. To'g'ri javobni toping.

Qonun loyihasining tasdiqlanishi yoki rad etilishi qaysi bosqichda amalga oshiriladi?

- A) qonun bilan belgilanishi kerak bo'lgan vaziyatni aniqlash bosqichida
- B) qonun loyihasini tayyorlash bosqichida
- C) qonun loyihasini muhokama etish bosqichida
- D) qonunni qabul qilish bosqichida

Davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan quyidagi grafikdagi ma'lumotlarni izohlang va test topshiriqlarini bajaring.



39. To'g'ri javobni toping.

1-grafikda qayd etilgan ma'lumotlar qaysi qatorda to'g'ri shartlanmagan?

- A) "Nexia T-250" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2021-yil davomida avvalgi yilga nisbatan ancha past bo'lgan.

RAVISH SO'Z TURKUMI

Ma'no turlari. Tuzilishi va yasalishi

1. Hay, biroz sekinroq yursalar-ting-
chi? Butunlay toliqib qolayozdim-ku?
Oyjon, otajoni! Picha sabr-qiling, yetib
olay! Tashlab ketmanglar!
Ushbu matnda ravish turkumiga
mansub nechta birlik qo'llangan?
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
2. Shu vaqt nima uchundir hamma
birdan shoraqlab kullib yubordi.
Ushbu gap haqidagi noto'g'ri hukmni
aniqlang.
A) sodda tub ravish ish-tirok etgan
B) sondan yasalgan ravish
qatnashgan
C) qo'shma ravish ish-tirok etgan
D) ravish fe'lga bog'lanib kelgan
3. Yasama ravishlar qanday hosil
qilinadi?
1) qo'shimchalar qo'shish yo'li bilan
2) asos qismni juft qo'llash yo'li bilan
3) asos qismni takror qo'llash yo'li
bilan 4) ikki asosni birlashtirish yo'li
bilan
A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 3
C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 4
4. Quyida ravishning necha ma'no
turiga oid birliklar berilgan?
mardlarcha, qishlo-yozin, asta-asta,
majburan, jo'rttaga
A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
5. Tuzilishiga ko'ra ravishlarning
ikki turi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Bu voqea xuddi kochagina
bo'lgandek, ammo darrov uch yil
o'tibdi.
6. Qaysi qatorda ravish turkumiga
mansub so'z mavjud emas?
A) Avvalgi gaplarning unutilgani
yaxshi bo'ldi.
B) Vodiy larni yayov kezganda, Bir
ajib his bor edi menda.
C) Ertalab tursa, ko'cha eshik lang
ochiq...
D) Oldinda, hurmatli o'rt oqlar, meni
shon-u shuhrat kutardi.
7. Yarim kechadan keyin Solman
otaning uyqusi butunlay qochdi.
Ushbu gapda qay yo'l bilan hosil
qilingan ravish qatnashgan?
A) qo'shimcha qo'shish yo'li bilan
B) asos qismni juft qo'llash yo'li
bilan
C) asos qismni takror qo'llash yo'li
bilan
D) ikki asosni birlashtirish yo'li bilan
8. Choyni naridan beri ichib,
oxsonaga yugurdim.
Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmni
aniqlang.
A) o'rin ravishi qatnashgan
B) holat ravishi qatnashgan
C) ravish otga bog'langan
D) ravish to'ldiruvchi vazifasida

- B) "Nexia T-250" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2022-yilning 8 oyi davomida 2021-yilning umumiy ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan.
 - C) "Nexia T-250" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2021-yilga nisbatan 3 baravardan ortiqroq bo'lgan.
 - D) "Nexia T-250" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi, dastlabki 8 oydan ma'lum bo'lishicha, 2022-yilda avvalgi 2 yilga nisbatan ham yuqori bo'lmoqda.
- 40. To'g'ri javobni toping.**
- 2-grafikda qayd etilgan ma'lumotlar qaysi qatorda to'g'ri sharhlanmagan?
- A) "Cobalt" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi 2022-yilning 8 oyi davomida avvalgi 2 yilgi natijani ortda qoldirgan.
 - B) 2021-yilda ishlab chiqarilgan "Cobalt" avtomobili miqdori 2021-yilgi ko'rsatkichiga nisbatan 15 ming 500 dona kam bo'lgan.
 - C) "Cobalt" avtomobiliga aholining talabi 2020-yilda qolgan 2 yilga nisbatan ancha kam bo'lgan.
 - D) Agar "Cobalt" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi shu sur'atda davom ettirilsa, yil yakuniga borib o'rtaacha 90 ming dona ko'rsatkich qayd etilishi mumkin.

- 41. To'g'ri javobni toping.**
- Yuqoridagi grafiklarda berilgan ma'lumotlar qiyoslanishiga diqqat qiling. Qaysi qatorda aks ettirilgan izoh to'g'ri?
- A) 2020-yilda "Nexia T-250" avtomobilini ishlab chiqarish ko'rsatkichi "Cobalt" ga qaraganda ko'proq bo'lgan.
 - B) "Cobalt" avtomobili va "Nexia T-250" avtomobillarini ishlab chiqarish ko'rsatkichi faqat 2020-yilda juda kam tafovutga ega.
 - C) "Cobalt" avtomobiliga talab 2020-yilda "Nexia T-250" avtomobiliga nisbatan past darajada bo'lgan.
 - D) Joriy yilning iyul-avgust oylarida "Cobalt" avtomobiliga bo'lgan talab "Nexia T-250" avtomobiliga nisbatan 5 baravar yuqori bo'lgan.

9. *tubdan, rast, kechalari, avvallari, so'nggi, kunduzi*
Berilgan so'zlardan nechitasi ravish so'z turkumiga mansub emas?
A) uchtasi B) ikkitasi C) bittasi D) barchasi ravish sanaladi

10. Qaysi qatorda otdan yasalgan ravish mavjud?
A) Garchi bu hol ularni oqlashga tirmoqcha asos bo'lmasa ham, ko'nglimga tasalli edi.
B) Oldinda, hurmati o'rtoqlar, meni shon-u shuhrat kutardi.
C) Ertalab tursa, ko'cha eshik lang ochiq, yong'oqqa bog'loqlik sigir yo'q.
D) Choyni naridan-bert ichib, otxonaga yugurdim.

11. Quyida berilgan so'zlardan nechitasi sodda tub ravish sanaladi?
tubdan, to'satdan, qo'qqisdan, rostdan, birdan, kechalari, avvallari, so'ngira, kechasi, jo'rttaga
A) barchasi sodda tub ravish
B) 7 tasi C) 5 tasi D) 4 tasi

12. *Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi.*
Ushbu gapda qaysi yo'sinda hosil qilingan ravish qatnashgan?
A) qo'shimcha qo'shish yo'li bilan
B) asos qismni juft qo'llash yo'li bilan
C) asos qismni takror qo'llash yo'li bilan
D) ikki asosni birlashtirish yo'li bilan

13. *Xo'roz arang qochib qutulibdi.*
Ushbu gapda ravishning qaysi ma'no turiga mansub birlik qo'llangan?

- A) maqsad-sabab ravishi
B) holat ravishi
C) miqdor-daraja ravishi
D) o'rin ravishi

14. *noiloj, noilojlikdan, jo'rttaga, qasddan, atay(in)*
Ushbu so'zlar ravishlarning qaysi ma'no turiga xos?

- A) maqsad-sabab ravishlari
B) holat ravishlari
C) miqdor-daraja ravishlari
D) sodda tub ravishlar

15. *U bexosdan kelib, yigitni belidan oldi-da chirpirak qilib uloqtirib yubordi, yigit ancha yergacha gandraklab borib tizzalab qoldi.*
Ushbu gapda ravishlarning qaysi ma'no tur(lar)i qatnashgan?

- A) maqsad-sabab va holat ravishlari
B) holat va miqdor-daraja ravishlari
C) miqdor-daraja ravishi
D) ikkisi ham holat ravishi

16. Holat ravishlari qatorini toping.
A) ko'p, oz, to'la, uzoqdan
B) birdan, qatorasiga, piyoda
C) ancha, sal, xiyala, buroz
D) ancha, mo'l, nari-berti

17. Yasama ravishlar qatorini toping.
A) hozir, yayov, piyoda
B) noiloj, mardlarcha, yillab
C) astoydil, ertalab, aslo
D) olg'a, atay, jo'rttaga

18. *birma-hir, yakkama-yalika, yonma-yon*
Ushbu takroriy so'zlar ravishlarining qaysi ma'no turiga mansub?

- A) maqsad-sabab ravishi
B) holat ravishi
C) miqdor-daraja ravishi
D) o'rin ravishi

19. *Shu payt uydan - yotog'imizdan bolalar ham birin-кетин ko'zlarini uqalab, har yoqqa qarab tushib kela boshladi.*

- Ushbu gap haqida xato berilgan hukmi aniqlang.
A) holat ravishi qatnashgan
B) qo'shma ravish qatnashgan
C) juft ravish qatnashgan
D) sodda ravish qatnashgan

20. *Buxoroga omon-esson yetib borganlaridan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizqogini aytdi.*
Ushbu gapda tuzilishiga ko'ra ravishlarning qaysi tur(lar)i qatnashgan?

- A) sodda va qo'shma ravish
B) juft va sodda ravish
C) takroriy ravish
D) juft ravish

21. Sodda yasama ravish ishürok etgan gapni aniqlang.

- A) Tinglar edim betinim, Uzun tunlar yotib jim.

- B) Ikki oshina kechki salqin bilan piyoda yo'lga tushishdi.

- C) Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi.

- D) Jo'raboyev ham jimgina o'tirib, hammaga razm solardi.

22. *hozirgi, hanuz, hamisha, doimiy, hamon, endi, dastlabki*
Berilgan so'zlardan nechitasi payt ravishi sanaladi?

- A) uchtasi B) oltitasi
C) beshtasi D) to'rttasi

23. *Bular piyoda asta-sekin o'rtaga bordilar.*

Ushbu gapda qo'llangan ravish(lar) haqida to'g'ri hukmi aniqlang.

- A) holat va miqdor-daraja ravishlari mavjud
B) sodda va juft holat ravishlari mavjud
C) ravishlar uch o'rinda ishürok etgan
D) sodda tub va qo'shma ravish qatnashgan

24. Payt ravishi ishürok etgan gapni aniqlang.

- A) Shundan keyin Solmon otaning uyqusi butunlay qochdi.

- B) Erta-inda rejani to'ldirgani haqidagi xushxabarni topshirmoqchi.

- C) Tashqariga chiqib, G'ofurjon boydan ketishga izn so'radi.

- D) Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

25. Berilgan so'zlardan nechitasi o'rin ravishi sanaladi?

avval, so'ng, olg'a, ichkarida,

tashqarida, oldin, keyin, uzoqdan, yaqorida, quyiga

- A) 6 tasi B) 5 tasi C) 7 tasi D) 8 tasi

26. O'rin ravishi ishürok etmagan qatorni aniqlang.

- A) Sherqo'ziga ko'zi oldidan nari ketishi uchun ruxsat bermay qo'ydi.

- B) Uzoq o'yladi, ammo negadir bunga hech aqli yetmadi.

C) Salmon ota gapni uzoqdan boshladi.
D) Komandir boshliq fangchilar olg'a tashlanib bostirib boraverardilar.

27. Ikki o'rinda o'rin ravishi qatnashgan qatorni aniqlang.
A) Bizga yaqinlashmad, lekin narivoqda turib ish o'rgatib, bularga haqirib turdi.
B) Oldiga dasturxon yozibdi, kechqurun palov qilib olib chiqibdi.
C) Bir chaqirim ichkariga kirib borganimizdan keyin tepada teshik ko'rindi.
D) Oldimdan bir uy chiqib qoldi, jon holatda unga o'zimni urdim.

28. Takror so'z bilan ifodalangan miqdor-daraja ravishi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Bizning oilamizdagilar u kishini ko'pdan ko'p eslashadi.
B) Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi.
C) Bular pilyoda asta-sekin o'rdaga bordilar.
D) Tez-tez yurib, yoniga bordim.

29. Takror so'z bilan ifodalangan holat ravishi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Sizga ko'pdan ko'p salom aytishdi.
B) Choyni naridan-beri ichib, otxonaga yugurdim.
C) Bular pilyoda asta-sekin o'rdaga bordilar.
D) Tez-tez yurib, yoniga bordim.

30. Savat-savat olma terib olishdi.

Ushbu gapda qay yo'l bilan hosil qilingan ravish qatnashgan?
A) qo'shimcha qo'shish yo'li bilan
B) asos qismlarni juft qo'flash yo'li bilan
C) asos qismini takror qo'flash yo'li bilan
D) ikki asosni biriktirish yo'li bilan

31. Qadimi ro'stlab, eshikni uzoq taqillatdi.

Ushbu gapda ravishning qaysi ma'no turi qatnashgan?
A) maqsad-sabab ravishi
B) holat ravishi
C) miqdor-daraja ravishi
D) o'rin ravishi

32. Kunduzi o'rulashib yurganlaridan bu yerda qitay ham qolmagan.

Ushbu gap haqida berilgan xato hukmini aniqlang.
A) miqdor-daraja ravishi qatnashgan
B) o'rin ravishi qatnashgan
C) holat ravishi qatnashgan
D) qo'shma ravish qatnashgan

33. Qaysi qatorda miqdor-daraja ravishi ishtirok etmagan?
A) Sarvigulni podsho hammadan ko'proq sevar ekan.
B) Mehmondorchiilik tugagach, u uzundan uzun duo qilib o'rindan turibdi.

C) Ko'p yaxshi o'yabsiz, ammo saltanatimiz uzoqqa bormasa kerak.
D) Oldimdan bir uy chiqib qoldi, jon holatda unga o'zimni urdim.

34. Miqdor-daraja ravish qatnashmagan qatoni aniqlang?

A) Ikki tuxum topib olibdi.
B) yunib cho'ntagiga solib, biroq yuribdi.

B) Tong yaqinlashib qolyapti, bu yerdan tez ketishimiz kerak.
C) Dehqon: «Hay, mayli, ustki qismi na bo'lsa ham, bizga qola qolsin», — dedi.

D) Chol va kampir behad sovinishibdi.

35. Keyin so'zi ravish bo'lib kelgan qatorni aniqlang.
A) Yarim kechadan keyin Solmon otaning uyqusi butunlay qochdi.
B) Bir chaqirim ichkariga kirib borganimizdan keyin tepada teshik ko'rindi.

C) Qabristondan ancha uzoqlashgandan keyin yana otlariga minib yo'rrib ketishibdi.
D) Keyin sal hushimni yig'ib qarasam, oyoqlarim go'yo o'zidan o'zi yurib ketyapti.

36. Qaysi qatordagi so'zlar asos va qo'shimchaga ajralmaydi?

A) kechagi, kunduzgi, barvaqt
B) qisman, kamtarona, saharlab
C) tezlik, balandlik, hozirlik
D) to'satdan, kechasi, jo'rttaga

37. Qaysi qatordagi so'zlar yasama ravish sanaladi?

A) kechagi, kunduzgi
B) qisman, kamtarona
C) tezlik, balandlik
D) to'satdan, birdan

38. Berilgan so'zlardan nechitasi yasama ravish sanaladi?

astoydil, bugungi, bafurja, tashqari, qalban
A) barchasi B) 3 tasi
C) 2 tasi D) 1 tasi

39. Payt ravishi o'timli fe'lga bog'langan gapni aniqlang.
A) Jiydazordan hozirgina keldim.
B) Ertaga chigit ekishni boshlaymiz.
C) Yolg'on gapga ishonmang, erta-yu kech daladaman.
D) Ajdodlar yodi hamisha qalbimizda yashaydi.

40. Payt ravishi otga bog'lanib kelgan qatorni aniqlang.
A) Jiydazordan hozirgina keldim.
B) Ertaga chigit ekishni boshlaymiz.
C) Yolg'on gapga ishonmang, erta-yu kech daladaman.
D) Ajdodlar yodi hamisha qalbimizda yashaydi.

41. Ravish o'zlik nisbatdagi fe'lga bog'lanib kelgan qatorni aniqlang.
A) O'rtancha botir qo'rqmadi, jim turdi.
B) Uzoqdan — kun botish tomondan, g'ira-shira uchqun ko'rinish qoldi.
C) Ichkariga kiring, bir piyola choy iching, — dedi uy egasi.
D) Oldiga dasturxon yozibdi, kechqurun palov qilib olib chiqibdi.

42. Ravish yasama fe'lga bog'lanib kelgan qatorni aniqlang.
A) Jiydazordan hozirgina keldim.
B) Sarvigulni podsho hammadan ko'proq sevar ekan.
C) Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi.

- D) Ajdodlar yodi hamisha qalbimizda yashaydi.
43. Qaysi qatorda daraja shaklini olgan ravish mavjud?
- A) Tashqariga chiqib, G'ofurjon boydan ketishga izn so'radi.
B) Shervq'ziga ko'zi oldidan nari ketishi uchun ruxsat bermay qo'ydi.
C) Hay, biroz sekirroq yursalaring-chi?
D) Yolg'on gapga ishonmang, erta-yu kech daladaman.

44. Qaysi qatorda ravish ishtirok etmagan?

- A) Ikkita tuxum topib olibdi.
Suyumib cho'ntagiga solib, biroz yuribdi.
B) Tong yaqinlashib qolyapti, bu yerdan tez ketishimiz kerak.
C) Dehqon jo'xorini qurtitibdi, to'qmoqlab, donini ajratib olibdi.
D) Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

45. Harakatning holatini ifodalab kelgan, ammo ravish so'z turkumiga mansub bo'lmagan so'z qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Ona kelar yo'lda yugurib, Ko'ringandan qizini so'rab.
B) Ikkki oshna kechki salqin bilan pivoda yo'lga tushishdi.
C) Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi.
D) Jo'raboyev ham jingina o'tirib, hammaga razm solardi.

46. So'z takroridan hosil bo'lgan yasama ravish qaysi qatorda qo'llangan?

A) Choyni naridan-berl ichib, otxonaga yugurdim.
B) Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi.
C) Bular pivoda asta-sekin o'rdaga bordilar.
D) Buxoroga omon-eson yetib boring.

47. Iuft ravish ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Yaxshi-yomon gaplar uchun kechiring.
B) Terak bilan yong'oq yonma-yon o'sibdi.
C) Bular pivoda asta-sekin o'rdaga bordilar.
D) Chelak-chelak suv tashidik.

48. Yasama ravishlar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.

- 1) yillab 2) ochiqchasiga 3) rostdan 4) o'zicha 5) eskicha
- A) berilganlarning bari to'g'ri
B) 2, 3, 4, 5 C) 1, 2, 4 D) 1, 2, 4, 5

49. Tub ravishlar berilgan qatorni aniqlang.

- A) eskicha, haftalab, barvaqt
B) qisman, kamtarona, saharlab
C) vijdonan, bolalarcha, o'zicha
D) to'satdan, kechasi, jo'rttaga

50. Jarangli undosh va unilardan iborat bo'lgan yasama ravishni aniqlang.

- A) vijdonan B) darrov
C) o'zicha D) qalban

51. Quyida berilgan gaplar haqida to'g'ri hukmni aniqlang.

1. Ajdodlar yodi hamisha qalbimizda yashaydi. 2. Erta-indin to'hti boshlanadi.

A) birinchisida – sodda tub ravish, ikkinchisida – takror ravish qo'llangan

B) birinchisida – sodda ravish, ikkinchisida – juft ravish qo'llangan

C) har ikkisida ham yasama ravish qo'llangan
D) har ikkisida ham sodda tub ravish qo'llangan

52. Qaysi qatorda holat va o'rin ravishlari qatnashgan?

A) Yarim kechadan keyin Solmon otaning uyqusi butunlay qochdi.
B) Erta-indin rejani to'ldirgani haqidagi xushxabarni topshirmoqchi.

C) Tashqariga chiqib, G'ofurjon boydan ketishga izn so'radi.
D) Orqasiga qarasa, uzoqdan bir ho'kiz uni to'xtovsiz chaqirib kelyapti.

53. Maqsad-sabab ravishi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Darsga ataylab kech keldim.
B) Ertaga chigit elishni boshlaymiz.
C) Bular pivoda asta-sekin o'rdaga bordilar.
D) Buxoroga omon-eson yetib boring.

54. yoppasiga, qasddan, bafurja, yaqqol, o'rtacha, yoyov, endi Ushbu so'zlarning nechitasi holat ravishi sanaladi?

A) barchasi B) uchitasi

C) to'rttasi D) beshtasi

55. xayol, mantiq, tasodif, taxmin, javob, qalb, rasm, aql Ushbu so'zlarning nechitasidan ravish yasash mumkin?

A) barchasidan ravish yasash mumkin
B) 3 tasidan
C) 4 tasidan
D) 5 tasidan

56. Mavhum otdlardan hosil bo'lgan yasama ravishlarni aniqlang.

A) xayolan, qalban, tasodifan
B) mantiqan, fidokorona, majburan
C) bolalarcha, yangicha, qatorasiga
D) vijdonan, birin-ketin, o'zicha

57. hozir, xomligicha, birdan, yaqqol, yangicha, yoyov, o'rtacha, qardoshlarcha Berilgan so'zlardan nechitasi tub ravish hisoblanadi?

A) barchasi B) uchitasi
C) to'rttasi D) beshtasi

58. Qaysi qatorda ravish turkumiga oid so'z berilgan?

A) millionlab B) yillab
C) majburlab D) talab

59. Buxoroga omon-eson yetib borganlardan so'ng uning tarhini yaxshilab qog'ozga chizajagini aytdi. Ushbu gapda ravishlarning qaysi ma'no tur(lar)i qatnashgan?

A) maqsad-sabab ravishi
B) holat va payt ravishlari
C) miqdor-daraja ravishi
D) holat ravishi

60. Shu payt aydan – yotog'imizdan bolalar ham birin-кетин ko'zlarini uqalab, hor yoqqa qarab tushib kela boshladi.

Ushbu gapda ravishning qaysi ma'no tur(lar)ni qatnashgan?

- A) payt, o'rin va holat ravishi
- B) holat va payt ravishi
- C) o'rin va holat ravishi D) holat ravishi

Matnni o'qing va quyidagi test topshiriqlarini bajarang.

Hadis.

Imom Termiziy rivoyat qilgan hadisda Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Faqat ikki narsadan boshqada hasad yo'q. (Birinchisi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o'shani to'g'ri yo'lda saif qilsa, (ikkinchisi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o'sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta'lim bersa", - dedilar.

Sharh.

"Hasad" aslida boshqaga berilgan ne'matning zavolini orzu qilishni anglatadi. Bu gunoh hisoblanadi. Gohida "hasad" so'zi "havas qilish" ma'nosida, ya'ni boshqa kishiga berilgan ne'matni ko'rib, o'zida ham bo'lishini orzu qilish ma'nosida ham ishlatiladi. Bunga arablar "g'ibta" deyvdilar. Ushbu hadisi shartdagi "hasad" so'zi ana o'sha g'ibta - havas qilish ma'nosida kelgan.

Demak, faqat ikki narsadan boshqaga berilgan ne'matni ko'rib turib, o'ziga ham o'shanday ne'mat berilishini orzu qilish mumkin.

(Birinchisi) Alloh bir odamga mol-u dunyo bersa-yu, u o'shani to'g'ri yo'lda saif qilsa". Ya'ni "Menga ham Alloh shu odamga bergani kabi mol-u dunyo ato qilgani, men ham shu odamga o'xshab, uni yaxshilik yo'lda saif qilardim", deb havas qilsa bo'ladi.

(Ikkinchisi) Alloh bir odamga ilm bersa-yu, u o'sha ilmi ila hukm chiqarsa va ta'lim bersa". O'sha odamga ham boshqa musulmonlar havas qilsa bo'ladi. Ilm bilan hukm chiqarish o'sha ilm taqozo etgan narsaga o'zi amal qilish va odamlarni ham shunga chaqirishdan iboratdir.

Ushbu hadisdan olinadigan foydalar:

- 1. Mol-dunyoni to'g'ri yo'lda sarflashga targ'ib.
- 2. Mol-dunyosi yo'q kishilar ham, agar mol-u dunyosi bo'lsa, yaxshilik yo'lda sarflashni orzu qilishlariga targ'ib.
- 3. Ilmga amal qilib, uni odamlarga o'rgatishga amr.
- 4. Boshqalarni ham ilm olish, unga amal qilib, boshqalarga o'rgatishga targ'ib.

Shayx Muhammad Sadiq Muhammad Yusufning "Hadis va hayot" kitobidan olingdi.

61. To'g'ri javobni toping.

Hadisdagi "Faqat ikki narsadan boshqada hasad yo'q" jumlasida qanday ma'noni anglatadi?

- A) Ikki narsa, ya'ni ikki vaziyatdan boshqa holatlarda havas qilish bor.
- B) Odamlar ikki narsaga hasad qilsa, bu hasad emas, balki havasdir.
- C) Hasad ikki turli bo'ladi: yomon hasad va "havas qilish" ma'nosidagi hasad.
- D) Ikki holatdan boshqa holatlarda hasad qilish mumkin.

62. To'g'ri javobni toping.

Matnda hasadning gunoh ekanini quyidagi qaysi jumla bilan asoslanadi?

- A) "boshqa kishiga berilgan ne'matni ko'rib, o'zida ham bo'lishini orzu qilish"
- B) "ilm bilan hukm chiqarish"
- C) "boshqaga berilgan ne'matning zavolini orzu qilish"
- D) "ilm taqozo etgan narsaga o'zi amal qilishi"

63. To'g'ri javobni toping.

"Mol-dunyoni to'g'ri yo'lda sarflashga targ'ib" etish hikmati hadis sharhining qaysi qismida ochib berilgan?

- A) 1-qismida B) 2-qismida
- C) 3-qismida D) 4-qismida

64. To'g'ri javobni toping.

127. Aqliga aytдим, anglatdi - bildi, Aqlizga aytдим, shaqillab kuldi. Ushbu parchada ismlar tarkibida qaysi qo'shimcha(lar) mavjud?
 1) kelishik; 2) egalik; 3) zamon; 4) shaxs-son
 A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 2 D) 1

128. Quyida berilgan gapdagi ismlarning munosabat shakllarini toping.
 Kimni ma'qul ko'rsangiz, roziman.
 A) -sa, -ngiz B) -ni, -sangiz, -man
 C) -ni, -man D) -ni, -sa, -ngiz, -man

129. Qurboning bo'layin, ey onajonim. Sening faryodlaring, mening fig'onim. Ushbu she'riy parchada ismlarning munosabat shakllari necha marta qo'llangan?
 A) 5 B) 6 C) 7 D) 4

130. Markaziy Osiyoning erksevar, mard va jasur xalqi dushmanga qarshi mardonavor kurashdi. Ushbu gapdagi ismlar sonini ko'rsating.
 A) 6 ta B) 7 ta C) 8 ta D) 5 ta

131. Aqliga aytдим, anglatdi - bildi, Aqlizga aytдим, shaqillab kuldi. Ushbu parchadagi ismlar gurubiga mansub so'zlar qaysi turkum(lar)ga tegishli?
 1) ot; 2) sifat; 3) fe'l
 A) 1, 2, 3 B) 2 C) 3 D) 2, 3

132. Bemor ayollar bilan muloyim gaplashadi-yu, lekin ko'ngli, turmushi haqida gapirmaydi. Ushbu gapda ismlarga mansub nechta so'z bor?
 A) 6 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 7 ta

133. Harakat bajaruvchisining shaxsi va sonini ifodalagan egalik qo'shimchasi qaysi gapda qo'llangan?
 A) Dunyoda o'zbek zamimiga teng keladigan zaminning o'zi yo'q.
 B) Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan.
 C) Vatan har bir insonning yuragida, qalbida bo'lmog'i lozim.
 D) Mehr va qadr bor yerda hamma narsa bor.

134. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi o'rin-joy otlariga qo'shilganda, qanday vazifada keladi?
 A) vositali to'ldiruvchi
 B) payt holi
 C) vositasiz to'ldiruvchi
 D) o'rin holi

135. Sipohning tarqoqligi saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi. Ushbu gapda ismlar guruhiga mansub so'zlar soni nechta?
A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
136. Tarixni o'rganishdan asosiy maqsad - milliy o'zligimizni chuqurroq anglash. Ushbu gapdagi ismlarning munosabat shakllari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) -ni, -ish, -dan, -imiz, -ni, -roq, -sh
B) -ni, -dan, -iy, -imiz, -roq
C) -ni, -dan, -imiz, -ni
D) -ni, -dan, -lik, -imiz, -ni, -roq, -la

137. Ismlarni kesim sifatida shakllantiruvchi va ega bilan munosabatini ifodalovchi -man, -san, -dir qo'shimchalari, bo'lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq so'zlari qanday umumiy nom bilan ataladi?
A) kelishidlar B) ekalliklar
C) bog'lamlalar D) hammasi to'g'ri
138. Qaysi qatordagi birlikmada kelishik shakli qism ma'nosini ifodalagan?
A) uzumdan yemoq
B) uzum yemoq
C) uzumni yemoq
D) barchasi to'g'ri

139. *Kechasi Saidaning hujrasiga Kozimbek bilan muxbir A'zamjon keldi. Saida Kozimbekdan otasining sog'lig'ini so'radi.*
Ushbu gapda necha o'rinda ismlarning munosabat shakllari qo'lingan?
A) 7 B) 8 C) 9 D) 6

140. *Do'stlik inson... bolalik davri... boshlanadi.*
Mazkur gapda qo'yilishi kerak bo'lgan kelishik shakllarini aniqlang.
A) jo'nalish, o'rin-payt
B) o'rin-payt, qaratqich
C) qaratqich, tushum
D) qaratqich, o'rin-payt
141. O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi shaxs va narsa otlariga qo'shilganda, qanday vazifada keladi?
A) vositali to'ldiruvchi B) aniqlovchi
C) vositasiz to'ldiruvchi D) o'rin holi

142. *Ustod o'z bergan saboqlari zoye ketmaganidan, shogird ularni puxta o'zlashtirib olganidan behad mamnun bo'ldi.*
Mazkur gapda qaysi kelishik shakllaridagi so'zlar qatnashgan?
A) tushum, bosh, qaratqich, chiqish, jo'nalish, o'rin-payt
B) tushum, bosh, qaratqich, chiqish, jo'nalish
C) tushum, bosh, chiqish, jo'nalish
D) tushum, bosh, qaratqich, chiqish

143. Bosh kelishik shaklidagi so'z qatnashmagan qatorni aniqlang.
A) Ovqat ko'pligini ko'rib, Muhayyoning ijozati bilan ustasi, oqsoq cholni chaqirdi.
B) Kishini go'zal qilib turadigan uning chiroyi emas, balki chiroyli xulqidir.
C) Yolg'on doim rostdan yengiladi. U xuddi suv yuzasidagi ko'pikday yo'q bo'lib ketadi.

144. Ismlarning munosabat shakllaridan qaysi bir(lar)da shaxs va son grammatik ma'nolari ifodalanadi?
A) ismlarda shaxs va son ma'nolari ifodalanmaydi
B) kelishik shakllari, egallik shakllari, bog'lamlalar
C) egallik shakllari, bog'lamlalar
D) faqat bog'lamlalar

145. *Jabr-zulmdan o'zingni uzoq tut. Senda biron kishining haqi bo'lsa, haqini unutma. Agar silar bir tan, bir jon bo'lsangiz, sanga adovat qilganlarni yengasiz. Kimki senga do'stlik qilsa, do'stligi qadrlini unutma.*
Berilgan matnda ismlarning munosabat shakli necha o'rinda qo'lingan?
A) 15 ta B) 16 ta C) 13 ta D) 14 ta

146. Bog'lamali ot kesim qo'llanmagan gapni aniqlang.
A) Ulug'bek ko'zlarini nomadan qalib, o'g'li bilan shayxuislomga qaradi.
B) Oqbotir uning jo'rasi edi.
C) Do'st, sen eding ko'nglim rahbari, Meni bog'la, topshir dushmanga.
D) Boy edi, yegani go'sht-u moy edi. Alp edi, lekin nozik qalb edi...

147. *Bugun rostni qo'yib yolg'on gapirgan odam-ertaga nima deganini unutganidan rostini aytib qo'ya qoladi va shu bilan o'zini o'zi beburd qiladi.*
Mazkur gapda qaysi kelishik shakllari qatnashgan?
A) tushum, chiqish, jo'nalish
B) chiqish, jo'nalish
C) tushum, chiqish
D) tushum, jo'nalish

148. *Ilm-u ma'rifatdan lof urish nodonlikdan boshqa narsa emas, agar bilsang, nodonlikni bilishning o'zi ilmdir.*
Mazkur gapda qaysi kelishik shakllari qatnashgan?
A) tushum, qaratqich, jo'nalish
B) chiqish, jo'nalish, tushum
C) tushum, chiqish, qaratqich
D) tushum, jo'nalish

149. *Dalalar, ko'chalar, uylardagi ariqlar... sharqirab suv oqqadi. Undan keyin, qarabsizki, paxtamiz ham mo'l, uzum-olmamiz ham, qovun-tarvuzimiz ham serob-da.*
Mazkur gapda ismlarning lug'aviy shakli necha o'rinda qatnashgan?
A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta

150. Qaysi kelishik shaklini olgan so'z hol vazifasida qo'llana olmaydi?
A) chiqish kelishigi
B) o'rin-payt kelishigi
C) jo'nalish kelishigi
D) tushum kelishigi

Matni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

Smartfon, planshet va noutbuklar hayotimiz ___ (-ni/-ning) ajralmas qismi ___ (-da/-ga) aylanib ulgurdi ular ___ (uchun/bilan) odamlar hayoti ___ (-dan/-ga) ijtimoiy tarmoqlar tushunchasi ___ (ham/hatto) kirib keldi bugungi kun odamlari ___ (-ni/-ning) ish faoliyati ___ (bilan/ham) shaxsiy hayotlari ___ (ham/kabi) ijtimoiy tarmoqlar ___ (hamda/bilan) bevosita bog'liq olimlar zamonaviy gadjetlar ___ (yoki/hamda) ijtimoiy tarmoqlar ___ (-ning/-ni) inson ruhiy salomatligiga ta'sirini o'rganish ___ (haqida/uchun) qiziqarli tadqiqotlar o'tkazishgan.

151. To'g'ri javobni toping.

Bo'sh o'rinlarga zarur til birliklari to'g'ri tanlangan qator qaysi?

- A) -ning, -da, bilan, -ga, ham, -ni, ham, kabi, bilan, hamda, -ni, haqida
- B) -ni, -da, uchun, -dan, hatto, -ni, bilan, ham, hamda, yoki, -ni, haqida
- C) -ning, -ga, bilan, -ga, ham, -ning, ham, kabi, bilan, hamda, -ning, uchun
- D) -ni, -ga, uchun, -dan, ham, -ni, bilan, ham, hamda, yoki, -ning, uchun

152. To'g'ri javobni toping.

Matndagi gaplar kesimini aniqlang.

- A) ulgurdi, kirib keldi, bog'liq, o'rganish, tadqiqotlar o'tkazishgan
- B) aylanib ulgurdi, kirib keldi, bog'liq, o'tkazishgan
- C) ulgurdi, kirib keldi, bog'liq, o'rganish, tadqiqotlar o'tkazishgan
- D) aylanib ulgurdi, kirib keldi, bog'liq, tadqiqotlar o'tkazishgan

Matni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

Ba'zan "Tilning suvagi yo'q deb, gapiraverasanmi?" degan tanbehni eshitamiz. Tilida har gapni gapirishga to'siq bo'luvchi suyak yo'q ekan, qo'lda-chi? Qo'llarimizda suyak bormi? Bugun biz shu qo'llar orqali istagan mulohazamizni yozishga kirishdik. Nega dildagini yozuvga ko'chirish ishini suyaklar nazorat qilolmayvapti? Suyak bir o'xshatish xolos, aslida har bir harakatimiz miya - aql, shu qatorda yurak - qalb orqali boshqariladi. Ammo nechun aqlimiz va qalbimiz har gapni bitishga izn beradi? ... Har kim o'z fikrini ifoda etish huquqiga ega. Deylik, kimdir internetdagi sahifasiga hayotiy qarashlarini, o'z maqsadlarini yozib qo'ydi. Matn ostiga internet foydalanuvchilaridan biri o'z mulohazasini bitadi, keyingisi unga qarshi chiqadi, fikr egasiga ham darrov javob qaytariladi, qarabsizki, dahana! jang!

... Bir-birini hayotda ko'rmagan, yuzma-yuz muloqot qilmagan, ko'cha-ko'ya ko'rib qolgan taqdirda ham, tanimay o'tib ketuvchi kishilar monitor

qarshida bir-biri bilan g'ijritchoq bo'ladi. Lekin bularning bari reallikda sodir bo'lmagan. Sabab tomonlar o'zini ayblamaydi, ongli ravishda urush chiqarib, bopiradi so'zlar tishlatganidan vijdoni qiyinlamaydi.

... Guruh yoki sahifalarda bahs boshlansa, har kim sherigini mot qilish, tortishuvda g'olib bo'lishga chirantib, lug'atidagi eng ta'sirchan so'zlarni taltiradi.



Fakt keltiradi, misol aytadi, bular ish bermasa, haqorat qiladi. Tushunmaydiki, munozarada ustun kelgan inson emas, balki befoyda tortishuvga kirishmagan odam g'olibdir.

... Kimningdir bir so'ziga yuz izoh qoldirib, keng tarqatishga usta odamlar ba'zan bir og'iz mehrl kalomni taroziga soladi, qizg'anadi. Bayramlar va tug'ilgan kunlar bilan chin dildan tabriklash yo'qolib ketdi. Tarmoq orqali tayyor (1) ... foto va animatsiyalarni jo'nattishadi. Hatto namuna shaklidagi tabrik va she'rlar ham bor. Yaqinimizga tilak bildirib, so'z izlashimizga hojat yo'q. Minnatdorchilik bildirish borasida ham qiynalmaysiz: tayyor hisbelgilar (emojilar) hozir-u nozir.

Ilar narsaning uvoli va zavoli bor. Isrof, albatta, yaxshilikka olib kelmaydi, o'z asoratini ko'rsatadi. Bugungi internet olamidagi mulohazasizlar "mulohaza" si chinakamiga so'z uvolidir. Ularda ma'no yo'q, mazmundan yiroq, maqsadi puch: (2) ... g'iybat, ig'vo, tuhmat. O'zingiz ham bir begona odamning javobidan asabiylashib, bosh ushlab o'tirasiz. Aslida bu o'ylashga arziydimi? Nega fikr bildirishga munosib minbarlar axtarmaysiz?

Muloqot imkoniyati - bizga atalgan ne'matlardan biri. Uni (3) ... qilmaslik, so'z uvoliga yo'l qo'ymaslik har kimning o'z qo'liga. Iroda ishga solinsa, teran tafakkur va qalb amriga quloq solinsa bas.

Durdona Alimova

153. To'g'ri javobni toping.

Matning kirish qismida "Tilda har gapni gapirishga to'siq bo'luvchi suyak yo'q ekan, qo'lda-chi? Qo'llarimizda suyak bormi?" savoli qo'yiladi. Bundan ko'zda tutilgan maqsad nima?

- A) Qo'llarimiz ham yaxshi va yomon amallarni bajarishga qodir, unda suyaklarning bu ishlardagi ishtiroki muhimligiga urg'u berilgan.
B) Fikrni faqat og'zaki emas, yozma nutq tarzida ham ifodalash mumkin, bu esa qo'l orqali amalga oshiriladi. Behuda gaplarning yuzaga chiqishida til yoki qo'l emas, ungacha bo'lgan ongli jarayon muhimligiga e'tibor qaratilgan.
C) Behuda gapni gapirganga tilning suyagi yo'q deb munosabat bildiramiz, ammo bo'lgan-bo'lmagan gapni yozgan qo'llar "e'tibordan chetda" qoladi. Demak, faqat til emas, qo'l ham "aybdor".
D) "Suyak" so'zi to'siq ma'nosini ifodalab kelgan. Ba'zi mulohazalarimizni yozishda ana shu to'siqlar ishga tushishi lozimligiga urg'u berilgan.

154. To'g'ri javobni toping.

Uchinchi abzasda qo'llangan "qirpichoq bo'ladi" iborasi qanday ma'noda qo'llangan?

- A) pichoqlashishgacha boradi
B) janjallashib qolishadi
C) hurmatsizlik qiladi
D) tanishishadi

155. To'g'ri javobni toping.

Matn muallifi quyidagi jumla orqali qanday fikrga ishora qilmoqda. ...munozarada ustun kelgan inson emas, balki befoyda tortishuvga kirishmagan odam g'olibdir.

- A) Bahs-munozara jarayonida raqibining gaplariga e'tibor qilmagan kishi ustun sanaladi.
B) Munozara haqqoniy bo'lishi uchun ko'tarilgan masala jiddiy bo'lishi va barchani jajib qilishi muhim.
C) Munozarada ustun kelgan kishilar, odatda, ilmsiz va saviyasiz bo'ladilar.
D) Befoyda tortishuvdan hech kim yutmaydi, shunchaki, qimmatli vaqtini bekorlarga sarflaydi.

156. To'g'ri javobni toping.

Matn tarkibidan olingan quyidagi jumla matn mazmuniga mos tarzda to'g'ri davom ettirilgan qator qaysi?

Bugungi internet olamidagi mulohazasizlar "mulohaza"si chinakamiga so'z uvolidir...

- A) ...chunki ularning aksarida ma'no yo'q, mazmundan yiroq, maqsadi puch.
B) ...chunki ularning maqsadi ziddiyatni yuzaga keltirish.
C) ...chunki ular o'z mulohazalari bilan ish ko'rmaydilar, topgan gaplari faqat iqtibos.
D) ...chunki odamlar o'z fikrini munosib minbarlarda emas, internetda ifodalamoqda.

157. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi fikr matnning xulosasiga mos emas?

- A) Gapirganda, o'ylab, chuqur mulohaza qilib, uning oqibatini bilib gapirish kerak.
B) Ko'p gapirib, so'z qadrini tushirgan kishi - o'z qadrini tushirgan kishidir.
C) Aqlli kishi bo'lar-bo'lmas tortishuvlarga bosh suqmaydi, chunki bundan naf yo'qligini biladi.
D) Ijtimoiy tarimoqda bahsga qo'shilgan kishi g'alaba uchun bor imkonini ishga sola bilishi lozim.

158. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan qaysi gap o'quvchini fikrlashga va o'z fikrini loyiq o'rnlarda ifodalashga undaydi?

- A) Ammo nechun aqlimiz va qalbimiz har gapni bitishga izn beradi?..
B) Munozarada ustun kelgan inson emas, balki befoyda tortishuvga kirishmagan odam g'olibdir.
C) Nega fikr bildirishga munosib minbarlar axtarmaysiz?
D) Muloqot imkoniyati - bizga atalgan ne'matlardan biri.

159. To'g'ri javobni toping.

Matn xulosasiga to'liq mos bo'lmagan maqolni aniqlang.

- A) Yomonga gapirsang —bir balo, gapirmasang — ikki balo.
B) Gapning qisqasi — yaxshi, Qisqasidan hissasi — yaxshi.
C) Yaxshi gap bilan ilon iniddan chiqar, Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.
D) Bilgan topib gapirar, Bilmagan — qopib.

160. To'g'ri javobni toping.

Matnda raqamlab ko'rsatilgan o'rnlarga qo'yilishi lozim bo'lgan so'zlar qaysi qatorda imloviy jihatdan to'g'ri berilgan?

- A) fisoq-u fasot, steker, suyiste mol
B) fisoq-u fasod, stiker, suiste mol
C) fisoq-u fasot, stiker, suiste mol
D) fisoq-u fasod, stikar, suyiste mol

161. Ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Insonning nutqi ham miya - aql, yurak - qalb orqali boshqariladi.

- A) to'g'ri B) noto'g'ri

162. To'g'ri javobni toping.

Matn tarkibida qo'llangan sinonimlarni aniqlang. Quyidagi jadvalda sinonimni to'g'ri ko'rsatilgan birliklarni aniqlang.

So'z	Sinonimi
1. ma'no	mazmun
2. mulohaza	fikt, qarash
3. bahs	munozara, tortishuv
4. befoйда	behuda
5. chiranmoq	haqorat qilmoq
6. taroziga solmoq	qizg'annoq
7. tayyor	hozir-u nozir
8. muloqot	ne'mat
9. qidirmoq	izlamoq
10. fabriklamoq	tilak bildirmoq

- A) 1, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10
 B) 1, 2, 3, 4, 6, 7, 9, 10
 C) 1, 2, 3, 4, 5, 7, 9
 D) 2, 3, 4, 6, 7, 9

163. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi qaysi sarlavha matn mazmuniga mos emas?

- A) Virtual bahsda kim g'olib?
 B) Yozishmalardagi madaniyatsizlik
 C) Raqibni mot qilish usullari
 D) Muloqot madaniyati

164. To'g'ri javobni toping.

Berilgan so'zlarga mos izohlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

1) in reallik haqorat mot qilish fakt

- 2) bahsda raqibni yengish
 3) Kishining oil-nomusi, shaxsiyatini pasiga uradigan, talqinrovchi ma'no mazmunli so'z, gap.
 4) Aqiq mavjud bo'lgan voqea-hodisa, haqiqat.
 5) Bironi narsa haqida xulosa chiqarish, qat'iy bir fikrga kelish uchun xizmat qiladigan asos, dalil.
 6) Bironi ishni bajarish, amalga oshirish uchun berilgan rozilik.

- A) 1) in - 5, reallik - 4, haqorat - 2, mot qilish - 1, fakt - 3
 B) 1) in - 5, reallik - 3, haqorat - 2, mot qilish - 1, fakt - 4
 C) 1) in - 5, reallik - 4, haqorat - 2, mot qilish - 1, fakt - 3
 D) 1) in - 4, reallik - 5, haqorat - 2, mot qilish - 1, fakt - 3

Matnni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

[1] Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayqosiz yashashi mushkul. Buni kitoblardan ham, tarixdan ham, oddiy odamlarning kundalik hayotidan ham bilib olsa bo'ladi. Masalan, o'sha qahramon bo'lmasa, oilada ham, mahallada ham, xalqda ham suyanadigan tayanch nuqta yo'qolganday bo'ladi.

[2] Bir kuni tengqurtarim bilan "Zamonamiz qahramoni kim?" degan mavzuda suhbatlashib qoldik. Birov: "So'nggi urfda kiyinadigan, kamida ikkita tilni biladigan, chet elda o'qib kelayotgan yoshlar", - desa, yana biri: "Zamonamiz qahramoni degan nomga sportchilarimiz munosib, chunki yurtimiz nomini duvyoga yoyishda ularning hissalar ko'proq", - dedi. Kimdir dehqonlar desa, kimdir olimlarni, yana kimdir estrada yulduzlarini tilga oldi. Hammamiz o'zimizcha haq edik.

[3] "Zamonamiz qahramoni kim?" deb savol berishning nima hojati bor, barcha davrlar uchun o'lmas qahramonlar bor-ku, o'shaunday insonlarga ergashish, taqlid qilish mumkin, desiz. Darhaqiqat, necha-necha avlodlar uchun yo'lchi yulduz bo'lib kelayotgan, aq-u-zakovati, kuch-qudrati, komil fazilati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuklarimiz bor. Birgina Amir Temur bobomiz yoki Jaloliddin Manguberdin nomlarini tilga olsak, qalblarimiz faxr-u g'uruga to'ladi. Lekin ular shunchalar yuksakdagi, bugungi avlod ularga yetib olishi mushkul. Faqat havas qilish va munosib avlod bo'lishga harakat

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

qilish imkonini bor, xolos. Qolaversa, hayot tarzimiz, fikrlash yo'sinimiz o'rtasida shunchalik katta vaqt masofasi borki, ularni zamonamiz qahramoni sifatida yonimizda his qilolmaymiz.

[4] Bizning ham o'zgarishlar, yangilanishlar to'liqida kechayotgan o'z zamonamiz bor. O'z orzularimiz va armonlarimiz, o'z g'alabalarimiz va mag'lubiyatlarimiz bor. Shular ichida biz o'z zamonamiz qahramonini ham izlaymiz. Ichimizdan biz bilan bir xil imkoniyatga ega bo'la turib, bizdan o'zib ketgan, dunyoni o'z gacha idrok etishi, favqulodda qobiliyati, irodasi, aql-u zakovati bilan bizni hayratga soladigan, ortidan ergashitiradigan zamonamiz qahramonlari chiqishini xohlaymiz.

Ibrohim Aziz

165. Matn mazmunidan kelib chiqib, berilgan xulosalarning qay biri matnning bosh g'oyasiga mos ekanini toping. Javobingizni izohlang.

- A) *Insonlar komil fazilati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan buyuklardan iborat olib yashashi lozim.*
 B) *Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayyoqsiz yashashi mushkul.*
 C) *Bugungi odamlarning o'z orzu va armonlari, o'z g'alaba va mag'lubiyatlari bor.*
 D) *Tarixiy shaxslarni zamonamiz qahramoni deya olmaymiz.*

166. Muallif matnning qaysi qismida har bir davrning o'z qahramonlari mavjud bo'lishi haqida fikrini bayon qiladi?

- A) 1-qismida
 B) 2-qismida
 C) 3-qismida
 D) 4-qismida

167. Muallif Amir Temur va Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslarni "yonimizda his qilolmaymiz" dedi. U bu fikrni qanday asoslaydi?

- A) *ularning aql-u zakovati tarixda o'chmas iz qoldirganini aytish bilan*
 B) *ularga havas bilan boqishimiz mumkinligini uqtirish orqali*
 C) *hayot tarzimiz, fikrlashimiz ular yashagan davrdan keskin farq qilishini aytish bilan*
 D) *bugungi avlodning ularga munosib bo'la olmayotganini ta'kidlash orqali*

168. Matnning xulosa qismida nima haqida gap boradi?

- A) *Zamona qahramoni suyanadigan tayanch nuqtaga qiyoslanadi.*
 B) *Har bir inson zamona qahramonini o'zicha tushunishi yoritilgan.*
 C) *Ajdodlarga havas qilish va munosib avlod bo'lishga harakat qilish uqtiriladi.*
 D) *Zamonamiz qahramonining sifatleri ochib berilgan.*

Barcha kitoblar → -298-

@ARTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

169. Ajratib ko'rsatilgan so'z matnda qanday ma'noda qo'llangan? "Inson qahramonsiz, oldinga undab turuvchi mayyoqsiz yashashi mushkul".

- A) *Kemalarga quruqlikni ko'rsatib turuvchi inshoot ma'nosida*
 B) *Mush'ala ko'tarib borayotgan inson ma'nosida*
 C) *Yo'lboshchi - qahramon ma'nosida*
 D) *Ustoz ma'nosida*

170. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi so'zlarning matn mazmuniga mos keluvchi izohlarini aniqlang.

1. Kundalik	a) kunda bo'lib turadigan, odatdagi holat, hodisa b) hodisalar, kuzatishlar va boshqalar yozib boriladigan jurnal, daftar
2. Qahramon	a) shijoati, dovyurakligi, bontirigi bilan shuhrat qozongan, jonbozlik, maridlik qilib, o'zini ko'rsatgan shaxs b) biror voqea-hodisa va uning sodir bo'lishiga sababchi bo'lgan yoki uning sodir bo'lishiga hissa qo'shgan inson
3. Yulduz	a) qizigan gazlardan tarkib topgan, tabiatga ko'ra Quyoshga o'xshaydigan, nur sochuvchi osmon jismi b) elga tanilgan, shuhrat qozongan shaxs
4. Davr	a) tarixda biror shaxs yoki kitablar guruhi, sultona nomi bilan bog'langan vaqt, zamon b) biror-bir avlod yashagan yoki yashayotgan vaqt, zamon

- A) 1-a, 2-a, 3-b, 4-b
 B) 1-b, 2-a, 3-b, 4-a
 C) 1-b, 2-a, 3-a, 4-a
 D) 1-a, 2-b, 3-a, 4-b

171. Matnning birinchi qismiga diqqat qiling va undagi gaplarni o'zaro bog'layotgan birliklarni aniqlang.

- A) *mayyoqsiz, kitoblardan, tayanch nuqta*
 B) *mayyoqsiz, masalan, o'sha qahramon*

Barcha kitoblar → -299-

@ARTbooks kanalida

- C) buni, masalan, tayanch nuqta
D) buni, masalan, o'sha qahramon

172. Matnda ostiga chizib ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibida bergan tovush o'zgarishlari tartibini aniqlang?

- A) tovush almashishi, tovush tushishi, tovush ortishi
B) tovush almashishi, tovush ortishi, tovush tushishi
C) tovush tushishi, tovush ortishi, tovush almashishi
D) tovush ortishi, tovush almashishi, tovush tushishi

Quyidagi matnlarni o'qing va berilgan test topshiriqlarini bajaring.

1. Dilfuza Egamberdiyeva - dunyo tan olgan o'zbek olimasi. Mikrobiologiya bo'yicha dunyoning nufuzli olimlari orasida o'z o'rniga ega. Dilfuza Egamberdiyeva Germaniya, Finlandiya, Italiya, Angliya, Niderlandiya, Xitoy, Amerika Qo'shima Shtatlari universitetlarida ilmiy faoliyat olib borgan. Uning xalqaro loyihalarga rahbarlik qilgan. Olima UNESCO xalqaro tashkilotining L'OREAL - "Olimo ayol" mukofoti bilan taqdirlangan.

2. Bahodir Jalolov - o'zbekning yengilmas bokschisi. U boksnning o'ta og'ir vazn toifasida ringga chiqadi. Bahodir Jalolov shu kungacha qadar dunyoning turli nufuzli musobaqalarida vatanimiz bayrog'ini yuqori ko'targan. Xususan, 2019-yil jahon chempioni, 2020-yil Olimpiada chempioni sifatida: oltin medalni qo'lga kiritib, o'zbek boksi shuhratini dunyoga yozgan. Sportchi "O'zbekiston ifixori" faxriy unvoni va "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

3. Akmaljon Usvaliyev - fidoyi tadbirkor. U, yura olmasa-da, tinim bilmaydi. Bir necha yillar oldin ijaraga joy olib, kompyuter xizmatlarini yo'lga qo'ygan. Keyin faoliyatini kengaytirgan, kompyuter texnologiyalarini o'rgangan. Shu kunigacha qahramonimiz 40 nafarga yaqin shogird yetishtirib, ushbu sohaning shogirdlarini o'rgatib kelmoqda. Hozir 15 nafar yigit-qizni ish bilan ta'minlagan. Tadbirkor ko'p yillik mehnatlari uchun "jasorat" medali bilan taqdirlangan.

173. To'g'ri javobni toping.

- Matn mazmunidan kelib chiqib, quyidagi ma'lumotlarni davom ettiring.
- Dilfuza Egamberdiyeva...
a) 40 nafarga yaqin shogird yetishtirgan
 - Bahodir Jalolov...
b) "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan
 - Akmaljon Usvaliyev...
d) UNESCO xalqaro tashkilotining mukofoti bilan taqdirlangan
e) "jasorat" medali bilan taqdirlangan

Barcha kitoblar →

-300-

@ABTbooks kanalida

- f) "O'zbekiston ifixori" faxriy unvoni bilan taqdirlangan
g) bir qancha xorijiy universitetlarida ilmiy faoliyat olib borgan

- A) 1 - a, g; 2 - b, d; 3 - e, f
B) 1 - d, g; 2 - b, f; 3 - a, e
C) 1 - a, d; 2 - b, g; 3 - e, f
D) 1 - d, g; 2 - b, e; 3 - a, f

174. To'g'ri javobni toping.

Quyidagi jumalarni davom ettiring.

Mazkur uch shaxsni shuning uchun ham zamonamiz qahramonlari deya olamizki...

- A) ular yuksak mukofotlarni qo'lga kiritgan
B) ular muxlislar olqishiga sazovor bo'lgan
C) ular butun dunyoga mashhur bo'lib ulgurgan
D) ular o'z sohalarida yuksak marralarga erisha olgan

175. To'g'ri javobni toping.

Matn tarkibida qo'llangan olimna so'zlarga diqqat qiling. Quyidagi qaysi qatorda faqat o'zlashgan so'zlar berilganini aniqlang.

- A) mikrobiologiya, chempion, ring, texnologiya
B) ring, chempion, oltin, texnologiya
C) universitetlarida, iftixor, tinim, kompyuter
D) musobaqa, orden, yengilmas, tadbirkor

Matnni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

OPOQI KIM: BUVIMI YOKI BOBOS?

"Opoqi" Toshkent shevasida yoshi katta ayollarga hurmat bilan murojaatda ishlatiladigan so'z. Asosan buvilarga nisbatan qo'llanadi. "Oprog'oyi" so'zining qisqartma shakli. Bu so'z Farg'ona vodiysining ba'zi hududlarida boboga nisbatan ishlatiladi. Uning "opoqdada" varianti ham bor.

"Opoqi" so'zini bobo ma'nosida qo'llash tobora kamayib boryapti.

Yaqin qatindoshlarni anglatuvchi so'zlarni xilma-xil ma'nolarda qo'llash, erkaikka nisbatan ishlatiladigan so'zni ayolga, ayolga xoslangan so'zni erkakka nisbatan tatbiq etish tilda bor hodisa.

Masalan, bugungi tildagi "aka", so'zining "oka", "og'acha" variantlari Bobur mirzo zamonida ayollarga nisbatan qo'llangan. Lekin hozir bu so'zlar faqat erkaklarga nisbatan ishlatiladi.

Toshkent shevasida onani "opa" deyish uchraydi, Xorazm shevasida esa "aka" otani anglatadi.

Barcha kitoblar →

-301-

@ABTbooks kanalida

Qirg'iz tilida ona "apa", qozoq tilida esa ota "ake" deyiladi. Qozoq bolalar onalariga "apa" deb murojaat qiladi.

Shevalarga qaralish va qo'shni millatlarning tillari ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shevalarda qaysi ma'noni anglatishidan qat'i nazar, so'zning adabiy tildagi anglamini bilib olishimiz kerak. Yo'qsa, uni yangilash ma'noda qo'llashimiz, natijada xatoga yo'l qo'yishimiz aniq.

Orif To'lib

176. To'g'ri javobni toping.

Matnda ostiga chizib ajratib ko'rsatilgan so'zning ma'nosi qaysi qatorida to'g'ri izohlangan?

- A) so'zning kelib chiqishi
- B) onga bog'liq bo'lmagan ma'nosi
- C) anglatgan ma'nosi
- D) so'zning varianti

177. To'g'ri javobni toping.

Matn asosida shakllantirilgan qaysi fikr to'g'ri emas?

- A) "Opoqi" so'zi ayrim shevalarda erkak kishiga nisbatan ham qo'llanadi.
- B) Qadimda "aka" so'zi ayollarga nisbatan ham qo'llangan.
- C) Qozoq va qirg'iz tillarida onaga "apa" deb murojaat qilishadi.
- D) Ayolga xoslangan so'zni erkakka nisbatan tatbiq etish tilimizda mavjud emas.

178. To'g'ri javobni toping.

Matnda qo'llangan qaysi so'z tarkibida qo'shimchalar soni beshta?

- 1) qisqartma 2) ishlatiladigan 3) ishlatiladi 4) anglatishidan
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 3, 4
- C) 2, 3, 4 D) 3, 4

Matnmi o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajarib.
(tinglab tushunish)

Chumchuqlarga qiron keltirgan Xitoy

Bundan 64 yil oldin, 1958 yilda Xitoyda dalalardagi bug'doy hosilini asrash uchun chumchuqlarga qarshi kurash boshlandi. Mamlakatdagi qariyb barcha chumchuqlar qirib bitirildi. Shundan so'ng tabiatdagi muvozanat buzilib, Xitoy qishloq xo'jaligi katta zarar ko'radi. Oqibatda bir necha o'n million odam halok bo'ladi.

Xitoy ikkinchi jahon urushidan keyin qoloq bir mamlakat edi. O'sha paytda Xitoyda atvool juda og'ir, ozuq-ovqat yetishimovchiligi bor bo'lib, millionlab odamlar yo'qchilikda yashardi.

Xitoy hukumati oldida qishloq xo'jaligi hamda iqtisodiyotda islohotlar o'tkazish va mamlakatni qoloqlikdan chiqarish vazifasi turardi. Amalda shunday islohotlar o'tkaziladi. Ammo ularning foydasidan ziyoni ko'proq bo'ladi. O'yilamasdan qilingan ish ortidan uch yilda bir necha o'n million kishi ochurchilik tufayli halok bo'ladi.

1957 yil 18 fevral kuni Xitoy kommunistik partiyasining navbatdagi yezdida Xitoyni rivojlantirish bo'yicha «Katta sakrash» deb nomlangan dastur muhokama qilindi. Bu dasturning hammualliflaridan biri o'sha paytda Xitoy ta'lim vazirining o'rinbosari bo'lgan biolog Chjou Tszyan edi.

U o'z dasturida qishloq xo'jaligini rivojlantirish va odamlarning qornini to'ydirish uchun chumchuqlar va kalamushlarni yoppasiga qirib bitirishni taklif qilgandi. Chjou Tszyanning hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakatda yetishtirilayotgan bug'doyning katta qismini chumchuqlar va kalamushlar yeb qo'yayotgan edi. Agar ular qirib tashlansa, millionlab odamlarni to'ydirsa bo'ladigan bug'doyni asrab qolish va mamlakat aholisini qashshoqlikdan chiqarish mumkin bo'ladi.

Kompartiya syezdiida otashin nutq so'zlagan Chjou Tszyan o'z vaqtida Prussiya qiroli Buyuk Fridrix ham shunday yo'l tutganini va ijobiy natijalarga erishgani haqida gapiradi.

O'sha paytda mamlakat rahbari bo'lib turgan Mao Tszedumi bu ishga ko'ndirish qiyin bo'lmadi. O'rta maktab ta'limini oxirigacha yetkazmagan Mao Tszedun mamlakatdagi barcha kalamush va chumchuqlarni qirib bitirish qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida tasavvurga ham ega emasdi. Har bir jonivorning tabiatdagi muvozanat zanjirida o'z o'rnini borligini anglamas edi. Bu ishning salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini bilganlar esa mamlakat rahbari rozilik bildirgan ishga e'tiroz qila olmasdi. Shu tariqa Chjou Tszyanning taklifi qabul qilindi.

1958 yil 18 mart kuni Xitoy kompartiyasining navbatdagi VIII syezdiida Mao Tszedun nutq so'zlaydi va mamlakatdagi chumchuqlar va kalamushlarni qirib tashlashning abamiyatli tomonlari haqida gapiradi. U o'z nutqida Xitoydagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tayyorlangan hisobotdan turli raqamlar va misollarni keltiradi. Unga ko'ra chumchuqlar har yili 36 million odamning qornini to'ydirish mumkin bo'lgan bug'doyni yeb ketmoqda. Agar ular qirib tashlansa hosilning salmog'i keskin ortadi. Shu tariqa Mao Tszedun tomonidan chumchuqlarga qarshi kurash e'lon qilinadi.

Shundan so'ng mamlakat bo'ylab e'lon beriladi va eng avval dehqonlar ishga kirishadi. Butun Xitoyda chumchuqlarga qiron keltirish boshlanadi. Hukumat barchani shu ishga jalb qiladi. Chumchuq o'ldirish bo'yicha tartib

belgilaydi. Budget tashkilotlarida ishlovchilar, dehqonlar, harbiy xizmatchilar, maktab o'quvchilari va talabalar - hamma shu ishga jalb qilinadi.

Chumchuqlar tabiatan havoda 15 minutdan ortiq parvoz qila olmaydi. Bu unga qarshi kurashayotganlarga qo'l keladi. Odamlar chumchuqlarni charehatish uchun do'mbiralari va boshqa kuchli ovoz chiqaruvchi moslamalar bilan qurolanib olishadi. Baland ovozlari va shovqin-suron bilan qo'rqitilgan qushlar qo'na olmay qulab tusha boshlaydi. Odamlar esa ularni qoplariga solib, maxsus punktlarga olib borib topshirishadi.

«Maktabdagi barcha o'qituvchi va o'quvchilar chumchuq o'ldirishga borardik. Tunda esa ularning uyusini buzishda foydalanish uchun norvon yasardik. Bu ishlar chumchuqlar tabiat uchun foydali qush ekani bilishimizdan ancha avval sodir bo'lgandi. O'shanda bizni chumchuqlar xalqning dorini yeb ketadi, deb ishonitirishgandi», deb eslagandi chumchuq ovida qatnashgan o'quvchi keyinchalik.

Chumchuq ovi boshlangach 1958 yil mart-aprel oylarida birgina Pekin va Shanxay shaharlarida qariyb 1 million dona chumchuq o'ldirildi. Butun Xitoy bo'ylab esa qariyb 2 milliard dona chumchuq yo'q qilindi.

1959 bahorda ob-havo yaxshi keladi. G'alla hosili kutuganidan ham yaxshi rivojlanadi. Mamlakatning barcha hududlaridan mo'l hosil olinishi haqida markazga hisobot topshirishadi. **«oxir-ogibat mo'ljallangan hosil olinmaydi va ocharchilik boshlanadi.**

Mamlakatdagi qariyb barcha chumchuq yo'q qilingach, tabiatdagi muvozanat buziladi. 1959 yilning bahorida hamma joyni shilliqurt va chigirtka bosib ketadi. Ular yo'lida uchragan natsami kemirib ketaveradi, shu jumladan ko'm-ko'k bo'lib o'sib turgan bug'doyni ham. Ularga qarshi hech qanday chora ko'rishning iloji yo'q, ularni kushandasi bo'lgan chumchuqlar esa qirib bitirilgan edi.

Yozga borib hosil yig'ishtirib olinganda bug'doyning salmog'i avvalgi yillardagidan ham bir necha barobar kamligi ayon bo'ladi. Shundan so'ng ocharchilik boshlanadi.

O'sha yil 1958 yilda yetishtirilgan hosildan ham ancha kam xirmon ko'tariladi. 1960-61 yillarda esa ahvol undan ham battar ko'rinish oladi. Avvalgi yillarda yetishtirilgan bug'doyning zaxirasi borligi uchun 1959 yilda ocharchilik ko'lami kamroq bo'ladi. Ammo 1960-61 yillarda ham bug'doy hosilining katta qismini shilliqurt va chigirtka yeb ketgani uchun ocharchilik misli ko'rilgan darajaga chiqadi.

Xitoylik jurnalist, ocharchilik yillari bo'yicha tadqiqot olib borgan Yan Tszishenning keltirishicha, 1958-62 yillarda Xitoyda jami 36 million odam ocharchilik tufayli halok bo'ladi. Rasmiy ma'lumotlarda esa halok bo'lganlar soni 15 million bo'lgani aytiladi.

Har kim ekkani o'radi, deganlaridek, tabiatga qarshi ayovsiz kurash olib borgan xitoyliklarni tabiatning o'zi ayovsiz jazolaydi.

G'ayrat Yo'ldosh tayyorladi

179. To'g'ri javobni toping.

Xitoyliklar nima sababdan chumchuqlarga qarshi "urush ochadi"?

A) Mamlakatda yetishtirilayotgan bug'doyning sezilarli qismini chumchuqlar yeb qo'yayotgani sabab.

B) Chumchuq ovlash bilan ovara bo'lgan bolalar bir-birlariga ko'plab shikast yetkazganlari uchun.

C) Biologlar tomonidan chumchuqlarning kasallik tarqatuvchi jonzor ekani haqidagi hisoboti sabab.

D) Ocharchilik tufayli odamlar yegulik topolmaganlaridan chumchuqlarni ham ovlab, go'shtini iste'mol qilishga kirishgan.

180. To'g'ri javobni toping.

Ushbu surat va matnga aloqador to'g'ri hukmni aniqlang.

A) Chumchuqlarni o'ldirishda fuqarolardan ehtiyoqlik talab etilgan, ya'ni bolalardan bu ishda foydalanmaslik uqtirilgan.

B) Mao Tszedun hisobotida aks ettirilgan ma'lumotlarda bolalarning o'limi bilan bog'liq statistik ma'lumotlar ham berilgan, ya'ni ular uchun harakatli mashg'ulotlar tashkil etish ko'zda tutilgan.

C) Chumchuqlarni o'ldirishda aholining barcha qatlami uchun muayyan me'yorlar belgilangan bo'lib, bu ishga bolalar ham jalb qilingan.

D) Bunda katta yoshli o'quvchilarning kichik yoshli o'quvchilarga ibratini aks etgan.



181. To'g'ri javobni toping.

Nima sababdan chumchuqlarni qirib yuborish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilganlar e'tiroz qila olishmaydi?

A) Chjou Tszyan o'z vaqtida Prussiya qiroli Buyuk Fridrix ham shu tarzda ijobiy natijalarga erishganini ta'kidlaydi.

B) Ularning o'zlarini ham chumchuqlarning zahmatidan bezor bo'lishgan edi.

C) «Katta sakrash» deb nomlangan dasturda e'tiroz qilganlarga chora ko'rilishi uqtirilgandi.

D) Mamlakat rahbari rozilik bildirgan ishga e'tiroz qila olishmasdi.

182. To'g'ri javobni toping.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- Nimisa sababdan Xitoyliklar ko'ngildagidek kurashga olishmadi?
- A) Chunki II Jahon urushi arafasida Xitoyda iqtisodiy muammolar bor edi.
B) Chunki hasharotlarning asosiy kushandasi bo'lgan chumchuqlar qirilib bitgan edi.
C) Chunki mamlakat rahbariyati tomonidan kerakli dastur ishlab chiqilmadi.
D) Chunki insonlarning salomatligi masalasi bu muammoga e'tibor qaratishga to'siq bo'lgan.

183. To'g'ri javobni toping.

Chap ustunda sarlavhalar, o'ng ustunda esa matn qismlarining qisqacha mazmuni berilgan. Ular to'g'ri moslashtirilgan qatorni aniqlang.

1. Tabiatga qarshi chiqish loyihasi

A. Mao Szedunning B-syezddagi nutqi hamda chumchuqlarni charchatish usuli orqali o'ldirishning boshlanishi.

2. Muhim qaror: hasharotlarga va qushlarga qarshi hujum

B. G'alaning yaxshi rivojlana boshlashi ammo hosilning kutilgandan kam bo'lishi hamda bug'doy yetishmovchiligi.

3. Erti quvonish va ocharchilik

D. "Katta sakrash" deb nomlangan dasturning muvqama etilishi va Mao Szedunning unga rozi bo'lishi.

- A) 1 - A, 2 - B, 3 - D
B) 1 - B, 2 - B, 3 - A
C) 1 - D, 2 - A, 3 - B
D) 1 - A, 2 - D, 3 - B

184. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan quyidagi parchada muallif nimani uqirmoqchi bo'ladi? *O'rta maktab ta'limini oxirigacha yetkazmagan Mao Tszedun mamlakatdagi barcha kalamush va chumchuqlarni qirib bitirish qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi haqida tasavvurga ham ega emas. Har bir jonivorning tabiatdagi nuvozanat zanjirida o'z o'rnini borligini anglatmas edi.*

- A) Barcha ham xato qilishi mumkinligini va mamlakat rahbarining bu xatosi birgina uning emas; balki butun jamiyatning xatosi ekanini uqirmoqchi bo'ladi.
B) Mao Tszedunning juda sodda va ishonuvchan shaxs bo'lganini, bu holatga aybdorlar aslida biologlar ekanini ta'kidlamoqchi bo'ladi.
C) O'rta maktab ta'limini oxirigacha yetkazmagan bo'lsa-da, juda dono va bilimdonligi sababli shu darajaga qadar yetganini uqirmoqchi bo'ladi.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- Mamlakat rahbarining bu qarori naqadar ahmoqona qaror bo'lganini va bunga sabab uning yetarli saviyaga ega emasligini ko'rsatmoqchi bo'ladi.

185. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan quyidagi parchani o'qing. Ostiga chizilgan olmosh qaysi so'zga ishora qilayotganini aniqlang.

Xitoy Iktinchi jahon urushidan keyin quloq bir mamlakat edi. O'sha paytda Xitoyda ahvol juda og'ir, ozliq-ovqat yetishmovchiligi bor bo'lib, millionlab odamlar yo'qchilikda yashardi. Xitoy hukumati oldida qishloq so'jaligi hamda iqtisodiyotda islohotlar o'tkazish va mamlakatni quloqliktan chiqarish vazifasi turardi. Amalda shunday islohotlar o'tkaziladi. Ammo ularning foydasidan ziyoni ko'proq bo'ladi.

- A) chumchuqlar B) islohotlar
C) quloqlikdan D) odamlar

186. To'g'ri javobni toping.

Matnda keltirilgan quyidagi gap tarkibida qaysi bog'lovchi vosita qo'yilishi kerak?

...oxir-oqibat mo'ljallangan hosil olinmayvil va ocharchilik boshlanadi.

- A) toki B) shuning uchun
C) ya'ni D) ammo

187. To'g'ri javobni toping.

Matn asosida chiqarilgan qaysi xulosada g'alizlik mavjud?

- A) Muvozanat zanjiri haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan olimlar tabiatga juda katta ziyon keltirishdi.

B) Xitoyda ocharchilik tufayli halok bo'lganlar soni rasmiy ma'lumotlarga qaraganda yuqoriroq edi.

C) 1960-61 yillarda ocharchilik misli ko'rilmagani darajaga chiqadi, chunki bug'doy zaxirasi deyarli bo'shab qolgan edi.

D) Chumchuq ovi boshlangach 1958 yil mart-aprel oylarida Pekin va Shanxay shaharlarini ham qo'shib hisoblaganda qariyb 3 million dona chumchuq yo'q qilinadi.

188. To'g'ri javobni toping.

Odamlar nima uchun do'mbiralar va boshqa kuchli ovoz chiqaruvchi moslamalar bilan qurollanib chumchuq oviga o'tlanishadi?

A) Umumxalq harakatiga aylangan bu chora-tadbirlarda odamlar o'zlarini bayram ishtirokchisi deb tutishgan.

B) Chumchuqlarning do'mbira ovozigacha mahliyo bo'lishi va jamlanishini kutgan kishilar shu tariqa yo'l tutishgan.

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- C) Chumchuqlarning havoda uzoq ortiq parvoz qila olmasligini bilgan odamlar ularni charchatmoqchi bo'lishadi.
D) O'z kayfiyatlarini ko'tarish va bolalarni ham shunga qiziqitirish uchun katta yoshli fuqarolar shu yo'sinda ish tutishgan.

189. To'g'ri javobni toping.

Matndan olingan qaysi gaplarda so'zlarni to'pdan ajratib ifodalagan belgilash olmoshlarini qatnashgan?

1. *Mamlakatdagi qariyb barcha chumchuqlar qirib bitiriladi.*
 2. *Butun Xitoyda chumchuqlarga qiron keltirish boshlanadi.*
 3. *Har bir odamga ma'lum miqdorda chumchuq o'ldirish majburiyati qo'yiladi.*
 4. *Mamlakatdagi qariyb hamma chumchuq yo'q qilingach, tabiatdagi muvozanat buziladi.*
 5. *Har kim ekkani o'radi, deganlaridek, tabiatga qarshi ayovsiz kurash olib borgan xitoyliklarni tabiatning o'zi shu tariqa ayovsiz jazolaydi.*
- A) 1, 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 4, 5
C) 2, 3, 5 D) 3, 5

190. Ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Chumchuqlarni qirishni o'z oldiga maqsad qilgan hukumat juda ko'plab odamlarning halok bo'lishiga sabab bo'ldi.
A) to'g'ri B) noto'g'ri

191. To'g'ri javobni yozing.

Matndan kelib chiqib, xulosa qilinsa, shilliqqurt va chigirtkalariga qarshi kurashda Xitoy hukumatiga nima yordam bergan bo'lishi mumkin?

Ma'mni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

OCH QOLDIRILGAN JONIVOR

Yo'lbars - yo'l-yo'l chiziqli bahaybat mushukni kim ham bilmaydi? Negadir ko'pchilik yo'lbars deganda Afrika savannalarini ko'z oldiga keltiradi. Lekin ishonasizmi yoki yo'qmi, Afrikada umuman yo'lbarslar yo'q, mutlaqol Yo'lbars Osiyo qit'asi hayvonidir.

Yo'lbars mushuksimonlar oilasining pantera urug'iga mansub. Yo'lbarslarning 9 ta turi bor. Shulardan 6 tasi hozirda mavjud, uchtasi esa, afsuski, qirilib ketgan. Ana o'sha qirilib ketganlar orasida Turon yo'lbarasi ham bor.

Yo'lbars Hindistonda harbiy jasorat timsoli, Yaponiyada esa mardlik ramzi hisoblanadi. Janubi-sharqiy Osiyo hamda Koreyada yo'lbarsni "tog'lar va

Barcha kitoblar →

-308-

@ABTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

og'lar sohibi" deb atashgan. Xitoyda esa yo'lbars kuch va salomatlik ramzi hisoblangan.

Turon yo'lbarasi 200 kilogramm vaznl yirik yirtqich hayvondir. Har bir yo'lbars oilasi o'z yer maydoniga ega bo'lib, o'rtacha 8-10 kvadrat kilometrda so'layinlik qilgan. Yo'lbarsning hid bilish organi kuchli rivojlangan, juda yaxshi ishlagan. Ko'zi qorong'ida ham yaxshi ko'rgan. Qochayotgan hayvonni 80-100 metr gacha katta tezlikda quvib borgan. Tutolmasa, uzoq quvib o'rimgan.

Ov baroridan kelisa, erkagi biryo'la 5-6 kilogramm gacha go'sht yeya olgan. Qorni to'q bo'lsa, 4-5 kun ovga chiqmagan, uyasida ag'lanab uxlashni yaxshi ko'rgan. Turon yo'lbarasi bir kecha-kunduzda 18-20 soat uxlab, suv ichish uchungina joyidan qo'zg'algan.

Yo'lbarsning tanasi himoya rangiga ega bo'lgan. Mo'ynasi sarg'ish, qora-bo'kimtir yo'l-yo'l chiziqlardan iborat bo'lib, yo'lbarsni to'qay-qamishzorlarda joyqash qiyin edi. Yo'lbars nomi "yo'l-yo'l bars" so'z birlasmasidan olingan deb taxmin qilinishiga qaramay, bu so'zning etimologiyasi yirtqichning fe'l-atvoriga bog'liq deb xulosa qilingan. Chunki yo'lbars dastlabki istiqomat joyidan yuzlab va hatto minglab kilometr uzunlikka safar qilishga qodir bo'lgan. Yo'lbars 6-7 metr uzunlikka, xususan, 3 metr balandlikka ham hech qiyalmay sakray olgan. Suvda yaxshi suzardi. Turon yo'lbarasi Amudaryodan suzib o'tganiga mahalliy aholi ko'p bor guvoh bo'lgan.

Yo'lbars kuch-qudrat va jasorat timsoli sifatida nafaqat badiiy adabiyot hamda xalq og'zaki ijodiyotida, balki xalq amaliy san'ati, me'morchilik, gilamdo'zlikda ham qo'llangan. Misol uchun, Samarqanddagi Registon me'morchilik ansambli tarkibiga kiruvchi Sherdor madrasasida ham naqshinkor bezaklar bilan ishlangan yo'lbars tasvirini ko'rish mumkin. Yo'lbarslarning, shu qatorda ularning o'ljalari bo'lgan boshqa tuyoqli hayvonlarning ovlanishi, to'qay hamda tog'oldi o'rmonlarining kesilishi, yerlarning qishloq xo'jaligi uchun ishlatilishi, qamishzorlarga o't qo'yilishi - bularning barchasi bu jonivorlarning soni keskin kamayib ketishiga sabab bo'lgan.

XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlarida Markaziy Osiyoni istilo qilgan Chor Rossiyasi qo'shinlari Turon yo'lbarslari hayotining so'nggi chizig'ini chizib berdi. 1883-yilning 27-fevralida Turkiston harbiy okrugi boshlig'i Toshkent va Chinoz o'rtasida yashaydigan yo'lbarslarni yo'q qilishga buyruq beradi. Ov uchun 12-Turkiston batalyoni jalb etiladi. Toshkent yaqinidagi so'nggi yo'lbarasi 1906-yilda knyaz Goltstin otib o'ldiradi. Jonivorning somon tiqlagan terisi XX asrning 60-yillarigacha Davlat tabiat muzeyida saqlangan. Keyinchalik yo'lbarsning somon tiqlagan terisi yong'inda kuyib, yo'q bo'lgan.

Dunyo ekolog va tabiatshunoslari bu turning butkul yo'qolib ketishi Turon yo'lbarasi yashaydigan hududlar ekotizimiga katta salbiy ta'sir o'tkazayotganini aniqlashdi. Ayrim jonivorlar keskin ko'payib, boshqalarning

Barcha kitoblar →

-309-

@ABTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

esa aksincha - sezilarli darajada kamayib ketishi ekumuhit muvozanatini buzmay qolmaydi, albatta.

Turon yo'lbarsini oxirgi marta 1957-yilda Amudaryo o'zaniida ko'rishgan. Oradan 13 yil o'tib, 1970-yilda Turon yo'lbarsi qirilib ketgan deya tan olingan.

Nargis Qosimova



192. To'g'ri javobni toping.

Matn mazmunini bilan bog'liq bo'lgan ushbu xaritadan qanday xulosaga kelish mumkin?

- A) Markaziy Osiyo va uning atrofida yashagan yo'lbarslar XX asr oxiriga kelib butunlay qirilib ketgan.
- B) 1900-yilda Osiyoning kattagina qismida yashagan yo'lbars, XX asrning so'nggi davrlarida faqat janubi sharqiy Osiyo hududlarida qisman saqlanib qolgan.
- C) 1900-yilda ruslar bosqini avjiga chiqishi munosabati bilan yo'lbarslarning yashash manzili Osiyoning sharqiy va janubiy hududlariga qarab siljigan.
- D) Yo'lbars ko'pchilik o'ylaganday Afrika hayvoni emas, balki Osiyo qit'asi hayvonidir. Bu xaritada ham aks etgan.

193. To'g'ri javobni toping.

Matnga ko'ra, hayvonning "yo'lbars" deb atalishiga asl sabab nima?
A) "Yo'l-yo'lbars" 50% birikmasidan olingan.

Barcha kitoblar→

-310-

@ABTbooks kanalida

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

B) U minglab kilometr uzoqlikka safar qilishga qodir bo'lgan.

C) Bu nom o'zbek tiliga rus tilidan o'zlashgan.

D) "Tog'lar va g'orlar sohibi" degan ma'noni bildiradi.

194. To'g'ri javobni toping.

Turon yo'lbarsining yo'q bo'lib ketishiga sabab bo'lgan omillar qatoriga kirmaydigan javobni aniqlang.

- A) yo'lbarslarning, shu qatorida, ularning o'ljalari bo'lgan boshqa tuyoqli hayvonlarning ovlanishi
- B) to'qay hamda tog'oldi o'rmonlarining kesilishi, yerlarning qishloq xo'jaligi uchun ishlatilishi
- C) yo'lbarslarning asosiy ov hududi bo'lgan qamishzorlarga o't qo'yilishi
- D) ob-havoning keskin o'zgarishi, suv sathining yildan yilga ko'tarilishi

195. To'g'ri javobni toping.

Matn mazmunidan kelib chiqib, quyidagi ma'lumotlarni davom ettiring.

1. Yo'lbars Hindistonda...	a) ..."tog'lar va g'orlar sohibi" deb atashgan.
2. Yaponiyada yo'lbars...	b) ...harbiy jasorat timsoli sanaladi.
3. Janubi-sharqiy Osiyo hamda Koreyada yo'lbarsni...	d) ...kuch va salomatlik ramzi hisoblangan.
4. Xitoyda yo'lbars...	e) ...mardlik ramzi hisoblanadi.

- A) 1 - b, 2 - a, 3 - e, 4 - d
- B) 1 - e, 2 - d, 3 - a, 4 - b
- C) 1 - b, 2 - e, 3 - a, 4 - d
- D) 1 - a, 2 - b, 3 - d, 4 - a

196. Ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Yo'lbars biryo'la 5-6 kilogrammgacha go'sht yeysa o'lgan.

- A) to'g'ri
- B) noto'g'ri

197. To'g'ri javobni toping.

Qaysi qatorida berilgan fikr to'g'ri emas?

- A) Yo'lbars 6-7 metr uzunlikka, 3 metr balandlikka sakray o'lgan.
- B) Yo'lbarslarning, umuman, 9 ta turi bor.
- C) Afrikada qit'asida yo'lbars mavjud emas.
- D) Yo'lbars oilasi o'rtacha 8-10 kvadrat metrga xo'jayinlik qilgan.

Barcha kitoblar→

-310-

@ABTbooks kanalida

-311-

Barcha kitoblar→

@ABTbooks kanalida

Quyidagi ikki matni o'qing va berilgan test topshiriqlarini bajarib.

QUTB YULDUZI

Bilasizmi, yulduzlarning ham "yulduzi", ya'ni mashhurli bo'ladi. Qutb yulduzi ana shundaylardan biri. Chunki u o'lgan davrlar mobaynida ko'plab adashganlarga yo'l ko'rsatib, o'z manzillariga eson-omon yetib olishlarini ko'makchi bo'lgan.

Qadimda dengizchilar yoki sahradagi karvonlar yulduzlarning joylashishiga qarab yo'lni aniqlashgan. Yulduzlarni o'rganib, ularning xaritasini chizib beradigan kishilarni esa "munajjim" deb atashgan.

Qutb yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzlardan biri bo'lgani uchun uni topib olish qiyin emas. Ollimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba'zan yillar o'tishi bilan yulduzlarning samodagi o'rni o'zgarib turar ekan. Faqatgina Qutb yulduzi o'z joyidagi hech qachon jilmaydi, doim osmonning shimoliy qismida yaraqlan turadi. Shunday o'ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g'arbni aniqlay olishgan.

Qutb yulduzi Katta Ayiq yulduz turkumiga kiradi. U Quyoshdan 120 marta katta bo'lib, 10 ming marta kuchliroq nur taratadi. Odamlarga yo'l ko'rsatib turgani uchun uni "yo'lchi yulduz" deb ham atashgan. Juda olibda bo'lgani bois ushbu yulduz nurlari Yergacha 472 yilda yetib keladi.

"Jajji akademik" jurnalidan

198. To'g'ri javobni toping.

Matn tarkibida qo'llangan qaysi so'z ham o'z ma'nosida, ham ko'chma ma'noda qo'llangan?

- A) osmon B) yulduz C) yo'l D) turkum

199. To'g'ri javobni toping.

Matn mazmuniga bog'liq qaysi ma'lumot to'g'ri emas?

- A) Uning nuri Quyosh nuriga teng kelolmaydi.
- B) Quyoshdan katta yulduzlar bor.
- C) Qutb yulduzining o'rni muqim.
- D) Unga 400 yilda ham yetish mushkul.

200. To'g'ri javobni toping.

Matnda qo'llangan qaysi gap tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'z yasalma emas?

- A) Shunday o'ziga xos xususiyati tufayli sayyohlar Qutb yulduziga qarab shimol, janub, sharq va g'arbni aniqlay olishgan.
- B) Ollimlarning aytishicha, kunlar, oylar, ba'zan yillar o'tishi bilan yulduzlarning samodagi o'rni o'zgarib turar ekan.
11. Ham yuklamasi bilan ma'nodosh yuklama qatnashgan gapni aniqlang.
 A) Men-chi? Men borishim mumkin emasmi?
 B) Jo'jani kuzda sanaymiz, qadrdon.
 C) Oydan-da go'zaldir, kundand-da go'zal.
 D) O'zi ham darsga kelmagan ekan-ku.

12. Ham yuklamaning ma'nodoshi bilan shakldosh bo'lgan qo'shimcha qatnashgan gapni aniqlang.
 A) Men-chi? Men borishim mumkin emasmi?
 B) Jo'jani kuzda sanaymiz, qadrdon.
 C) Oydan-da go'zaldir, kundand-da go'zal.
 D) O'zi ham darsga kelmagan ekan-ku.

13. Qaysi qatorda so'roq-tajjub yuklamasi qatnashgan gap berilgan?
 A) Men bor-ku! — deb qichqirdi Akbarali kulib.
 B) Hamma narsa o'zimizga qolibdi-da, aylanay?!
 C) Nega yo'q bo'larkan? Muattar Zokirovna-chi? Lobarxon-chi?
 D) Shu zahotiy qo'yiga chiqishga qaror qildi.

14. Qaysi qatorda yuklamalar yozilishi bilan bog'liq imloviy xatolik uchraydi?

- A) Men bor-ku! — deb qichqirdi Akbarali kulib.
 B) Bola-chaqa omon ekammi?
 C) Nega yo'q bo'larkan? Muattar Zokirovna-chi? Lobarxon-chi?
 D) Shu zahot-yoq yo'lga chiqishga qaror qildi.

15. Qaysi qatorda vazifadosh ayiruv-chegaralov yuklamasi qatnashgan gap berilgan?
 A) Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin.
 B) Bizni porloq kelajakka Mustaqillik yo'ligina eltadi.
 C) Mehmon esa «buning o'zi nima-yu, muomalasi nima bo'lardi» degan ma'noda kulib qo'ydi xolos.
 D) Yoshgina bir qiz keng atlas ko'ylagini hilpiratib, sahnaning o'rtasiga keldi-da, nimanidir e'lon qildi.

16. Qaysi qatorda sof ayiruv-chegaralov yuklamasi qatnashgan gap berilgan?
 A) Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin.
 B) Bizni porloq kelajakka Mustaqillik yo'ligina eltadi.
 C) Mehmon esa «buning o'zi nima-yu, muomalasi nima bo'lardi» degan ma'noda kulib qo'ydi xolos.
 D) Yoshgina bir qiz keng atlas ko'ylagini hilpiratib, sahnaning o'rtasiga keldi-da, nimanidir e'lon qildi.

17. Qaysi qatorda ayiruv-chegaralov yuklamasi mavjud emas?
 A) Toki odamlar meni ko'rmasin, faqat mehnatimni ko'rishsin.
 B) Bizni porloq kelajakka Mustaqillik yo'ligina eltadi.
 C) Mehmon esa «buning o'zi nima-yu, muomalasi nima bo'lardi» degan ma'noda kulib qo'ydi.
 D) Yoshgina bir qiz keng atlas ko'ylagini hilpiratib, sahnaning o'rtasiga keldi-da, nimanidir e'lon qildi.

18. Berilgan so'zlardan nechitasi kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari sanaladi?
hatto(ki), go'yo, g'irt, naq, axir, xolos,
nahot(ki), faqat
 A) 2 B) 3 C) 4 D) 5

19. Qaysi qatorda so'zga qo'shib yoziladigan kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi berilgan?
 A) -ku B) -u (-yu)
 C) -da D) -oq (-yoq)

20. Qaysi qatordagi barcha so'z-yuklamalar kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari sanaladi?
 A) hatto, nahotki, ham, g'irt
 B) hatto, ham, faqat, xolos
 C) nahot(ki), atigi, hatto
 D) axir, hatto, nahotki, xolos

21. Gapning ma'lum bir bo'lagi yoki butun gap ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab keluvchi yordamchi so'z qaysi qatorda uchraydi?
 A) Mol o'tlaydigan, bolalar chullak o'ynaydigan yer-da!
 B) Ikkinchiga o'l, hisobni bilmaysan.
 — U pakana kishiga qaradi: Shunday qilsin-a?

- C) Bu nima gap, taqdir, — deb so'rab, — mehmonga izzat hurmat shumi?
D) Faqat og'zidagi o'ljasi suv yuzida qoldi.
22. Kuchaytiruv ta'kid yuklamasi berilmagan gapni aniqlang.
A) To'g'ri-da, u tengi bolalar papka ko'tarib maktabga boshladi, uni esa «kichkina» deb xafa qiltshadi.
B) G'irt o'zginasi ekan otasining, qarashini qara ko'zini tikib.
C) Voy, uyquchi-ey, qachon bo'lsa uxlaysan-a, — dedi dadasi.
D) Zo'r-ku, qog'ozmasmi? — dedi u hammadan keyin boychechakni qo'lga olib.

23. *Hatto, it urishsa zirqirar qalbidim, Odam odam payin qirqamoq bo'lsa-chi?*

- Ushbu gapda yuklamalarning qaysi ma'no turi qo'llangan?
A) kuchaytiruv-ta'kid va so'roq-taajjub
B) so'roq-taajjub
C) kuchaytiruv-ta'kid
D) ayirish-chegaralash

24. Qaysi qatorda o'xshatish-qiyoslash ma'nosini yuklovchi yordamchi so'z mavjud?
A) *Hatto zeb-ziyatni yulqib ziyoda, Haykal ham qo'yingiz bamisi xayol...*
B) *Shundoq deydi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri — bir.*
C) *Bu nima gap, taqdir, — deb so'rab, — mehmonga izzat hurmat shumi?*
D) *Mol o'tlaydigan, bolalar chillaq o'ynaydigan yer-da!*

25. Qaysi qatorda o'xshatish-qiyoslash yuklamasi mavjud?
A) *Mol o'tlaydigan, bolalar chillaq o'ynaydigan yer-da!*
B) *Shundoq deydi-yu, egasi ming poylasin, o'g'ri — bir.*
C) *Bu nima gap, taqdir, — deb so'rab, — mehmonga izzat hurmat shumi?*
D) *Dardga darmon bo'ladigan ham shu so'z, turmushga og'u soladigan ham xuddi shu so'z.*

26. Gumon yuklamasi bilan shakldosh bo'lgan qo'shimcha qatnashgan gapni aniqlang.
A) ...Yig'latahdigan ham sensan, rubobim.
B) «O'lsa o'lgandir, bunga nima janjal!» — deb qo'ydi tag'in birrov.
C) *Suv hayot manbaidir.*
D) *Urug'ingdir, aymog'ingdir, Biror og'zi maymog'ingdir.*

27. Qaysi qatorda gumon yuklamasi qatnashgan?
A) *Furqatning «Sayding qo'yabet, sayyod» musaddasi asl mazmunini bilan erk va ozodlikka chorlovchi madhiyadir.*
B) *Bugun Odillarnikiga, kechki ziyofatga u ham borayotgandir.*
C) *Uni kimdir go'yo elektr to'ki bilan urgandek bo'ldi.*
D) *Masalan, «kel» degani huynuqdan tashqari, o'zi tomonga chorlash ma'nosini ifodalasa, «kel» deganda o'zidan urzoqlashtirish ma'nosi bildirilgan.*

28. Qaysi gap(lar)da inkor yuklamasi qatnashgan?

- 1) *Ko'nglimni tutolmas na ov, na o'yin...*
2) *Hayosizda or bo'lmas, Aslo vafodor bo'lmas.*
3) *Nolimayman na kelajak, na o'tmishimdan.*
4) *Yurtin, senga she'r bitdim bu kun, Qiyosingni topmadim aslo.*
A) 1 B) 1,2 C) 2 D) 1,2,3,4

29. Qaysi qatorda inkor yuklamasi qatnashmagan?
A) *Na o'qiydi, na o'qigani beradi bu battol.*
B) *Hayratga tushmasman bu holdan sira...*

- C) *Yurmasman hech bihishtni izlab...*
D) *Hayosizda or bo'lmas, Aslo vafodor bo'lmas.*

30. Qaysi gapda inkor yuklamasi ishtirok etmagan?

- A) *Ko'nglimni tutolmas na ov, na o'yin...*
B) *Hayosizda or bo'lmas, Aslo vafodor bo'lmas.*
C) *Nolimayman na kelajak, na o'tmishimdan.*
D) *Bu haqda hech kim bilmaydi degandigiz-ku!*

Matni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

XARAJATLARNI FARQLASH

Oylik maosh olishimiz bilan juda ko'pchiligimiz uni turli sarf-xarajatlarga taqsimlab chiqamiz. Barcha xarajatlar ham birdek emas. Ijara haqi, kommunal to'lovlar kabi ba'zi xarajatlar borki, ular zaruriy va majburiydir. Yana bir tur xarajatlar bizning hayotimizni yanada to'liq va quvonchga boyroq qilsa-da, zaruriy yoki majburiy hisoblanmaydi, ular (1) ...ixtiyoriydir.

Zaruriy, majburiy va ixtiyoriy xarajatlar o'rtasidagi farqni tushunish byudjetimizni to'g'ri taqsimlab, sarf-xarajatimizni kamaytirishga yordam berishi mumkin.

Byudjet bu bir oy davomida biz topadigan va sarflaydigan barcha pullarning miqdoridir. Byudjet hisobini yuritishi sarf-xarajatni nazorat qilish, u ishlab topadigan pulimizdan ko'payib ketishining oldini olishga yordam beradi. Byudjetni taqsimlayotganda xarajatlarni ikkita katta turga ajratib olish mumkin: zaruriy va ixtiyoriy (ixtiyoriydan boshqa xarajatlar ham zaruriy xarajatlar tarkibiga kiradi).

Zaruriy xarajatlar shundayki, ular odatda har oytakrorlanadi, ularga pul sarflamaslik, qo'polroq qilib aytilsa, bizni nobud qiladi desa ham bo'ladi. Masalan, *ijara haqi, kommunal to'lovlar, oziq-ovqatlar, yo'l haqi, dori-darmon va h.k.*

Ixtiyoriy xarajatlar esa ega bo'lish yoqimli, lekin hayot uchun zaruriy bo'lmagan narsalarga qilingan xarajatlardir. Ixtiyoriy xarajatlarni yashash tarzini (2) ... sifatli qilish uchun sarflangan pul deb tushunsak ham bo'ladi. Ular

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

bilan hayotni yanada jozibali qilish mumkin, lekin ularsiz ham yashasa bo'ladi. Ixtiyoriy xarajatlarning zaruriy xarajatlardan yana bir katta farqi ularning turli oйда turlicha bo'lishidir.

Odamlarda ixtiyoriy xarajatlar turlicha bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilarini keliraman: restoranda ovqatlanish, uyga taom chaqirtirish, sport mashg'ulotlariga borish, go'zallik salonlariga qatnash, hashamatli aksessuarlar, taqinchoqlar, qimmat kiyimlar, gazeta, jurnallar obunasi, konsert va teatr uchun chiptalar, sayohat, tug'ilgan kun yoki to'yona uchun qilingan xarajatlar.

Agar byudjet hisobini yuritmasak va pulni (3) ... sarflayversak, bora-bora ixtiyoriy xarajatlarimiz ko'payib ketishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, zaruriy xarajatlar uchun kamroq pul qolishini anglatadi. Zaruriy xarajatlarning vaqtida qillimasligi turli katta-kichik muammolarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, haqini vaqtida to'lamasangiz, kommunal xizmatlardan (4) ... uzib qo'yilasiz, ya'ni uyingizda yo'elektr toki, yoki suv bo'lmay qoladi.

Ammo ixtiyoriy xarajatlar ham (5) ... keraksiz emas. Masalan, sport zaliga qatnash sog'lig'ingiz va ruhiyatingiz uchun zarur bo'lishi mumkin.

Byudjet hisobi ana shunday vaziyatlar ko'z oldimizda yaqqol namoyon bo'lishiga yordam beradi.

Ixtiyoriy xarajatlaringizni nazorat qilib borishni tavsiya qilaman. Buni qanday eplash mumkin deysizmi? O'z tajribam bilan bo'lishishga tayyorman. Dastlab, bir oy davomida sarflagan hamma pulimni yozib yurdim. Quyidagi jadval menga juda qo'l keldi:

Xarajat	Sarflangan pul	Sana
Non	12000	Har kuni
Taksi uchun yo'l haqi	16000	02.03.2022
"Coca-Cola" 0,5 litr	5000	02.03.2022
Internet uchun	85000	12.03.2022

Ana shundan keyin menda bir oy davomida nimelarga pul sarflashim haqida to'liq ma'lumot paydo bo'ldi.

Keyin barcha xarajatlarimni sinchiklab o'rganib chiqdim va kerakli-keraksizga ajratdim. Masalan, taksida emas, sal vaqtli yo'lga chiqib, avtobusda ketсам, 14 600 so'm tejar ekaman, "Coca-cola" o'rniга gazsiz oddiy suv olsam, 3000 so'm yonga qolarkan. Quyidagi savollar asosida barcha xarajatlarimni taftish qilib chiqdim: "Bu menga kerakmi?", "Bu meni qanchalik baxtli qildi?"

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

Keyingi oydan asta-sekin pul sarflayotganda o'ylab ko'rishni odat qildim. "To'xta, shuni olmasang, nima bo'ladi? Avtobusda ketsang, kech qolasanmi? Shu qimmat soat nimaga kerak, telefoningda soat bor-ku?" Har kuni gazli ichimlik ichish sog'liq uchun ham zararli!.. Shunday qilib, men har oy maosh olgan kunimog barcha zaruriy xarajatlarga pul ajratib qo'yadigan bo'ldim.

Ba'zi xarajatlar bo'ladi, ular boshqa takrorlanmasligi, lekin zaruriy bo'lishi mumkin. Masalan, 5 500 000 so'mga yangi nouthuk sotib oldim. Bu ishim uchun kerak edi, u bilan ancha samarali ishiab, ko'proq pul topishim mumkin. Ana shunday kutilmagan, lekin zaruriy xarajatlarim ham ko'zdan qochirmaslik lozim. Odatda bunday xarajatlar uchun oldindan pul to'plash kerak bo'ladi.

Xullas, kirim-chiqimlar hisobini to'g'ri yurita olsangiz, xarajatlaringizni (6) ... nazorat qilishingiz mumkin.

Hoshimjon Ayoziy

31. Raqam bilan belgilangan ko'p muqtalar o'rniga qo'yilishi lozim bo'lgan so'zlarni tartibi bilan ko'rsating.

- mutlaqo, bemalol, rejasiz, vaqtincha, butunlay, yanada
- mutlaqo, rejasiz, vaqtincha, butunlay, yanada, bemalol
- yanada, bemalol, mutlaqo, rejasiz, vaqtincha, butunlay
- mutlaqo, yanada, rejasiz, vaqtincha, butunlay, bemalol

32. Muallif odatda bunday xarajatlar uchun oldindan pul to'plash kerak bo'ladi deganda qanday xarajatni nazarda tutadi?

- ijara haqi, kommunal to'lovlar va dori-darmon bilan bog'liq xarajatlarni
- biror nima sotib olish uchun kutilmagan, lekin zaruriy xarajatni
- sport zaliga qatnash yoki sog'liq bilan bog'liq xarajatlarni
- konsernt va teatr uchun chipta sotib olish uchun zarur bo'lgan xarajatni

33. Muallif ixtiyoriy xarajatlar sifatida qaysi turdagi xarajatlarni sanab o'tgan?

- restoranda ovqatlanish uchun qilingan xarajatlar
- ozliq-ovqatlar uchun qilingan xarajatlar
- sport mashg'ulotlariga borish uchun qilingan xarajatlar
- dori-darmon uchun qilingan xarajatlar
- go'zallik salonlariga qatnash uchun qilingan xarajatlar
- ijara haqi uchun qilingan xarajatlar
- taqinchoqlar uchun qilingan xarajatlar
- gazeta, jurnallar obunasi uchun qilingan xarajatlar
- konsernt va teatr chiptalari uchun qilingan xarajatlar
- sayohat uchun qilingan xarajatlar

A) 1, 2, 3, 6, 7, 8, 9, 10

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- B) 3, 4, 5, 7, 8, 9, 10
C) 1, 2, 3, 5, 7, 8, 9
D) 1, 3, 5, 7, 8, 9, 10

34. Zaruriy xarajatlar nima uchun "zaruriy"?

- A) Chunki bunday xarajatlar uchun oldindan pul to'plash kerak bo'ladi.
B) Chunki hayotimizni yanada to'liq va quvonchga boyroq qiladi.
C) Chunki bunday xarajatlar hayotiy zaruratlar bilan bog'liq.
D) Chunki yashash tarzini yanada sifatli qilish uchun muhim.

35. Muallifning xarajatlar jadvaliga e'tibor qarating va shu asosda shakllantirilgan to'g'ri ma'lumotni aniqlang.

- A) "Coca-cola" uchun sarflangan 5000 so'm zaruriy xarajatga mansub.
B) Taksi uchun bir kunda sarflanadigan xarajatni 3-4 hafta davomida avtobusga sarflash mumkin.
C) Non uchun bir oyda o'rtacha 360 ming sarflangan.
D) Jadvalda aks ettirilgan ma'lumotlarning barchasi ixtiyoriy xarajatlarga mansub.

36. Ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

- Ixtiyoriy xarajatlar ko'payib ketishi natijasida zaruriy xarajatlar uchun kam pul qolishi mumkin. Zaruriy xarajatlarning vaqtida qilmashligi esa turli katta-kichik muammolarga sabab bo'lishi mumkin.
A) to'g'ri B) noto'g'ri

37. Quyidagi qaysi voqelik nisbatan avvalroq yuz bergan?

- A) Ana shundan keyin menda bir oy davomida nimnalarga pul sarflashim haqida to'liq ma'lumot paydo bo'ldi.
B) Keyin barcha xarajatlarimni sinchiklab o'rganib chiqdim va kerakli-keraksizga ajratdim.
C) Shunday qilib, men har oy maosh olgan kunimoq barcha zaruriy xarajatlarga pul ajratib qo'yadigan bo'ldim.
D) Dastlab, bir oy davomida sarflagan hamma pulimni yozib yurdim.

38. Matndan olingan qaysi gapda kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi qatnashmagan?

- A) To'xta, shuni olmasang, nima bo'ladi? Avtobusda ketsang, kech qolasanmi?
B) Shu qimmat soat nimaga kerak, telefoningda soat bor-ku?!

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- C) Ana shunday kutilmagan, lekin zaruriy xarajatlarni ham ko'zdan qochirmaslik lozim.
D) Shunday qilib, men har oy maosh olgan kunimoq barcha zaruriy xarajatlarga pul ajratib qo'yadigan bo'ldim.

Matni o'qig va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

KEKSALARNING "MAOSHI"

Yodgorning bobosi ham, buvisi ham pensiyaga chiqqan. Ular, ishlamasalar ham, har oyda pul olishadi. Yodgor esa bunga sira tushunmaydi: "Qanday qilib odamlar ishlamasa ham, maosh olishlari mumkin?"

Eir vaqtlar Yodgorning bobosi avtomobil zavodida muhandis, buvisi esa maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan. Ular keksalikda mehnat qilib pul topish qiyin ekanini yaxshi bilardi. Chunki odam qariganida tez charchaydigan bo'lib qoladi. Shu sababli Yodgorning bobosi va buvisi yoshlikda ko'p mehnat qilib, o'z vaqtida daromad soliqlarini to'lab bortsagan. Boshqacha avtenda, ular **har oyda** to'lab borgan soliqlari hisobidan pensiya jamg'armasi shakllantirilgan. Kishining mehnat faoliyati qanchalik uzoq bo'lsa, unga to'lanadigan pensiya miqdori ham ko'p bo'ladi. Yodgorning bobosi 60 yoshda, buvisi esa 55 yoshda ishdan bo'shab, **shu yildan** pensiyaga chiqqanlar. O'shanda boboning mehnat faoliyati 35, buviniki esa 30 yilga teng edi.

Endi tasavvur qiling, bobo 5 million so'm maosh to'lanadigan korxonada ishlagan. **Har oy** maoshining 12 foizini soliq sifatida ushlab qolingan. Bu 600 000 so'm degani.

$35 \cdot 12 = 420$ oy.

$420 \cdot 600\,000 = 252\,000\,000$.

Ko'rdingizmi, Yodgorning bobosi mehnat faoliyati davomida davlatga kattagina – 252 million so'm soliq to'lagan. O'z vaqtida u kishi to'lagan soliqlarni davlat qarjalarining nafaqasi va boshqa ko'plab ijtimoiy ehtiyojlar uchun sarflagan. Demak, bobo ham pensiyaga chiqqanidan keyin boshqalar to'layotgan soliqlar hisobidan nafaqa olib turishga haqli. Ijtimoiy adolat mana shunday bo'ladi.

"*Tajji akademik*" jurnali

39. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning umumiy xususiyatini aniqlang.

- A) kelishik shakli bilan qo'llangan
B) ravish turkumiga mansub
C) sodda so'zlar sanaladi
D) payt ma'nosini ifodalagan

40. Matn asosida shakllantirilgan qaysi ma'lumot to'g'ri?

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

- A) Yodgorming bobosi 55 yoshida pensiyaga chiqqan va 600 ming so'm pensiya oladi.
B) Yodgorming bobosi mehnat faoliyati davomida har yili 252 million so'm soliq to'lagan.
C) Yodgorming buvisi maktabda o'qituvchi bo'lib ishlagan va 50 yoshida pensiyaga chiqqan.
D) Yodgorming buvisi 30 yillik ish staji bilan pensiyaga chiqqan.

41. Ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang.

Fuqarolar tomonidan to'langan soliqlarni davlat qariyalarning nafaqasi va boshqa ko'plab ijtimoiy ehtiyojlar uchun sarflaydi.
A) to'g'ri B) noto'g'ri

42. Matndan qanday umumiy xulosa kelib chiqadi?

- A) Ish stajining miqdori pensiya miqdoriga ta'sir qiladi.
B) Erkaklar 60 yoshdan, ayollar 55 yoshdan pensiyaga chiqishi mumkin.
C) Qariyanda xor bo'lmaslik uchun yoshlikda mehnat qilish kerak.
D) Pensiya jang'armasi o'z mablag'larimiz hisobidan shakllantiriladi.

43. Matndan olingan quyidagi gapda ostiga chizilgan so'z to'g'ri izohlangan qatorni aniqlang.

Ular, ishlamasalar ham, har oyda pul olishadi.

- A) so'roq-taajjub yuklamasi
B) gumon yuklamasi
C) ayirish-chegaralash yuklamasi
D) kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi

Registon kutubxonasi Ona tili: Super testlar (5-6-7-sinflar)

ALOHIDA SO'ZLAR GURUHI (undov, taqlid va modal so'zlar)

ko'rgan choh ekan», — deya tan berib ketisharkan.

Ushbu gap haqida to'g'ri berilmagan hukmni aniqlang.

- A) buyruq-xitob undovi qatnashgan
B) kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi qatnashgan
C) zidlov bog'lovchisi qatnashgan
D) inkor so'z qatnashgan

6. Nutqiy odat undovi qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Ey Luqmoni Hakim, sening donging tutdi olamni, Bag'ri keng-ku ilimning, Shogirdga ol bolamni.
B) Voy-bo', — deb yubordi u.

Yerimiz muncha chiroylii Globusning o'zginasi-ya!

- C) Xo'sh, ishlar yaxshimi, Hotamjon? — so'radi Mirsidiq aravacha yonida bitta-bitta odim bosib borishar ekan.
D) Birovning oldiga borib «vov-vov» qilib hursa, podshoh gunohkorni yetmish ikki darra urdirar ekan.

7. His-hayajon undovi qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Hay, shostma, — dedi Zebi.
B) Hoy, nima balo bo'ldi? — deb alangladi Inoyat oqsoqol.
C) Voy, nimalarni o'ylayapman men?
D) Kishit-kishit! Bor nariga deymen.

8. Undov so'z ishtirok etmagan qatorni aniqlang.

- A) Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar —
B) Beh-beh! Qo'zichoqlarim, qani, beri kelinglar-chi.

1. Undovlardan so'ng qaysi vazifadagi so'zlar kelganda, oraga vergul qo'yilmaydi?

- A) ot kesimlar B) undalmalar
C) aniqlovchilar D) kirish so'zlar

2. Qaysi qatorda undovlarning ma'nosiga ko'ra turlariga misol berilgan?

- A) oh, hoy B) eh, voh
C) hey, drr D) iye, uf

3. Qaysi qatorda undov so'z qatnashgan?

- A) Qoyilman! Nishonga aniq tegdi-ya!
B) Balki, quyosh kular ertaga, Ochiladi gullar ertaga.
C) Voy, shoshmang, diydorginasiga bir to'yvolay.
D) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltray boshladi.

4. Qaysi gapda his-hayajonni anglatgan undov so'z qatnashgan?

- A) Qoyilman! Nishonga aniq tegdi-ya!
B) Balki, quyosh kular ertaga, Ochiladi gullar ertaga.
C) Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar —
D) Abduqodir «tss» deb barmog'ini labiga qo'ydi.

5. Dastlab ular Umidjonni ko'rganda pisandisiz: «E, bu mishiqli bola-ku», — deyishar, biroq uning ertaklarini eshitgach, «Yo'q, bu bola emas, dunyo

C) Oho, jiyaningiz vazir bo'пти-ya! — deya xursandchiligini izhor qildim.
D) Taq-taq-taq! Kim bor ichkarida? Eshikni oching!

9. Birdan ortiq undov so'z qatnashgan gapni aniqlang.
A) Ur-re-e-e! — u boychechakni qo'lida hilpiratib, toychoqdek shataloq otib chopar edi.
B) «Voy to'ymagur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!» .. deb har xil tovushda baqirishadilar.
C) Eh-ha, nima uchun o'rmonda bunaqa g'ala-g'ovur, tartibsizlik desam, sababi bu ekan-da, — deb o'yladi Ko'rqush.
D) Och qoldingmi, a? Voy, sen-ey, — deya Chuchuk uloqchani shalpanquiloqlaridan tortqilab qo'ydi.

10. Buyruq-xitob undovlari berilmagan qatorni aniqlang.
1) *ey 2) tss 3) oh 4) uh 5) hoy 6) chu 7) chip-chip 8) o'h-ho'*
A) barchasi buyruq-xitob undovi
B) 1,3,4,5,8 C) 3,4,5,8 D) 3,4,8

11. Undov so'z va undalma yommayon kelgan gapni aniqlang.
A) E-e, yeb bo'пти, Ko'kyol deydilar uni! — dedi Isoy bobo kuyib-pishib.
B) Voy-bo', — deb yubordi u. — Verimiz muncha chiroyli! Globusning o'zginasi-ya!
C) Ey Luqmoni Hakim, sening dong'ing tutdi olamni, Bag'ri keng-ku ilmining, Shogirdga ol bolamni.

D) Ur-re-e-e! — u boychechakni qo'lida hilpiratib, toychoqdek shataloq otib chopar edi.

12. Undov so'z va yuklama qatnashgan gapni aniqlang.
A) E-e, yeb bo'пти, Ko'kyol deydilar uni! — dedi Isoy bobo kuyib-pishib.
B) Voy-bo', — deb yubordi u. — Verimiz muncha chiroyli! Globusning o'zginasi-ya!
C) O, muazzam Enasoy daryosi!
D) Ur-re-e-e! — u boychechakni qo'lida hilpiratib, toychoqdek shataloq otib chopar edi.

13. Qaysi qatorda undovlarning ma'nosiga ko'ra turlariga misol berilmagan?
A) hay, voh B) obbo, chu
C) iye, ure D) o'h-ho', kishit

14. Undov so'z va taqlid so'z qatnashgan gapni aniqlang.
A) Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar ...
B) Beh-beh! Qo'zichoqlarim, qani, beri kelinglar-chi.
C) Oho, jiyaningiz vazir bo'пти-ya! — deya xursandchiligini izhor qildim.
D) Taq-taq-taq! Hoy, kim bor ichkarida? Eshikni oching!

15. Undov so'z va modal so'z qatnashgan gapni aniqlang.
A) Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar ...
B) Beh-beh! Qo'zichoqlarim, qani, beri kelinglar-chi.
C) Eh, shundoq odamni ham o'z holiga qo'yishmabdi-da, chog'li!

D) Taq-taq-taq! Kim bor ichkarida? Eshikni oching!

16. Jonivorlarga nisbatan qo'llaniladigan buyruq-xitob undov qaysi qatorda mavjud?
A) Ey qotil, nega shunday katta azim terakni nobud qilding?
B) Hoy, aylanay o'g'rigina bolam, hoshimda shunday musibat turganda ko'zingma uyqu keladimi?
C) Shoshma, Qorako'z, shoshma... Drr! Ana bo'ldi, ketdik.
D) Ey Luqmoni Hakim, sening dong'ing tutdi olamni, Bag'ri keng-ku ilmining, Shogirdga ol bolamni.

17. Kishilarga nisbatan qo'llaniladigan buyruq-xitob undovlarini aniqlang.
1) *ey 2) tss 3) oh 4) uh 5) hoy 6) chu 7) chip-chip 8) o'h-ho'*
A) barchasi B) 1, 3, 4, 5, 8
C) 1, 2, 5 D) 1, 3, 4, 5

18. Qaysi gapda buyruq-xitobni anglatgan undov so'z qatnashgan?
A) O! Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan.
B) Beh-beh! Qo'zichoqlarim, qani, beri kelinglar-chi.
C) Oho, jiyaningiz vazir bo'пти-ya! — deya xursandchiligini izhor qildim.
D) O'hi! — deb yubordi bir yigitcha.

19. Qaysi gapda buyruq-xitobni anglatgan undov so'z qatnashgan?
A) Qoyilman! Nishonga aniq tegdi-ya!
B) Balki, quyosh kular ertaga, Ochiladi gullar ertaga.
C) Oh, bizning odamlar, dilkash odamlar ...

D) Abduqodir «tss» deb barmog'ini labiga qo'ydi.

20. Undov so'z qatnashmagan qatorni toping.
A) «Voy to'ymagur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqchisan-da!» .. deb har xil tovushda baqirishadilar.
B) Hay usta, — dedi Ma'suma beka, — shu payt bu chiziqaringiz kimning qulog'iga kiradi!
C) Ha, to'g'ri aytasiz, do'stim! Shunga shuncha qilmasa ham bo'lardi-ku.
D) Men yetim o'sganman, oh u yetimlik. Voy bechora jonim, desam arzlydi.

21. Haydash-chaqirish ma'nosini bildirgan undov so'z qaysi qatorda qo'llangan?
A) Hammast o'tkinchi, xo'sh, nima o'tmas?
B) Shoshma, Qorako'z, shoshma... Drr!
C) O'h-ho', muncha muzdek?
D) Qo'y, yig'lama, ey baxshi.

22. Qaysi qatorda undov so'z bilan birga qo'llangan undalma mavjud emas?

A) O'ho'!. Polvon qiz bo'ladinganga o'xshaydi-ku!
B) Ey Luqmoni Hakim, sening Dong'ing tutdi olamni.
C) — Hoy, aylanay, o'g'rigina bolam, boshimda shunday musibat turganda ko'zingma uyqu keladimi?
D) Ey qotil, nega shunday katta azim terakni nobud qilding?

TAQLID SO'ZLAR

1. Qaysi qatorda ham taqlid so'z, ham taqlid so'zdan yasalgan fe'l qo'llangan?
- A) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltray boshladi.
 B) Boshidagi toj yal-yal yonarmish.
 C) Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi.
 D) Sayroqlik qaytadan boshlandi: Va-vaq, bit-bil-diq.

2. Egallik shaklimi olgan taqlid so'z qaysi qatorda qo'llangan?
- A) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltray boshladi.
 B) Boshidagi toj yal-yal yonarmish.
 C) Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi.
 D) Shu payt gurs-gurs oyoq tovushlari eshitilib, ovlarda kabobpazilik qiladigan baqaloq bakovul ko'rdi.

3. Tovushga taqlidni bildirgan so'z otga tobelangan gapni aniqlang.
- A) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltray boshladi.
 B) Boshidagi toj yal-yal yonarmish.
 C) Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi.
 D) Shu payt gurs-gurs oyoq tovushlari eshitilib, ovlarda kabobpazilik qiladigan baqaloq bakovul ko'rdi.

4. Taqlid so'z aniqlovchi vazifasida kelgan gapni aniqlang.
- A) Zum o'tmay hovlida ship-ship ovoz eshitildi.
 B) Boshidagi toj yal-yal yonarmish.

23. Jonivorlarga nisbatan qo'llaniladigan buyruq-xitob undovlarini aniqlang.
- 1) *ey 2) tss 3) oh 4) uh 5) hoy 6) chu 7) chip-chip 8) o'h-ho'*
- A) 6,7 B) 1,3,4,5,8
 C) 1,2,5 D) 1,3,4,5

24. Undov so'zlarning ma'no turlariga misol berilgan qatorni toping.
- A) drr, hoy B) o'ho', ey
 C) hay, ey D) tss, chu

25. Hayron qolish hissiyotini ifodalagan undov so'z qaysi qatorda qatnashgan?
- A) - Xo'sh, ishlar yaxshimi, Hotamjon? - so'radi Mursidik aravacha yonida bitta-bitta odim bostib boshlar ekan.
 B) Abduqodir «tss» deb barmog'ini labiga qo'ydi.
 C) Hay, shoshmang, diydorginasiga bir to'yvolay.
 D) Iye, butun boshli bir odam tirilib keladi-yu, ovoragarchiligi bormi?

26. Qaysi qatorda his-hayajonni ifodalaydigan undov so'z va ta'ajubni ifodalaydigan yuklama qatnashgan?
- A) Hoy, nima balo bo'ldi? - deb alangladi Inoyat oqsoqol.
 B) Oho, jivaningiz vazir bo'pti-ya! - dedi Komilaxon.
 C) Oho, gapda sizga hech kim yetolmaydi...
 D) O! Ho'kiz yo'q, og'li ko'cha tomondan teshilgan.

27. Norozlilik hissiyotini ifodalagan undov so'z qaysi qatorda qo'llangan?
- A) Oh, qanday go'zal bu olam!
 B) Oh zolim falak, yiqil boshimgal
 C) Uf... - dedi Xatira xola.
 D) Vovvey, bolam boyaqish-ey.

28. His-hayajon undovlari haqida to'g'ri berilmagan hukmini aniqlang.
- A) His-hayajon undovi gap tarkibida kelib, uni undov gapga aylantirishi mumkin.
 B) His-hayajon undovlarining o'zi undov gap bo'lib kelishi mumkin.
 C) His-hayajon undovlari kishilarning quvonchi, rohatlanish, hayron qolish singari hissiyotlarini ifodalaydi.
 D) His-hayajon undovlari gap tarkibida doimo undov belgisi bilan ajratiladi.

29. Undovlarning ikki turi ham qatnashgan qatorni toping.
- A) Vov, g'alati gapni gapirasiz-a, domlasi, ona o'z belasiga yomonlikni ravo ko'-radimi!..
 B) Oho, gapda sizga hech kim yetolmaydi... Hay, menga qarang! - dedi jiddiyat bilan Zumrad.
 C) «Voy to'ymagur, berib yubording-a, o'z ko'nglingda sen ham uloqtisan-da!» .. deb har xil tovushda baqirishdilar.
 D) Eh-ha, nima uchun o'rmonda bunaqa g'ala-g'ovur, tartibsizlik desam, sababi bu ekan-da, - deb o'yladi Ko'rqush.

30. *Qo'y yig'lama ey baxshi.* Mazkur gapda nechta vergul begisi tushurib qoldirilgan?
- A) 3 ta B) 2 ta C) 1 ta D) 4 ta

- C) Namoz g'azabi oshib, dag'-dag' qaltray boshladi.
 D) Torgina xonani xotin-xalajning qiy-chuvi tutdi.

5. Holatga taqlidni bildirgan so'z sifatoshga bog'langan gapni aniqlang.
- A) Tongda ari gulga so'zlar g'uv-g'uv-g'uv, Guljonim, asaling ber, sog'indim-ku.
 B) Zum o'tmay hovlida ship-ship ovoz eshitildi.
 C) Namiqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axiyri gurullab ketdi.
 D) Endi, ehtimol, dir-dir qaltragan bolalar yuk ko'tarishga yaramas edi, yaxshiyam Qo'chqor bor ekan, kutilmaganda ajoyib bir ish qildi.

6. Holatga taqlidni bildirgan so'z ko'makchi fe'li so'z qo'shilmisiga bog'langan gapni aniqlang.
- A) Shoikrom onasining barmoqlari tars-tars yoritilib ketganini endi payqadi.
 B) Birovning oldiga borib «vov-vov» qilib hursa, podshoh gunohkorni yetmish ikki darra urdirar ekan.
 C) Albatta, yo'l yaxshi bo'lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilinmas, quloq-burunlarni «jaz-jaz» chaqmas edi, lekin iz tushmagan yo'ldan yurish mushkul.
 D) To'rtta savag'ich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi.

7. *Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim.*

- Ushbu gapda nimaga taqlidni bildirishiga ko'ra taqlid so'zlarining qaysi turi qo'llangan?
- A) holatga taqlid
B) tovushga taqlid
C) sodda taqlid so'z
D) takroriy taqlid so'z
- B. Fe'ldan yasalgan otga bog'lanib kelgan taqlid so'z qaysi qatorda qatnashgan?
- A) Yetti qarqochi yulduzi tik kelganda g'og'ir-g'og'ir ovozdanday uyg'onib ketdim.
B) Jigaram otashga togardi jiz-jiz. Sochlarim oqargan shunda ehtimol.
C) Shunday bo'lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titiroqni bosib hazilomuz qichqirdi.
D) Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.
9. Holatga taqlidni bildirgan so'z va fe'l qo'shilishidan hosil bo'lgan qo'shma fe'l qaysi qatorda mavjud?
- A) Ali Qushchi hovliga chiqishi bilan o'ng qo'ldagi bimodan kimdir lip etib chiqib, yo'lini to'sdi.
B) Qamchin bilan taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol.
C) Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar.
D) Tun sukutini ot tuyvoqlarining dupuri buzdi.
10. Qaysi qatorda yasovchi asosi taqlid so'z bo'lgan yasama ot mavjud?
- A) Qamchin bilan taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol.
B) Torgina xonani xotin-xalajning

- qiy-chuvi tutdi.
- C) Qizlarning sho'x qabqahasi quloqlarni qomatga keltirdi.
D) Dupur-dupur ot keldi, Ko'chaga qarang, kim keldi?
11. Taqlid so'z ishtirok etmagan qator qaysi?
- A) Qamchin bilan taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol.
B) Torgina xonani xotin-xalajning baqir-chaqiri tutdi.
C) Tashqaridan gurs-gurs qadam tovushi eshitildi.
D) Dupur-dupur ot keldi, Ko'chaga qarang, kim keldi?
12. Taqlid so'zlar haqidagi xato hukmini aniqlang.
- A) Taqlid so'zlar nimaga taqlidni bildirishiga ko'ra ikki xil bo'ladi.
B) Taqlid so'zlar gapda sodda, qo'shma, juft holda qo'llanilishi mumkin.
C) Taqlid so'zlar otlashishi mumkin, ismlarga mansub.
D) Taqlid so'zlar egallik yoki kelishik shakllarini olishi mumkin.
13. Qaysi gaplarda ham taqlid so'z, ham taqlid asosida yasalgan so'z qatnashgan?
- 1) *Endi, ehtimol, dir-dir qaltiragan bolalar yuk ko'tarishga yaramas edi, yaxshiyam*
2) *Namliqqan shuvoqlar oldin tutab yaxshi yonmasa ham, keyinroq chars-churs uchqun sochdi-da, axyri gurullab ketdi.*
3) *Namoz g'azabi oshib, dag-dag qaltiray boshladi.*

- 4) *Osmonda yombi oltinday yaraqlagan to'lin oy ...xiralashib borar, milt-milt qilgan yakkam-dukkam yulduzlariga uyg'oq edi.*
- A) 1, 2, 3, 4 B) 1, 2, 4
C) 1, 3, 4 D) 1, 2
14. *Shu payt gurs-gurs oyoq tovushlari eshitilib, ovlarda kabobparlik qiladigan baqaloq bokovul ko'rindi.*
- Ushbu gap tarkibida qaysi turkumlarga mansub so'zlar qatnashgan?
- A) ot, sifat, ravish, fe'l, taqlid so'z
B) ot, sifat, ravish, fe'l, undov so'z
C) ot, sifat, fe'l, taqlid so'z
D) ot, sifat, olmosh, taqlid so'z
15. *Tovushga taqlidni bildirgan so'z qaysi qatorda qo'llangan?*
- A) Albatta, yo'l yaxshi bo'lib, jadalroq yurishsa, sovuq uncha bilimmas, quloq-burunlarni «jaz-jaz» chaqmas edi, lekin iz tushmagan yo'ldan yurish mushkul.
B) Shoikrom otasining barmoqlari tars-tars yorilib ketganini endi payqadi.
C) Endi, ehtimol, dir-dir qaltiragan bolalar yuk ko'tarishga yaramas edi, yaxshiyam Qo'chqor bor ekan, kutilmaganda ajoyib bir ish qildi.
D) To'rtta savag'ich bilan tap-tap urib, par singari qilib titibdi.
16. Taqlid so'zlar haqidagi noto'g'ri hukmini aniqlang.
- A) Yordamchi so'z turkumlariga mansub.
B) So'z yasallishi uchun asos bo'la

- oladi.
- C) Otlashish xususiyatiga ega.
D) Egallik va kelishik shakllarini olishi mumkin.
17. Faqat takroriy taqlid so'zlar qatnashgan qatorni toping.
- A) yilt-yilt, xira-xira, duk-duk
B) tez-tez, gurs-gurs, chars-churs
C) hay-hay, qalt-qalt, qab-qab
D) chars-churs, shittir-shittir, taq-tuq
18. Taqlid so'zdan yasalgan ot qatnashgan gapni aniqlang.
- A) Osmonda yombi oltinday yaraqlagan to'lin oy ...xiralashib borar, milt-milt qilgan yakkam-dukkam yulduzlariga uyg'oq edi.
B) Ali Qushchi hovliga chiqishi bilan o'ng qo'ldagi bimodan kimdir lip etib chiqib, yo'lini to'sdi.
C) Sharshtarining ahovqini quloqqa yoqadi, shuning uchun ham kelganmiz-da o'zi, aka.
D) Yetti qarqochi yulduzi tik kelganda g'og'ir-g'og'ir ovozdanday uyg'onib ketdim.
19. Quyidagi so'zlardan nechitasi holatga taqlidni bildiradi?
- gurs-gurs, lip-lip, yilt-yilt, ship, yaraq, g'a-g'a, g'yq*
- A) 3 B) 4 C) 5 D) 6
20. Qaysi gap tarkibida bosh kelishikdagi taqlid so'z qatnashgan?
- A) Taq-tuq etgan ovozdanday cho'chib tushdi.
B) Namoz g'azabi oshib, dag-dag qaltiray boshladi.

C) Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi.
D) Dildorning yuragi duk-duk uradi.

21. Berilgan gaplardan nechitasi tarkibida taqlid so'z qatnashgan?

- 1) Yetti qaroqchi yulduz tik kelyanda g'olng'ir-g'olng'ir ovozdin uyg'onib ketdim.
 - 2) Jigarim otashga begardi jiz-jiz. Sochlarim oqargan shundo, ehtimol.
 - 3) Birdan osmon gumburladi. Uning ovozi barchani birday larzaga soldi.
 - 4) Uzoqdan xira-xira nurlar ko'ringach, biz shu tomonga qarab yurdik.
- A) 4 B) 3 C) 2 D) 1

22. Berilgan so'zlardan nechitasi fe'l yasalishi uchun asos bo'lishi mumkin?

- g'iyq. shildir, m'iyov, mo', lip
- A) barchasi B) 3 C) 2 D) 1

23. Taqlid so'z asosidan yasalgan sodda yasama so'z qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Shunday bo'lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi.
- B) Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga bosh urib shovullab oqyapti.
- C) Qo'qqisdan o'rmon kaptarlari g'uv-g'uvlabqolishibdi: g'uv, g'uv, g'uv.
- D) Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar.

24. Taqlid so'zga so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilishi bilan bog'liq tovush o'zgarishi qaysi qatorda kuzatiladi?

- A) Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.
- B) Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga bosh urib shovullab oqyapti.
- C) Qo'qqisdan o'rmon kaptarlari g'uv-g'uvlabqolishibdi: g'uv, g'uv, g'uv.
- D) Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar.

25. Taqlid so'z fe'ldan yasalgan otga bog'langan qatorni toping.

- A) Shunday bo'lsa ham, vujudini tutgan qalt-qalt titroqni bosib hazilomuz qichqirdi.
- B) Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.
- C) Qamchin bilan taqa-tuq, Darvozani qoqdi chol.
- D) Ali Qushchi hovilga chiqishi bilan o'ng qo'ldagi binodan kimdir lip etib chiqib, yo'lini to'sdi.

26. Tun sukutini ot tuyoqlarining dupuri buzdi.

- Ushbu gapda qo'llangan taqlid so'z haqida to'g'ri berilmagan hukmni aniqlang.
- A) bosh kelishik shaklida
 - B) otlashib kelgan
 - C) atash ma'nosiga ega
 - D) ismlarga mansub birlik

27. Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar.

Berilgan gapda taqlid so'z qaysi so'zga bog'langan?

- A) otga B) fe'lga
C) sifatga D) ko'makchiga

28. Takroriy taqlid so'zdan yasalgan fe'l qaysi qatorda qo'llangan?

- A) Qo'qqisdan o'rmon kaptarlari g'uv-g'uvlabqolishibdi: g'uv, g'uv, g'uv.
- B) Yum-yumaloq qasqonim Baka-baka-bum. Bo'yimda mis marjonim, Baka-baka-bum.
- C) Apil-tapil chaynadi u, Loy ekan, vuy, tfu, tfu.
- D) Sayroqlik qaytadan boshlandi: Va-vaq, va-vaq, bit-bit-diq, bit-bit-diq.

29. Boshqa so'zga yordamchi so'z orqali bog'langan taqlid so'z qatnashgan gapni aniqlang.

- A) Allakim ship-ship qadam bosib, ayvon labiga kelayotganday bo'lardi.
- B) Pastda esa odamni oqizadigan katta suv xarsanglarga bosh urib shovullab oqyapti.
- C) Qo'qqisdan o'rmon kaptarlari g'uv-g'uvlabqolishibdi: g'uv, g'uv, g'uv.
- D) Men-ku ishonaman, sahrolar gullab, Sizning qiy-chuv bilan to'lgay dalalar.

30. Quyidagi so'zlardan nechitasi tovushga taqlidni bildiradi?

- jimir-jimir, va-vaq, qars-qars, dag, dag, yilt-yilt, ship, yaraq, g'a-g'a, g'iyq*
- A) 7 ta B) 4 ta C) 5 ta D) 6 ta

MODAL SO'ZLAR

1. Qaysi qatorda modal so'zlarning ma'nosiga ko'ra turlariga misol berilgan?

- A) shekilli, ehtimol, balki
- B) shaksiz, albatta, shubhasiz
- C) darhaqiqat, haqiqatan
- D) xullas, avvalo, masalan

2. Qaysi gapda gumon ma'nosini ifodalagan modal so'z va yuklama mavjud?

- A) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.
 - B) Afsuski, besh qo'l barobar emas.
 - C) Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi.
 - D) Ularga qarshi kurashish hammamizning burchimiz, albatta.
- E) Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi.

3. *haqiqatan, afsuski, ottang, shekilli, avvalambor, shubhasiz, koshki, masalan*

Ushbu so'zlardan nechitasi so'f modal so'z sanaladi?

- A) barchasi B) yettitasi
C) oltitasi D) beshitasi

4. Vazifadosh modal so'zlar to'g'ri belgilangan qatorni aniqlang.

- 1) *ehtimol* 2) *albatta* 3) *shekilli* 4) *taxminan* 5) *aftidan* 6) *chamasi* 7) *umuman*

- A) 1, 4, 5, 6, 7 B) 1, 2, 3, 5
C) 1, 4, 5, 6 D) 4, 5, 6, 7

5. Quyidalardan vazifadosh modal so'zlarni aniqlang.

1) ehtimol 2) albatta 3) shekilli 4) taxminan 5) avvalo

- A) 1, 2, 3 B) 2, 3, 5
C) 1, 2, 4 D) 2, 3, 4, 5

6. Quyidagi birliklardan nechitasi modal so'z sanaladi?

ammo, hamisha, afsus, shubhasiz, noiloj, albatta, ehtimol, biroq, birdan, aftidan

- A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 8 ta

7. Qaysi qatorda modal so'zlarning ma'nosiga ko'ra turlariga misol berilmagan?

- A) jumladan, masalan
B) avvalo, haqiqatan
C) darhaqiqat, ehtimol
D) shekilli, albatta,

8. Uning «ko'cha bolasi» ekanini aftidan bilib olish qiyin emas edi.

Ushbu gapda ostiga chizilgan so'zning turkumini aniqlang.

- A) modal so'z B) ot C) ravish D) sifat

9. Jumladan, suv tarkibida ham vodород mavjud

Ushbu gapda modal so'zlarning qaysi ma'nosini anglatgan birlik qatnashgan?

- A) fikrning dalillanishi
B) fikrning tartibi
C) fikrni xulosalash
D) fikrga ishonch

10. Qaysi qatorda modal so'z qatnashgan gap berilgan?

- A) Bo'ron bo'lishi ehtimol, qizim.
B) Gulchehraning chamasi to'g'ri chiqdi.

C) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.

D) Uning «ko'cha bolasi» ekanligini aftidan bilib olish qiyin emas edi.

11. Kanizak, aftidan, shuni aytmoqchi emas edi, shekilli, noiloj «cha» dedi.

Ushbu gapda qo'llangan modal so'z(lar) haqida to'g'ri hukmni aniqlang.

A) bir ma'noni anglatgan modal so'zlar qatnashgan

B) ikki o'rinda vazifadosh modal so'z qatnashgan

C) ikki o'rinda sof modal so'z ishurok etgan

D) modal so'zlarning ikki ma'no turi qatnashgan

12. Qaysi qatorda ham modal so'z, ham ko'makchi qatnashgan gap berilgan?

A) Kattasi ham uyg'omib ketdi, shekilli, qo'shilish yig'lashga tushdi.
B) Ehtimol, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.

C) Darhaqiqat, pulsiz hech ish qilib bo'lmaydi.

D) Xullas, hayot oqimi to'xtamaydi.

13. Xayriyat, daraning oxiriga yaqinlashgan sayin asov soy

soyozlashib, maz tabora yuqqalashib bardi-yn, nihoyat, qoyatoshlar

chekimb, yaylov ko'rindi.

Ushbu gapda mustaqil so'zlarga mansub bo'lmagan nechta birlik qo'llangan?

- A) 6 ta B) 5 ta C) 4 ta D) 3 ta

14. Ishonch ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.

B) Afsuski, besh qo'l barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi.

C) Ularga qarshi kurashish hammanimizning burchimiz, albatta.

D) Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi.

15. Gumon ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.

B) Afsuski, besh qo'l barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi.

C) Ularga qarshi kurashish hammanimizning burchimiz, albatta.

D) Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi.

16. Tasdiq ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.

B) Balki, ustoz Oybekdek to'lib, Yozajaksan yangi bir doston...

C) Darhaqiqat, Zulfiya she'riyati mardona she'riyat.

D) Xullas, biz ulug' odamlarning farzandlarimiz.

17. Fikrni xulosalash ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.

B) Balki, ustoz Oybekdek to'lib, Yozajaksan yangi bir doston...

C) Darhaqiqat, Zulfiya she'riyati mardona she'riyat.

D) Xullas, biz ulug' odamlarning farzandlarimiz.

18. Fikrning tartibi ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.

B) Afsuski, besh qo'l barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi.

C) Ularga qarshi kurashish hammanimizning burchimiz, albatta.

D) Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi.

19. Fikrning dalillanishi ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Mening beshimga otilgan ul o'q Sizing umringizni uzgan, ehtimol.

B) Xullas, ana shu ajrlqzordan sal o'tgandan keyin qishloqcha boshlanadi.

C) Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirolmadi.

D) Sharq olamida, jumladan, o'zimizning O'rta Osiyo sharoitida jamoa bo'lib yashash tuyg'usi g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi

20. Aclinish ma'nosini ifodalagan modal so'z qaysi qatorda qo'llangan?

A) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.

B) Afsuski, besh qo'l barobar emas. Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi.

C) Ularga qarshi kurashish hamamizning burchimiz, albatta.
D) Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi.

21. Sof modal so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.
B) Ehtimol, ertalab o'ziga isitib berish uchun shunaqa deyayotgandir.
C) Aftidan, G'ulomjon bu g'alvalarni ataylab boshlagan.
D) Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirilmadi.

22. Vazifadosh modal so'z ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.
B) Ularga qarshi kurashish hamamizning burchimiz, albatta.
C) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.
D) Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirilmadi.

23. Qaysi qatorda ham bog'lovchi, ham modal so'z vazifasida qo'llana oladigan so'z berilgan?

A) avvalo B) balki
C) nihoyat D) hamda

24. Ham yordamchi so'z, ham modal so'z ishtirok etgan gap berilgan qatorni aniqlang?

A) Chamasi, hammasining og'zi tekkan ekan o'sha go'shtga.

B) Ularga qarshi kurashish hamamizning burchimiz, albatta.
C) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.
D) Abduqodirning ham tomog'iga bir narsa kelib tiqildi, shekilli, gapirilmadi.

25. Yoriq' duryodagi har bir maxluqat, avvalo, ozod va erkin yashash uchun yaratilgan.

Ushbu gapda modal so'zlarning qaysi ma'nosini anglatgan birlik qatnashgan?

A) fikrning dalillanishi
B) fikrning tartibi
C) fikrni xulosalash
D) fikrga ishonch

26. Xullas, ana shu ajriqordan sal o'tgandan keyin qishtaqcha boshlanadi.

Ushbu gapda modal so'zlarning qaysi ma'nosini anglatgan birlik qatnashgan?

A) fikrning dalillanishi
B) fikrning tartibi
C) fikrni xulosalash
D) fikrga ishonch

27. Xayriyat, odamlarimizga insof va diyonat qaytib kelmoqda.

Ushbu gapda qo'llangan modal so'z qanday munosabatni ifodalagan?

A) ishonch B) gumon
C) quvonch D) achinish

28. Qaysi qatorda modal so'z ishtirok etmagan?

A) Avvalo, insonning qalbi go'zal bo'lmog'i kerak.

B) Oramizda yomon niyatli kimsalar ham uchrab qoladi.

C) Ularga qarshi kurashish hamamizning burchimiz, albatta.
D) Aravakash zerikdi, shekilli, astagina ashula boshladi.

29. Quyida modal so'zlarning necha ma'no turiga oid birliklar mavjud?

albatta, shaksiz, ehtimol, haqiqatan, xullas, masalan, umuman

A) 4 B) 5 C) 6 D) 7

30. Qaysi qatorda modal so'zlarning faqat bir ma'no turiga oid birliklar mavjud?

A) ehtimol, balki, chamasi
B) shekilli, darhaqiqat, xullas
C) umuman, avvalo, jumladan
D) albatta, aftidan shaksiz

MATN USTIDA ISHLASH

Matni o'qing va quyida berilgan test topshiriqlarini bajaring.

ELEKTROMOBIL O'ZI NIMA?

Odamlar manzili ni yaqin qiluvchi avtomobil bugun yanada rivojlanib, ko'p qulayliklarni o'zida jamlamoqda. Kun sayin qiziqish va ehtiyoj ortib borayotgan elektromobillar o'zi qanday qulayliklarga ega? Benzin yo'zida yuradigan mashinalardan ko'ra foydaliroqmi yoki uni quvvatlash ham muammoli masalammi?


Elektromobil o'zi nima?

Elektromobil – ichki yonuv dvigateli bilan emas, mustaqil energiya manba bilan ishlaydigan, bir yoki bir nechta elektr dvigatellari tomonidan boshqariladigan avtomobildir. U shaharda foydalanishga qulay, odatiy avtomobil turiga qaraganda ancha yengillashtirilgan. Akkumulyatorlari almashirishga mo'ljallangan holda yaratiladi. Elektromobil ishqibozlari uning tabiatga zararli yetkazmasligi, ya'ni o'zidan zaharli gazlar chiqarmasligini asosiy ustunlik deb biladilar.

Elektromobillarning boshqa transport vositalaridan farqlari:

- elektromobillar odatiy avtomobillarga nisbatan kamxarj;
- yo'llarda deyarli ovoz chiqarmay harakatlanadi;
- motor moyi sarflamaydi;
- elektromobil rekuperativ tormozidan o'zining elektron akkumulyatorini qayta quvvatlash uchun foydalanishi mumkin;
- elektroenergiya ishlab chiqaruvchi amortizatorlaridan ham qayta quvvatlash uchun foydalanishi mumkin.

O'zbekistonga import qilingan avtomobillar soni



O'zini o'zi quvvatlash nima?

Elektromobil yurgan paytga o'zini o'zi quvvatlaydi. Bilasiz, mashina yurishi uchun gaz bosiladi. Ma'lum tezlikka yetgach esa, gazni vaqtincha qo'yib yuborish mumkin. O'zini o'zi quvvatlash jarayoni ayni shu vaqtda sodir bo'ladi, ya'ni gazdan oyog'ingizni olishingiz bilan g'ildiraklar to'xtagunicha ularning aylanishi hisobiga elektromobil quvvat oladi.

Elektromobilning kamxarjligi nimada?

